ISSN 3030-3230

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY

2023, №4

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

MUNDARIJA
CONTENTS

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK
I. CONSTITUTION, HUMAN RIGHTS AND NATIONAL LEGISLATION

DJURAYEV R.M.
Jinoyat ishlarini tergov qilishda idoraviy-protsessual nazorat: nazariy va amaliy yondashuv **3**
ISLOMOV B.D.
Yangi tahrirdagi asosiy qonunimizda adolat tamoyillari ustuvor **10**
MAMAYUSUPOV S.D.
O‘zbekistonda desekulyarizatsiya jarayonining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri **14**
USMONOV M.B.
Yer muhofazasi sohasidagi jinoyatlarning jamoat xavfsizligiga ta’sirini oldini olish muammolari **18**
MUXAMMADIYEV A.A.
Tashkilotlarga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulklarni qo‘riqlash masalalari **23**
NURMATOV M.M., RIZOYEV F.F.
Huquqbuzarliklarni oldini olishning zamonaviy usullari **27**
CHINIYEV D.A.
Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish – davlatimiz taraqqiyot yo‘lining asosiy maqsadi **33**
AXMEDOVA M.T., MUINOVA N.A.
O‘zbekistonda ayollar saylov huquqining tartibga solinishiga oid muhim masalalar **39**
XOLBO‘TAYEV A.A.
Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar tushunchasi **45**
ZOKIROV B.P.
Xorijiy davlatlarning jinoiy aktivlarni qaytarish bo‘yicha ijobiy tajribalari (Qozog‘iston misolida) **51**
NAZAROVA L.G.
Jinoyat ishini sudga qadar yuritishda mol-mulkni xatlash protsessual harakatini takomillashtirish **55**
ЮСУПОВ Н.А.
Особенности стадий административно-правового регулирования производства служебной проверки в Республике Узбекистан **62**
USMONOV B.A.
Firibgarlik jinoyatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashning protsessual tartibi **67**

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI
II. PUBLIC ORDER AND PUBLIC SAFETY

OLIMJONOV X.M.
Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solinishini rivojlantirish **71**
YUSUPOV M.B.
Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy holati **75**
XO‘JAMBERDIYEV F.K.
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashda qonunosti hujjatlari normalarining o‘rni va ahamiyati **80**
ATAJANOV O‘.M.
Jamoat xavfsizligini ta’minlashda profilaktika inspektori faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tasnifi **88**
TOSHMUXAMMATOV A.Y.
Milliy gvardiyaning ommaviy tadbirlarni o‘tkazishdagi faoliyatini samarali tashkil etish istiqbollari **96**
QODIROV T.T.
Uchuvchisiz uchish apparatlarini jamoat xavfsizligini ta’minlashda tutgan o‘rni va ahamiyati (terrorizmga qarshi kurash misolida) **103**
SADULLAYEV T.Sh.
Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda fuqarolarning xavfsizligini va jamoat tartibini ta’minlash chora-tadbirlarni takomillashtirish **109**

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR

III. REFORMS IN THE MILITARY SPHERE

ANARKULOV A.D., XAYDAROV N.S., DAVRONOV O.O.
O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilari (xodimlari)ning pul ta'minotini hisoblash va to'lash tartibini zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish **114**
BUZRUKOV U.S.
Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo'linmalar harbiy xizmatchilarni tayyorlashda maxsus taktik tayyorgarlikning roli.. **118**
DUSCHANOV Sh.Sh., SHOMUROTOV Z.Z.
Tog'-balandlik tayyorgarligida zamonaviy trenajyor ("Skalodrom" universal majmuasi)ning roli..... **122**
GIYASOV D.F., KUVONDIKOV Z.K.
O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning pedagogik shart-sharoitlari..... **126**
BERDIYEVA U.U.
O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish..... **133**

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI
IV. CURRENT SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF SOCIAL DEVELOPMENT

NURMATOV M.M., ELOV A.A.
Iqlim o'zgarishi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri..... **142**
YUSUPOVA D.D.
Islom siyosiylashuvining tarixiy xususiyatlari **148**
RAVSHANOV S.G'., BOBOQULOV Z.R.
Turk madaniy diplomatiyasining o'ziga xos jihatlari **152**
MUINOVA N.A.
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish va gender tengligini ta'minlashga oid masalalar..... **158**
QO'YSINOVA F.O.
Ekstremizm va radikalizmni oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ilg'or amaliyotlar: O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi..... **163**
TOLIPOV A.A.
Yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olishda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning o'rni..... **170**
YUSUPOV M.B.
Ommaviy tadbirlarni o'tkazilishida jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xususiyatlari..... **176**
CHINIBAYEV J.I.
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini profilaktika qilishning muhim omili (jismoniy tarbiya va sport misolida)..... **181**

V. TA'LIM-TARBIYA JARAYONI
V. EDUCATION, EDUCATIONAL PROCESS

SHIRINOVA N.D.
Ingliz tili darslarida oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarining bilish faolligini oshirish muammolari..... **189**
TOSHEV A.A.
Ikkinchi jahon urushidan so'ng xorijiy davlatlar armiyalarining shahar sharoitida jangovar harakatlarni olib borishi va janglardan orttirilgan tajribalari..... **193**

VI. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT
VI. ECONOMICS: THEORY AND PRACTICE

АЛИМОВА Г.А.
Теоретические аспекты оценки военно-рекреационной аттрактивности территорий..... **197**

VII. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI
VII. TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

XOLIQOV Sh.A.
Onlayn ijtimoiy tarmoqlardan botlarni aniqlash (mashinali o'rganish usullaridan foydalanish misolida)..... **204**
FAYZIBAYEV Sh.S., RAXMIDDINOV I.O., ShOISAYEV A.A.
Maxsus o'ziyurar harakat tarkibining elektr jihozlarining texnik holatini hisobga olgan holda oraliq ta'mirlash davrlarini optimallashtirish modellari **210**
IMINOV A.A., KAMOLOV A.A.
Favqulodda vaziyatlarda harakatlanuvchi uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish istiqbollari..... **216**

VIII. XORIJIY TAJRIBA
VIII. FOREIGN EXPERIENCE

НАМЫСОВ Е.Д.
Освещение отдельных аспектов интернет-мошенничества по уголовному законодательству Республики Казахстан..... **221**
РАШИДОВА К.И.
Понятие рабства и его современных форм в международном праве..... **226**
ДЕВЯТКИН А.В.
Организационные основы системы подготовки квалифицированных кадров Вооруженных сил Китая на современном этапе..... **233**

Djurayev Rustam Mirzayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni, general-mayor,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist

JINOYAT ISHLARINI TERGOV QILISHDA IDORAVIY-PROTSESSUAL NAZORAT: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

Dunyoda jinoyat ishlari yurituvi jarayonida insonning huquq va erkinlarining davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan cheklanishi va poymol qilinishining ehtimoli katta bo‘lganligi sababli jinoyat protsessining sudga qadar ish yuritish bosqichlarida shaxs konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi huquqlarini ta’minlash, asossiz jinoiy ta’qib va xususiy hayotga aralashishdan samarali himoyalash, qonun buzilishlarining oldini olish uchun qo‘shimcha kafolatlar yaratish, sudga qadar ish yurituvi organlarining faoliyatining tashkiliy va protsessual mexanizmlarini rivojlantirish, uning samaradoriligini oshirish uchun zamonaviy, innovatsion axborot texnologiyalarga asoslangan uslublarini ishlab chiqish, dastlabki tergov organlari faoliyatning sifati va samaradorligini oshirish muammolarining yechimini topishga undamoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2021 yilda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan jami 61 263 nafar shaxsga nisbatan 47 647 ta jinoyat ishlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, shundan 932 nafar shaxsga nisbatan oqlov xukmi chiqarilgan va reabilitatsiya qilingan [1]. Mazkur statistik ma’lumotlar jinoyat ishlarini tergov qilish sifatida jiddiy kamchiliklar kuzatilayotganligi va bu borda idoraviy protsessual nazoratni takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish dolzarbligini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasining 17-maqsadi “Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish va ularning faoliyatini xalq manfaatlari, inson qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish” doirasida “...tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish” [2] vazifasi belgilangan.

Darhaqiqat, bugungi kunda shakllangan jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatidagi yangi huquqiy doktrina jinoyat ishini yuritishda tergov organlarining insonga, uning huquq va erkinliklariga munosabati tubdan o‘zgarayotganidan dalolat beradi.

Jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining normalari bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar bo‘lib, ularning ishtirokchilari jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish, tergov qilish, muhokama qilish va hal qilish borasidagi faoliyat davomida protsessual huquq va majburiyatlarning subyektlari sifatida qatnashadilar. Ushbu huquqiy munosabatlarda davlat organining ishtiroki shart ekanligi mazkur munosabatlarning xususiyatini tashkil qiladi. Ayni paytda mazkur munosabatlar davlat organlarining o‘zi, masalan, tergovchi va prokuror, prokuror va sud kabilar o‘rtasida ham yuzaga kelishi mumkin. Binobarin, jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlar hokimiyat va bo‘ysunish munosabatlaridir va shu bois ular hokimiyat munosabatlari deb atalishi mumkin.

Bir guruh olimlar protsessual huquqiy munosabatlar doimo ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lishini, ya’ni ushbu munosabat subyektlaridan birining huquqi albatta boshqasining majburiyatiga mos kelishi va aksincha aks etishi, hatto, agar u yoki bu harakatda bir necha shaxs ishtirok etsa ham, huquqiy munosabatlar ikki tomonlama bo‘lib qolaveradi hamda ularda muayyan huquq va majburiyatlar egasi sifatida davlat organi ishtirok etishi shart bo‘ladi. Masalan, yuzlashtirish chog‘ida

so‘roq qilinayotgan shaxs surishtiruvchi, tergovchi yoki sud majlisida raislik qiluvchining ruxsati bilan so‘roq qilinuvchi boshqa shaxsga savol berishi mumkin (JPK 123-m). Biroq ular o‘rtasida o‘zaro huquq va majburiyatlar yuzaga kelmaydi” deb ta’kidlaydilar [3].

Mazkur fikrlar o‘rinli, jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarning boshqa bir xususiyatini ularning jinoyat-huquqiy munosabatlar bilan aloqasi tashkil qiladi. Chunki jinoyat-protsessual faoliyat jinoyat-huquqiy munosabatlarning xususiyatini aniqlashga qaratilgan. Aynan jinoiy huquqbuzarliklarning katta ijtimoiy xavfi jinoyat-protsessual munosabatlarning hokimiyat bilan bog‘liq xususiyatini keltirib chiqaradi.

Biroq jinoyat-huquqiy va protsessual munosabatlar o‘rtasida farqlar ham mavjud. Jinoyat-huquqiy munosabatlar bevosita davlat hamda jinoyatni sodir etgan shaxs o‘rtasida yuzaga kelsa, jinoyat-protsessual munosabatlarda davlatning o‘zi emas, balki uning huquqni qo‘llash faoliyatini amalga oshirish vakolati berilgan organlari ishtirok etadi. Jinoyat-huquqiy munosabatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi yuridik faktni ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik), jinoyat-protsessual munosabatlar yuzaga kelishiga olib keluvchi yuridik faktni esa sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyat haqidagi ma’lumotlarning kelib tushishi tashkil qiladi va h.k.

Shunday bo‘lsada, boshqa guruh olimlari “JPKda protsessual huquq va majburiyatlar berilgan shaxslar va organlar jinoyat-protsessual munosabatlarning ishtirokchisi hisoblanadi. Qonunda ularning doirasi, faoliyatining xususiyatlari ham belgilangan. Protsess ishtirokchilarining jinoyat-protsessual huquq normalarida belgilangan muayyan protsessual huquq va majburiyatlarga ega bo‘lish qobiliyati ularning protsessual huquqiy layoqati deb ataladi [4]” deydilar.

Jinoyat ishlarini tergov qilish va hal qilish tartibi, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning faoliyati hamda ularning jinoyat ishlarini yuritishda ishtirok etuvchi fuqarolar va tashkilotlar bilan munosabatlari jinoyat-protsessual qonunda ifodalangan (jinoyat-protsessual huquq) normalar bilan tartibga solinadi.

Jinoyat-protsessual kodeksi har qanday boshqa qonun singari bajarilishi shart bo‘lgan hamda aniq va og‘ishmay rioya etilishi lozim bo‘lgan qonundir. Ushbu qonunga qat’iy amal qilgan taqdirdagina jinoyat protsessining maqsadlariga erishish mumkin. Jinoyat-protsessual qonun surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning jinoyat ishlarini tergov qilish va mazmunan hal etishdagi faoliyati hamda ularning jinoyat ishlari bo‘yicha ishtirok etadigan fuqarolar va tashkilotlar bilan munosabatlarini tartibga soladi. Jinoyat protsessining tartibga soluvchi vazifasi uning ushbu organ va shaxslarga muayyan huquqlar berishi va zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklashida namoyon bo‘ladi. Bu jinoyat-protsessual qonuni bilan belgilanadigan huquqiy qoidalar jinoyat-protsessual normalarni amalga oshirishning umumiy va majburiy shakli bo‘lgan jinoyat-protsessual munosabatlar orqali ro‘yobga chiqishini bildiradi.

Darhaqiqat, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etayotgan biror-bir davlat organi, jamoat birlashmasi yoki fuqaroning har qanday protsessual harakati jinoyat-protsessual munosabatlarni keltirib chiqaradigan faktlar yoki ushbu munosabatlar subyekti o‘z huquqlarini amalga oshiradigan yoxud majburiyatlarini bajaradigan harakatlardir.

Ma’lumki, jinoyat ishlarini tergov qilishning ikki shakli mavjud bo‘lib, JPKning 36 va 39-moddalariga asosan, mazkur ishlar surishtiruv va dastlabki tergov tarzida olib borilishi belgilab qo‘yilgan. Har ikki jinoyat ishlarini tergov qilish chog‘ida tergovchi va surishtiruvchi protsessual jihatdan mustaqil ekanligi va uning faoliyati har qanday aralashuv qonunga binoan taqiqlanadi [5].

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining sudgacha bo‘lgan bosqichda huquq va erkinliklarini ta’minlash vositalaridan biri bu – sud nazorati va prokuratura nazorati bilan bir qatorda tergov organi va surishtiruv

organi rahbarining vakolatlaridan iborat idoraviy protsessual nazorat hisoblanadi va bevosita tergov jarayoniga ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, mazkur munosabatlar chog'ida qonunchilik surishtiruv va dastlabki tergov ustidan belgilagan idoraviy-protsessual nazoratni olimlar ijtimoiy zaruriyati borasida bir qancha fikrlarni bildirib unga quyidagicha ta'rif berib o'tganlar.

Jumladan, B.A.Mirenskiy "Tergovchining faoliyatini idoraviy protsessual nazorat qilish huquqi qonun bo'yicha, tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'iga va uning o'rinbosariga berilgan (JPK 37-m.). Ular keng vakolatlarga egadirlar. [6]" deb ta'kidlaydi.

V.A.Batin fikriga ko'ra, garchi jinoyat ishini tergov qilish yagona tushuncha bo'lsada, biroq protsessual qonunlar mazkur vakolatni bir qancha tuzilmalarga amalga oshirish vakolatini berganligi sababli "protsessual nazorat" jumlasiga "idoraviy" so'zini qo'shgan holda ifoda etish ham mantiqan, ham mazmunan to'g'ri bo'lishini ta'kidlaydi [7].

N.V.Grigorevaning ta'kidlashicha, jinoyat-protsessual huquqi nazariyasiga ko'ra, jinoyat ishi yurituvida "idoraviy-protsessual nazorat" nomli funksiyasi borasida yagona tushunchaning o'zi mavjud emas va idoraviy protsessual nazorat tushunchasi asosan tergov organi rahbarining jinoyat-protsessual faoliyati sifatida tushuniladi [8].

Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'lmoqdaki, jinoyat-protsessual qonunchiligi asosida jinoyat ishlarini tergov qiluvchi organlarning rahbarlari tomonidan yurituvdagi jinoyat ishlari doirasida qonuniylikni ta'minlash uchun idoraviy protsessual nazorat amalga oshiriladi. Mazkur nazoratning asosiy shakli JPKda belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 37-moddasida, tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhi boshlig'ining va uning o'rinbosarining vakolatlari belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, tergov boshqarmasi, bo'limi, bo'linmasi, guruhining boshlig'i va uning o'rinbosari o'z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan tergovchilarning o'z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar [9].

Shuningdek, jinoyat ishlarini tergov qilishning surishtiruv shakli mavjudligi sababli, mazkur ish yurituvida idoraviy protsessual nazoratning jinoyat protsessual qonunchilik bilan mustahkamlangan vakolatlari kodeksning 39-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, surishtiruv bo'linmasining boshlig'i va uning o'rinbosari o'z vakolatlari doirasida jinoyatlarni ochish va ularning oldini olish yuzasidan surishtiruvchilarning o'z vaqtida harakat qilishini nazorat etadilar, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruvni to'la, har tomonlama va xolisona olib borish choralarini ko'radilar.

Yuqoridagi olimlarning fikrlari va tahlil etilayotgan normalarning mazmunidan kelib chiqqan holda, quyidagilarni qo'shimcha qilish maqsadga muvofiq. Xususan, bugungi kunda nafaqat tergov organining rahbari, balki surishtiruv organining rahbari, surishtiruv bo'limi boshlig'i ham protsessual vakolatlarga ega bo'lib, mazkur vakolatlarni amalga oshirish orqali tergovchi yoki surishtiruvchilarning yurituvidagi jinoyat ishlari doirasida protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta'minlashlari lozim.

T.G.Olefirenko [10], N.V.Grigoreva [11] va S.A.Tabakovlar [12] fikriga ko'ra, idoraviy protsessual nazorat quyidagi omillardan iborat: a) ishning o'ziga xos xususiyatlari; b) umuman dastlabki tergov organlari oldida turgan muhim vazifalar; v) idoraviy nazoratni amalga oshiruvchi bo'linmalar va shaxslarning aniq huquq va majburiyatlari.

"Idoraviy protsessual nazorat" tushunchasi jinoyat protsessining nisbatan mustaqil funksiyasi sifatida belgilanishi mumkin, jinoyat protsessining sudgacha bo'lgan bosqichlarida tergov organi va surishtiruv organi rahbari tomonidan qonunda belgilangan vakolat doirasida amalga oshiriladi va qonuniylikni ta'minlash va jinoyat protsessining maqsadlariga erishish uchun tergovchi yoki surishtiruvchining protsessual harakatlarini kuzatish, tekshirish, muvofiqlashtirish va

ularga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar berishdan iborat.

Ba’zi olimlar “idoraviy protsessual nazorat konsepsiyasida qonunning aniqlangan buzilishlarini bartaraf etishga qaratilgan vakolatlarni ham o‘z ichiga oladi [13]” deb ta’kidlaydi.

Bizningcha, idoraviy protsessual nazoratning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) rahbar (boshliq) tomonidan nazorat faoliyatining uzluksizligi (ko‘pincha kunlik); 2) aniqlangan qonun buzilishlariga zudlik bilan javob berish va ularni bartaraf etish qobiliyati; 3) katta ahamiyatga ega bo‘lmagan qonunning buzilishiga yo‘l qo‘ygan shaxslarga nisbatan intizomiy choralar ko‘rish imkoniyati; 4) nazorat faoliyati obyektiga yaqinlik; 5) nazorat faoliyati sifatini oshirishni taqozo etuvchi qonun buzilishi uchun rahbar (boshliq)ning shaxsiy javobgarligi.

Yuqoridagi fikrlardan biz nafaqat idoraviy-protsessual nazorat, balki prokuror nazorati va tashkiliy-ma’muriy nazorat singari tushunchalar mavjudligini tushunamiz.

Bu borada M.G.Kovaleva tashkiliy (ma’muriy) va idoraviy protsessual nazoratni farqlash kerakligi, birinchisi tergov jarayonini tashkil etish doirasida tergov organi rahbari tomonidan amalga oshirilishi, ikkinchisi jinoyat protsessi ishtirokchilari tomonidan protsessual shakllarda va yuzaga keladigan protsessual huquqiy munosabatlar asosida amalga oshirilishini ta’kidlaydi [14].

Tergov organi rahbari, surishtiruv organi yoki bo‘linmasi boshlig‘i nafaqat protsessual, balki ma’muriy rahbarlik vazifasini ham bajaradi. Ma’muriy-boshqaruv vakolatlar protsessual vakolatlarga nisbatan xavfsizlik xususiyatiga ega. Dastlabki tergov va surishtiruv bir xil protsessual faoliyatning ikki shakli bo‘lishiga qaramay, qonun chiqaruvchi tergov organi rahbariga (maksimal hajm) va surishtiruv bo‘limi boshlig‘i, surishtiruv organi rahbari (minimal hajm) tomonidan protsessual nazoratni amalga oshirishda mutlaqo teng bo‘lmagan huquqiy vakolatlarni nazarda tutgan.

Jinoyat-protsessual qonun jinoyat-protsessual huquqining bosh manbaidir. Bu hol boshqa qonunlarning, xususan, yangi tahrirdagi “Sudlar to‘g‘risida”gi, “Prokuratura to‘g‘risida”gi, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunlar, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyalanishi to‘g‘risida”gi va boshqa qonunlarning ahamiyatini pasaytirmaydi. Biroq amaliy faoliyatda jinoyat protsessining ishtirokchilari odatda jinoyat-protsessual qonun normalariga asoslanadilar. Shu bois uning nufuzini oshirish maqsadida, garchi boshqa manbalari bo‘lsa ham, u haqda jinoyat-protsessual huquqning bosh manbai sifatida qaraladi.

Jinoyat-protsessual munosabatlar tizimida idoraviy-protsessual nazorat faoliyatini amalga oshirish bilan birgalikda jinoyat-protsessual boshqaruvni tashkil etish tizimiga xam e’tibor berish zarur bo‘ladi.

Ishni sudga qadar yurituvi davrida idoraviy-protsessual nazorat asosan quyidagi jinoyat-protsessual munosabatlarda ko‘rinadi:

1) Tergovga qadar tekshiruvda;

2) Jinoyat ishini qo‘zg‘atishda;

3) Kechiktirib bo‘lmas tergov harakatlarini o‘tkazishda;

4) Jinoyat sodir etgan shaxsni ushlab turish (qaror, bayonnoma, shaxsiy tintuv, Ushlangan shaxsni telefon orqali xabar qilish imkoniyatini berganligi haqida bayonnomalar)da;

5) Ushlab turilgan shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida jalb qilishda, unga huquq va majburiyatlari tushuntirilishida;

6) Gumon qilinuvchini himoya huquqini ta’minlashda;

7) Gumon qilinuvchini ilk bor so‘roq qilish va boshqa tergov harakatlari o‘tkazish (tintuv, olib qo‘yish, guvohlantirish, jabrlanuvchi va guvohlarni so‘roq qilish, ko‘rsatuvlarni hodisa sodir bo‘lgan joyda tekshirish va h.k)da ushbu harakatlarda maqsad JPKning 82-moddasidagi talablarini isbotlanishida;

8) Shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish to‘g‘risidagi qaror chiqarish va so‘roq qilish, himoya huquqini ta’minlashda (lozim bo‘lsa

tarjimon ishtiroki) ayblanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi iltimosnomani qo‘zg‘atish haqidagi qarorni chiqarish va prokurorni roziligini olishda hamda sud ajrimini jinoyat ishiga o‘z vaqtida qo‘shilishida;

9) Ayblanuvchi tomonidan keltirilgan vajlarni to‘liq tekshirishda, jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogar (qonuniy vakil)larni huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash (ularni so‘roq qilish, ayblanuvchini mol-mulkini xatlash, o‘g‘irlangan buyumni tanib olish uchun ko‘rsatish, ashyoviy dalil deb topish va tilxat orqali egasiga qaytarish kabi hokazolar)da;

10) Ish bo‘yicha JPKning 22-moddasidagi haqiqatni aniqlash borasida isbotlanishi lozim bo‘lgan barcha holatlar sinchkovlik bilan, har tomonlama, to‘la va xolisona tekshirilganligi, ishda yuzaga keladigan har qanday masalani hal qilishda ayblanuvchini ham fosh qiladigan, ham oqlaydigan, shuningdek uning javobgarligini ham yengillashtiradigan, ham og‘irlashtiradigan holatlar aniqlanganligi va hisobga olinganligida;

11) Yakuniy tarzda shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilishda, ayblanuvchiga to‘ldirilgan holda ayb e’lon qilish va so‘roq qilish, keltirilgan har bir vajlarini to‘liq tekshirishda;

12) Jinoyat ishini yakunlanganligiga qonuniy baho berishda, JPKning 375-378 moddalaridagi jinoyat ishi tamomlangandan keyin undagi materiallar bilan tanishib chiqish huquqini ta’minlash, ish materiallari bilan tanishib chiqish tartibi, iltimoslar qilish va ularni ko‘rib chiqish (hal etish) tartibi, iltimos qondirilgandan keyin jinoyat ishi bilan qayta tanishtirishda;

13) Ayblov xulosasi tuzish, undagi ilovalar bilan tanishish, rozilik berish, jinoyat ishini prokuror tomonidan JPKning 384-385 moddalarini hal etishda o‘zining fikr-mulohaza va tushuntirishlarini berishda, shuningdek, jinoyat ishini prokuratura orqali tegishli sud organiga yuborilishida tergov organi rahbari bevosita ishtirok etadi.

Bundan tashqari, idoraviy-protsessual nazorat jinoyat ishini tugatish to‘g‘risida qaror chiqarish, ishni tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash yoki taraflarning yarashuvi uchun sudga yuborish to‘g‘risida qaror chiqarish yoxud amnistiya aktiga asosan jinoyat ishini tugatish haqida sudga iltimosnoma kiritish to‘g‘risida taqdimnoma tayyorlash bilan tamomlash jarayonlarida ham amalga oshiriladi.

Jinoyat-protsessual munosabatlar tizimida idoraviy-protsessual nazorat normal tizimdan tashqari jinoyat ishi bo‘yicha qonunda nazarda tutilgan ayrim holatlarga ko‘ra, jinoyat ishini tegishli sud organiga yuborilmasligi bilan bog‘liq holatlarni shartli ravishda favqulodda vaziyatlarda ham amalga oshiriladi. Bu asosan quyidagi jinoyat-protsessual munosabatlarda ko‘rinadi:

1) ish bo‘yicha ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxs aniqlanmaganda;

2) ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lum bo‘lganda;

3) ayblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan, basharti uning tergovga kelishini ta’minlash imkoniyati bo‘lmasa;

4) ayblanuvchi ishni yuritishda uning ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli, lekin davolab bo‘ladigan kasallikka chalingan hollarda dastlabki tergov to‘xtatish ushbu asoslar yuzaga kelgan vaqtdan boshlab to‘xtatilishida bevosita ishtirok etadi.

Ushbu vaziyatlarda idoraviy-protsessual nazorat jabrlanuvchini, fuqaroviy da’vogarni, fuqaroviy javobgarni va ularning vakillarini xabardor qilishini, dastlabki tergovni to‘xtatish asoslariga qarab ichki ishlar organlari va boshqa vakolatli organlardan ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishga jalb qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarni aniqlash, yashirinib yurgan ayblanuvchilarni qidirib topish uchun ko‘rilayotgan choralardan muntazam xabardor bo‘lib turishini va shu maqsadda so‘rov xatlari yuborilishini, ma’lumotlar va tushuntiruvlar olinishini, jamoatchilikning yordamidan foydalanishni, ayblanuvchining dastlabki tergovning to‘xtatilishiga sabab

bo‘lgan kasalligidan vaqti-vaqti bilan xabardor bo‘lib turilishini, ayblanuvchi O‘zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan hollarda jinoyat sodir etishda ayblanayotgan va boshqa davlatlar hududida yashirinib yurgan shaxslarni ushlab berishni tartibga soluvchi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga muvofiq choralar ko‘rilishini, ushbu tizimdagi ko‘rsatilgan holatlar bartaraf etilib yoki qo‘shimcha tergov harakatlari o‘tkazish zarurati tug‘ilganda qayta tiklangan holatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, idoraviy-protsessual nazorat shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash vazifalarini samarali bajarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://sud.uz/ru/2501-5/ мурожаат санаси 12.06.2022 йил

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 январь кунидаги “Ўзбекистон Республикасининг 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60 Фармони // https://lex.uz/ru/docs/5841063.

3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят процесси: Дарслик / Б. А. Миренский, А.Х.Раҳмонқулов, В.В.Қодирова, Д.Камолходжаев, Б.Т.Акромходжаев, Д.М.Миразов, А.Б.Қулахмедов, Б.А.Саидов. Тўлдирилган учинчи нашри. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2019. – 635 б.

4. Жиноят-процессуал ҳуқуқ. Умумий қисм. Дарслик. Муаллифлар жамоаси. – Т., Тошкент давлат юридик университети, 2020. – Б.73.

5. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. Т.,– 2021 йил. URL: https://lex.uz/docs/111460 мурожаат санаси 21.02.2022 йил

6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят процесси. Миренский Б.А., Раҳмонқулов А.Х., Кадирова В.В. Камалходжаев Ж. – Т., – 2004. – Б.289

7. Батин В.А. Взаимосвязь ведомственного процессуального контроля руководителя следственного органа и прокурорского надзора в производстве по уголовным делам // Журнал: Вестник Южно-Уральского государственного университета. Серия: Право @vestnik-susu-law Рубрика: Проблемы и вопросы, связанные с правами, областью процесса// Статья в выпуске: 3 т. 20, 2020 года. С.7

8. Григорьева Н.В. К вопросу о ведомственном процессуальном контроле в уголовном судопроизводстве // Вестник экономической безопасности № 5/2016 – М.,– 2016. С.128-131

9. Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодекси. Т.,– 2021 йил. URL: https://lex.uz/docs/111460 мурожаат санаси 21.02.2022 йил

10. Олефиренко Т.Г. Ведомственный процессуальный контроль как основное средство руководителя следственного органа по обеспечению законности предварительного расследования // Издательство «Грамота» Тамбов: Грамота, 2014. № 2 (40): в 2-х ч. Ч. II. С. 148-150. ISSN 1997-292X. Т., – 2014. С.148-150.

11. Григорьева Н.В. К вопросу о ведомственном процессуальном контроле в уголовном судопроизводстве // Вестник экономической безопасности № 5/2016 – М.,– 2016. С.128-131

12. Табаков С.А. Ведомственный процессуальный контроль за деятельностью следователей и дознавателей органов внутренних дел // Автореф. дисс. на соискание ученой степени кандидата юр. наук

13. Гаврилов Б.Я. О восстановлении процессуальных и надзорных полномочий

прокурора на предварительном следствии // Юридический консультант. 2008. № 9.

14. Ковалева М.Г. Возбуждение уголовного дела и обеспечение его законности и обоснованности: Автореф. дисс. ... канд. юр. наук. СПб., 2005.

Djurayev R.M. Jinoyat ishlarini tergov qilishda idoraviy-protsessual nazorat: nazariy va amaliy yondashuv

Ushbu maqolada bugungi kunda jinoyat ishlarini tergov qilishda idoraviy-protsessual nazoratning asoslarini tartibga solishning amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Shuningdek maqolada idoraviy-protsessual nazoratning prokuror nazoratidan farqli jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari, mazkur institutning ijtimoiy zaruriyati va surishtiruv va dastlabki tergovda tutgan o'rni borasida muhim ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Tadqiqotda analiz, sintez, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil kabi metodlar qo'llanilgan. Tadqiqot ishida ilg'or xorijiy tajriba, ilmiy-nazariy qarashlar va tergov hamda sud amaliyoti o'rganilgan bo'lib, buning natijasi o'laroq O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: idoraviy-protsessual nazorat, sudga qadar ish yurituvi tergovchi, surishtiruvchi, boshqaruv, jinoyat ishi.

Джураев Р.М. Ведомственно-процессуальный контроль при расследовании уголовных дел: теоретический и практический подход

В данной статье рассматриваются практические аспекты регулирования основ ведомственно-процессуального контроля при расследовании уголовных дел на сегодняшний день. В статье также излагаются отличия ведомственно-процессуального контроля от прокурорского контроля и его специфические особенности, социальная необходимость этого института и важные научные взгляды на его роль в дознании и предварительном следствии.

В исследовании использовались такие методы, как анализ, синтез, индукция, дедукция, сравнительно-правовой анализ. В ходе исследовательской работы был изучен передовой зарубежный опыт, научно-теоретические взгляды и следственная и судебная практика, в результате чего были разработаны предложения и рекомендации по внесению соответствующих изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан

Ключевые слова: ведомственно-процессуальный контроль, следователь досудебного производства, дознаватель, Руководство, уголовное дело.

Djuraev R.M. Departmental procedural control in the investigation of criminal cases: a theoretical and practical approach

This article discusses the practical aspects of regulating the basics of departmental procedural control in the investigation of criminal cases today. The article also outlines the differences between departmental procedural control and prosecutorial control and its specific features, the social necessity of this institution and important scientific views on its role in the inquiry and preliminary investigation.

The study used such methods as analysis, synthesis, induction, deduction, comparative legal analysis. During the research work, advanced foreign experience, scientific and theoretical views and investigative and judicial practice were studied, as a result of which proposals and recommendations were developed for making appropriate amendments and additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan,

Key words: departmental procedural control, investigator of pre-trial proceedings, investigator, Management, criminal case.

Islomov Baxtiyor Djaxangirovich,
O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi

YANGI TAHRIRDAGI ASOSIY QONUNIMIZDA ADOLAT TAMOYILLARI USTUVOR

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlar amalda qanday samara berayotganiga barchamiz guvoh bo'lib turibmiz. Ayni chog'da yangilanish va o'zgarishlar jarayonining amaldagi natijalari dunyo miqyosida ham e'tirof etilayotgani O'zbekistonimizning xalqaro nufuzi va obro'-e'tibori yanada yuksalishiga xizmat qilmoqda. Agar qisqa muddatda mamlakatimiz dunyo uchun ochiq davlatga aylanib, xalqaro munosabatlarimiz sezilarli darajada mustahkamlangan bo'lsa, ichki siyosatda inson huquq va manfaatlarini kafolatlash, shu jumladan, har bir jabhada adolat ustuvorligini ta'minlash doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda. Buni yangilangan Konstitutsiyamizda adolat tamoyillari keng o'rin olgani misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Bu haqda so'z yuritishdan oldin Konstitutsiyani yangilashga bo'lgan zarurat haqida qisqacha to'xtalib o'tsak, maqsadga muvofiq.

Nega deganda, bundan yetti yil muqaddam mamlakatimizda barcha sohalarni shiddat bilan isloh etish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilganda, huquqiy asoslarni, xususan, Konstitutsiyani bugungi kun nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Davrning ana shu talabini teran ilg'agan Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu masalaga yanada aniqlik kiritib, "Konstitutsiyani yangilashdek g'oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o'ylash" zarurligini ta'kidladi.

Shu tariqa mamlakatimizda konstitutsiyaviy islohotlarga kirishildi va pirovardida 65 foizga yangilangan Bosh qomusimiz 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquq va manfaatlari himoyasi, shuningdek, sud hokimiyati bilan bog'liq bir qator yangiliklar kiritildiki, bularning barchasi jamiyatda adolat tamoyillari ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'lumki, O'zbekistonda 2008-yildan buyon jazolar tizimidan o'limga hukm qilish chiqarib tashlangan, ammo bu holat Konstitutsiyada o'z ifodasini topmagan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada o'lim jazosining taqiqlanishi qat'iy belgilab qo'yilgani O'zbekiston bu o'ta jiddiy masalada hech qachon ortga qaytmasligi hamda insonparvarlik g'oyalariga hamisha sodiqligini butun dunyoga namoyon qildi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Gap inson huquqlari daxlsizligini ta'minlash haqida borar ekan, O'zbekiston insonparvar davlat sifatida o'z Konstitutsiyasida xalqaro institutlar — "Miranda qoidasi" va "Habeas korpus" tamoyillariga qat'iy rioya qilganini alohida qayd etish joiz. Aniqroq aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdan mustahkam o'rin olgan "Miranda qoidasi"ga ko'ra, shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari hamda ushlab turish asoslari unga tushunarli tilda bayon qilinadi. Ayni chog'da gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Aytish joizki, "Miranda qoidasi" gumonlanuvchining, eng avvalo, huquqlari batafsil tushuntirilishini nazarda tutadi. Sukut saqlash huquqi mavjudligini tushuntirish uning ko'p tarqalgan shakllaridan biridir. Shu ma'noda, ushbu institutning Bosh qomusimizda o'z ifodasini topganligini katta yutuq sifatida baholash mumkin.

Qolaversa, unda surishtiruv, tergov va sud jarayoni, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlari va

erkinliklarini ishonchli ta'minlashga qaratilgan muhim kafolatlar ham mustahkamlab qo'yilgan. Masalan, aybdorlikka oid barcha shubhalar gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining foydasiga hal qilinishi, agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emas. Shuningdek, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishini cheklashga hamda uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat sud qaroriga asosan yo'l qo'yilishi, har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlangani ham yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muhim yutuqlaridan biridir.

Bundan tashqari, qonunni buzgan holda olingan dalillardan odil sudlov jarayonida foydalanishga yo'l qo'yilmasligi, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda sha'ni va qadr-qimmati hurmat qilinishi huquqiga ega ekanligi, shaxs sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi ham belgilandiki, bu, albatta, insonparvarlikning yuksak namunasidir.

Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilishga, buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishiga oid normalar kiritilgani ham fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz haqida fikr yuritganda, uning 15-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi" deya qayd etilgani ham muhim o'zgartirishlardan biri bo'ldi deyish mumkin.

Nega deganda, bugungi kunda dunyoning sanoqli davlatlarida Konstitutsiya to'g'ridan-to'g'ri amalda qo'llanadi. O'zbekistonda Konstitutsiyamizning to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi fuqarolarga nafaqat qonunlar, balki bevosita konstitutsiyaviy normalarga asoslangan holda faoliyat olib borish, xususan, sudga murojaat qilishga imkonini bermoqda.

Bundan ham muhimi shundaki, bugungi kunda sudlar fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilishda to'g'ridan-to'g'ri yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz normalariga murojaat etmoqda.

Bu, o'z navbatida, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, "Inson — qadri" tamoyilini to'liq ro'yobga chiqarish, fuqarolarda Konstitutsiyamizga ishonch va hurmat ruhini shakllantirishda muhim asos bo'lmoqda.

Bu borada Oliy sud Plenumi tomonidan 2023-yil 23-iyunda "Odil sudlovni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning "Sud hokimiyati" deb nomlangan XXIII bobida sud hokimiyatining mustaqilligi, faoliyati, odil sudlovning amalga oshirish prinsiplari kabi mezonlari qat'iy kafolatlangan. Yanada aniqroq aytganda, yangi O'zbekiston sharoitida sud hokimiyatining faoliyatini to'liq kafolatlaydigan zamonaviy va demokratik normalar to'liq o'z ifodasini topgan.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz sudlarni adolat qo'rg'oniga aylantirishda to'liq huquqiy asos bo'ladi.

Yangilangan Konstitutsiyamizning e'tiborli jihatlaridan yana biri xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari bilan bog'liq.

Sir emas, keyingi yillarda yurtimizda xususiy mulk daxlsizligi, mulkdorlar huquq va qonuniy manfaatlarining himoyasi bo'yicha bir qator huquqiy asoslar yaratildi. Shunday ekan, ushbu masalani Konstitutsiya

darajasida belgilash orqali qanday maqsad ko‘zda tutilgan?

Gap shundaki, xususiy mulkka qaratilayotgan ulkan e’tibor bois ushbu yo‘nalish sezilarli darajada rivojlandi. Qolaversa, soha rivojiga halal berayotgan muayyan muammolar ham ko‘zga tashlana boshladi. Shunday vaziyatda sohaning qonunchilik asosini bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda takomillashtirish, Konstitutsiyada uni ifodalash talab etildi. Natijada bu boradagi takliflar asosida bir qator normalar kiritildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi qat’iy belgilanib, davlatning qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhiti ta’minlanishiga doir qoida mustahkamlandi. Bu bilan mamlakat iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyani jalb etishni rag‘batlantirish, investorlar ishonchini mustahkamlash, tadbirkorlar huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatli tarzda himoyalash maqsad qilingan bo‘lib, buning hayotiy natijalarini bugun barchamiz ko‘rmoqdamiz.

Shuningdek, xususiy mulk daxlsizligini kuchaytirishda sudning o‘rnini belgilashga qaratilgan yangiliklar ham e’tiborga molik. Ya’ni mulkdor o‘z mol-mulkidan qonunda nazarda tutilgan hollardan va tartibdan tashqari, sudning qaroriga asoslanmagan holda mahrum etilishi mumkin emasligi belgilandi. Bunga qadar sudning qaroriga asoslanish haqidagi norma mavjud emas edi. Bu ham, o‘z navbatida, xususiy mulk daxlsizligi kafolatlarini Konstitutsiya darajasida to‘la ta’minlash bilan bir qatorda jamiyatdagi o‘tkir muammolardan biriga aylangan “imoratlarni buzish” bilan bog‘liq muammolarga adolatli yechib topish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Shu munosabat bilan uy-joy mulkdorlariga sud kafolati va uy-joydan mahrum etilganda kompensatsiya olish kafolati belgilandi. Sud kafolati uy-joyga nisbatan mulk huquqi sud qarorisiz mahrum etilishiga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi. Ushbu kafolat uy-joyga nisbatan mulk huquqi mulkdor erk-xohishidan qat’i nazar, majburiy tarzda bekor bo‘layotganda qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Sud tomonidan mulk huquqi bekor bo‘lishiga sabab bo‘luvchi holatlar amaldagi qonun hujjatlari asosida obyektiv tarzda ko‘rib chiqiladi. Albatta, mazkur tartib mulkdor har qanday holatda asossiz ravishda mulk huquqidan mahrum etilmasligiga xizmat qiladi.

Ikkinchi kafolat esa mulkdorning iqtisodiy manfaatlari himoyasiga yo‘naltirilgan. Mazkur norma qonunda belgilangan hollarda va tartibda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorni shu uy-joy va yetkazilgan zarar uchun teng qiymatda kompensatsiya olishini kafolatlaydi.

Kezi kelganda aytish kerakki, fuqarolarning yerga bo‘lgan xususiy mulk kafolati Konstitutsiyamizda ilk marotaba mustahkamlandi. Mazkur normani yangi tahrirdagi Bosh qomusimizdagi inqilobiy yangiliklardan biri o‘laroq ko‘rsatish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, yangilangan Konstitutsiyamizdan o‘rin olgan har bir normada adolat prinsiplari ustuvorlik qiladi. Endigi vazifa esa ana shu normalar hayotimizdan mustahkam o‘rin egallashini ta’minlashdan iborat. Bu boshqa idoralar barobarida sud organlaridan ham katta mas’uliyat talab etadi.

E’tiborli jihati shundaki, ushbu masala yangilangan Konstitutsiyadan o‘rin egallagan. Bu boradagi yangiliklar asosan sud hokimiyati va sudyalar mustaqilligi kafolatlariga, sudlar faoliyati va sud tizimiga, sudyalar korpusini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, uning negizida “Inson qadri uchun” g‘oyasi mujassamdir.

Sudyalarning mustaqilligi kafolatlari sifatida sudyalar faqatgina qonunga emas, balkim, avvalo, Konstitutsiyaga bo‘ysunishi qat’iy belgilandi. Shu o‘rinda sudyalar muayyan ishlar bo‘yicha hisobdor bo‘lmasligi kabi norma aks ettirilishi orqali sudning mustaqilligi yanada kuchaytirildi.

Shularga mos ravishda davlat sudyaning va uning oila a’zolarining xavfsizligini ta’minlashga mas’ul ekani belgilanishi uning daxlsizligi kafolatlarini mustahkamlashi barobarida fuqarolarning

odil sudlovga bo‘lgan ishonchini yanada oshiradi.

Asosiy qonunimizda Sudyalar oliy kengashi bilan bog‘liq qo‘shimchalar ham ko‘zda tutilgan. Xususan, Sudyalar oliy kengashining huquqiy maqomiga aniqlik kiritilib, u sudyalar hamjamiyatining mustaqil organi sifatida sud hokimiyati mustaqilligi konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta’minlash bilan birga sudyalar korpusini shakllantirishga ham mas’ul etib belgilandi.

Adolat prinsipi haqida so‘z ketarkan, Bosh qomusimizga kiritilgan yana bir muhim yangilikni aytib o‘tmasak bo‘lmaydi. Fuqarolardan kelib tushgan ko‘plab takliflar asosida Konstitutsiyada “Advokatura” nomi bilan ataluvchi yangi bob shakllantirildi.

Ma’lumki, sudlarda taraflar tengligi va tortishuv prinsipi to‘liq ta’minlanishi odil sudlovni adolatli hamda qonuniy amalga oshirishning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Shu ma’noda, advokatura institutiga alohida bob ajratilishi katta voqelik, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, advokatura maqomi Konstitutsiya darajasiga olib chiqilishi, uning maqomi va ahamiyatini yanada oshiradi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoyalash kafolatlarini kuchaytiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz talablarini amalga muvaffaqiyatli joriy etish butun jamiyatimiz, xususan, sudya va sud xodimlaridan chuqur bilim, keng dunyoqarashga ega bo‘lish, fidoyilik ko‘rsatib, zimmadagi mas’uliyatli vazifalarni to‘liq bajarish, eng muhimi, halol va vijdonan faoliyat yuritishni talab qiladi. Davlat rahbarining bugungi sudyaning ongida adolat, tilida haqiqat, dilida poklik ustuvor bo‘lishi shart, degan qat’iy talabiga har jihatdan munosib bo‘lishi kerak.

Umuman, yangilangan Konstitutsiyamizdan o‘rin olgan har bir modda jamiyat hayotida adolat tamoyillari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, bu butun xalqimizning dilidagi maqsad-muddaodir.

Mamayusupov Sarvar Dexkanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondonining o‘rinbosari
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘ZBEKISTONDA DESEKULYARIZATSIYA JARAYONINING YOSHLAR DUNYOQARASHIGA TA’SIRI

Bugungi kunda jamiyat dunyoviylikdan keyingi davrga o‘tganini ko‘pgina nazariyalar ta’kidlamoqda. Din obro‘sini tiklash zamonaviy jamiyat taraqqiyotini tavsiflovchi asosiy tendensiyalardan biri ekanligi ham aksariyat qarashlarda yetakchilik qilmoqda. Ikki asrlik sekulyarizatsiya o‘rnini butunlay dunyoviy jamiyat taklif qilayotgan g‘oyalardan ko‘ngli to‘lmagan dunyoda diniy tuyg‘uning yuksalishi egalladi.

Din bugungi kunda jahon siyosatining asosiy omili va vositalaridan biridir. Ma’rifat davrida, hatto undan oldinroq Vestfal kelishuvlari bilan ajratilgan siyosat va din yana to‘liq birlashishi dargumon, lekin dunyoning ijtimoiy-madaniy o‘zgarishini inkor etib bo‘lmaydi... Ehtimol, dindorlikning qayta tiklanishining sabablaridan biri (bu holatda G‘arbda) 1990-yillarda bipolyar tizimning qulashi bo‘lgan. SSSR va AQSh o‘rtasidagi mafkuraviy kurash bilan kechgan o‘n yilliklardan so‘ng, to‘ldirish kerak bo‘lgan bo‘shliq paydo bo‘ldi, shu jumladan, amerikalik neo-konservativ siyosatchilar o‘z maqsadlari uchun juda muvaffaqiyatli foydalanadigan ilgari yo‘qolgan va qisman unutilgan diniy qadriyatlar bilan to‘ldirildi. Bu holda din yangi mafkura qurolidan boshqa narsa emas edi [1].

Din inson faoliyatining asosiy sohalariga kirib boradi: siyosat, iqtisod, ta’lim. Desekulyarizatsiyaga uchragan jamiyatning eng muhim sohalaridan biri siyosiy sohaga aylandi. Bugungi kunda din ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan vaziyat yuzaga keldi. Va bu konfessiyalar rahbarlarining dunyoviylik tamoyiliga amal qilish talabiga qaramay sodir bo‘lmoqda [2].

Yuqoridagi muammolarni yanada avj olishida, mamlakatlar yoshlarining kayfiyati ham muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, desekulyar jarayonning yoshlarga ta’sirini o‘rganishda yoshlarning kayfiyati, ularning xulq-atvori, xatti-harakati motivlarini bilmay turib, ularni diniy va dunyoviy ilmlarini zamonaviy makonga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlay olmaymiz.

Ma’lumki, bugun biz globallashuv har tomonlama avj olayotgan, shiddatli o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan murakkab zamonda yashamoqdamiz. Bugungi kunda iqlim o‘zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo‘lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi [3].

Ayniqsa, yoshlarni din niqobi ostidagi turli xil tahdidlardan himoya qilish, ularning ongu-shuurini egallashga urinayotgan manfur kimsalarning asl maqsad-muddaolarini fosh qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, hozirgi kunda terrorizm biz uchun yangi, xalqaro va millatlararo tavsifdagi uyushgan shakllarda namoyon bo‘layotgan sharoitlarda, unga qarshi samarali kurash olib borish borasida barcha davlatlar va ularning huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro hamkorligi hamda bu yo‘nalishdagi to‘plangan tajribani birgalikda o‘rganib ishlashni taqozo etadi.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e’tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko‘p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlilik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashmagan davlatlar zaiflashib, o‘z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi. Darhaqiqat, ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, ekstremizm va terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi

kurashda ichki va tashqi omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ilgari surishi kerak.

Ayni paytda ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq taqiqlangan har qanday faoliyat Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Bunda birinchi navbatdagi vazifalardan biri mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida ham "2021-2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasi" [4]ni (keyingi o'rinlarda Milliy strategiya) qabul qilinishi mazkur noqonuniy faoliyatni mamlakatimiz va qo'shni davlatlarda nafaqat avj olishini balki, ushbu faoliyatga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'zida mujassamlashtiradi hamda bir qator ustuvor yo'nalishlar va asosiy vazifalarni amalga oshirish zarurligini talab etadi.

Yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda, quyidagilar "Milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- vatanparvarlik, an'anaviy qadriyatlar va bag'rikenglik mafkurasini targ'ib qilish;
- voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremizm va terrorizm g'oyalari tarqalishining oldini olish;
- ayollar huquqlarini himoya qilish hamda ularning ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish;
- uzoq muddat xorijda bo'lgan fuqarolarni ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siridan himoya qilish;
- Internet jahon axborot tarmog'idan ekstremistik va terrorchilik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish;
- fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarini ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishga keng jalb qilish;
- ekstremistik va terrorchilik harakatlarini sodir etganlik hamda ularni moliyalashtirganlik uchun huquqiy ta'qib va javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish;
- ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish sohasidagi normativ- huquqiy bazani takomillashtirish;
- ushbu sohadagi xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish" [5].

XX asrning oxirlarida ekstremizmning turli ko'rinishlari dunyoning ko'p mamlakatlarida, xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqasida ham o'zini namoyon eta boshladi. Turli diniy ekstremistik tashkilotlar ("Hizb ut-tahrir", "O'zbekiston islom harakati", "Iroq va Shom islom davlati") yangidan mustaqillikni qo'lga kiritgan dunyoviy davlatlarga tahdid solishni boshladilar. Ular vaqtinchalik qiyinchiliklarni ro'kach qilib, aholini, ayniqsa, yoshlar ongini aqidaparastlik g'oyalari bilan zaharlashga urindilar. Farzandlarni yo'ldan urishga, o'z ota-onasiga, aka-ukasiga, o'zi tug'ilib o'sgan Vataniga, qarshi qo'yishga harakat qildilar. Eng achinarlisi shundaki, bu oqimlar hali hanuz o'z maqsadlariga erishishda ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar.

Hozirgi vaqtda ekstremizm va terrorizm xalqaro xavfsizlikka, shu jumladan Markaziy Osiyoda asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Ekstremizm va terrorizm xavfi hamda tahdidlariga qarshi kurashish O'zbekiston Respublikasi uchun birinchi navbatdagi vazifalardan biri bo'lib, mintaqa davlatlari va xalqaro hamjamiyatning sa'y-harakatlarini birlashtirishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi har tomonlama o'ylangan tinchliksevar, pragmatik va izchil tashqi siyosatni olib borib, ekstremizm va terrorizmning umumiy tahdidlariga qarshi kurashishda barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik uchun ochiqdir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, xavfsizlikning bo'linmasligi, o'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'yilmasligi, xalqaro majburiyatlarni vijdonan bajarish, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan norma va tamoyillarini

hurmat qilish prinsiplariga asoslanadi.

Respublikamizda Prezidentimiz boshchiligida hukumatimiz tomonidan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida jahon hamjamiyati uchun namuna bo'lishi mumkin bo'lgan samarali ishlar qatorida quyidagilarni qayd etish lozim:

- to'g'ri yo'ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus ro'yxatdan chiqarish bo'yicha mexanizm yaratildi. Mazkur mexanizmning samarasi sifatida aqidaparastlik g'oyalari ta'siriga tushgan 16 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy rezonans berdi;

- yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish, ma'rifiy islom ta'limoti, buyuk ajdodlarimizning ulkan ma'naviy merosini chuqur o'rganish, jamiyatda diniy va milliy bag'rikenglik va hamkorlikni mustahkam qaror toptirish orqali aholi, ayniqsa, yoshlarda aqidaparast g'oyalarga nisbatan mustahkam ma'naviy himoya qobig'i shakllantirish maqsadida Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Samarqandda hadis va kalom ilmi maktabi, Buxoroda tasavvuf maktabi, Qashqadaryoda aqida maktabi, Farg'onada islom huquqi (fiqhi) ilmiy maktablari ochildi. Shuningdek, respublikada mavjud diniy konfessiya rahbarlari hamda barcha din vakillariga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda;

- har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining diniy ekstremizmga qarshi kurash, millatlararo va konfessiyalararo hamkorlikni yanada kuchaytirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlar dasturi qabul qilinadi. Ushbu dastur doirasida davlat va jamoat tashkilotlari, mahalla yig'inlarida, aholining turli qatlamlari orasida ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq tahdidlarning oldini olishga qaratilgan seminar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazish yo'lga qo'yilgan;

- aqidaparastlik g'oyalari tarqalishini oldini olish uchun OAV va boshqa axborot yetkazish vositalaridan samarali foydalanishga urg'u berilmoqda;

- xorijdagi mehnat migrantlari, talabalar va vaqtincha istiqomat qilayotgan vatandoshlarimizni ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishini oldini olish yuzasidan zarur tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Barcha sa'y-harakatlarga qaramasdan hozirgi kunda ekstremizm va terrorizm dunyo xavfsizligiga tahdid soluvchi asosiy xatarlar qatorida qolmoqda. Shu munosabat bilan, ushbu salbiy hodisalarga qarshi kurashish nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda hal qilinishi zarur bo'lgan umumiy muammodir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston ekstremizm va terrorizm tahdidlari va zararlarini boshidan kechirgan mamlakat hisoblanadi. Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, oldini olish bo'yicha jahon hamjamiyatiga namuna bo'la oladigan darajada o'ziga xos tajriba shakllangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Bugungi kunda iqlim o'zgarishlari, ekologik muammolar, radikalizm, ekstremizm va terrorizm, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar bizning mamlakatimizda ham yechilishi zarur bo'lgan dolzarb vazifalar hisoblanadi. Bunday muammolarni hal etishda kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, bu boradagi barcha sa'y-harakatlarni uyg'unlashtirish lozim"[6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Грановская М. Феномен постсекулярного. Журнал "Международная жизнь". № 12. 2014. https://interaffairs.ru/jauthor/material/1189 (мурожат санаси: 17.03.2022)

2. Багаева К.А. Десекуляризация и тренд постсекулярного. // Вестник Бурятского государственного университета. Философия. 2019. Вып. 2. С. – С. 46.

3. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз // Янги сайланган Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутқи 2021 йил 6 ноябрь

// www.president.uz

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2021-2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6255-сон Фармони. 01.06.2021 й. https://lex.uz/docs/5491626

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2021-2026 йилларга мўлжалланган экстремизм ва терроризмга қарши курашиш бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6255-сон Фармони. 01.06.2021 й. https://lex.uz/docs/5491626

6. Шавкат Мирзиёев “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси асосида демократик ислоҳотлар йўлини қатъий давом эттирамиз” Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги нутқ. 2021 йил 6 ноябрь. // www.president.uz

Mamayusupov S.D. O‘zbekistonda desekulyarizatsiya jarayonining yoshlar dunyoqarashiga ta’siri

SSSRning parchalanishi yangi davrda yangi mafkuralar va yangicha dunyoqarashni paydo qildi. Bu esa, o‘lkada yangi ko‘rinishdagi turli xil din niqobi ostidagi guruhlarning paydo bo‘lishiga hamda urchib ketishiga olib keldi. Ming afsuski, dinga ilmsiz kirish natijasida yoshlar qatlamining katta qismi din niqobi ostidagi guruhlarning ta’siriga tushdi. Shu bois, muallif ushbu maqolada, O‘zbekiston yoshlarining diniy va dunyoviy bilimlari balansini buzilishi oqibatidagi holatlarni, desekulyarizatsiyaning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini, desekulyarizatsiya keltirib chiqargan muammolarni falsafiy jihatdan tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: sekulyarizatsiya, desekulyarizatsiya, yoshlar, din, ekstremizm, terrorizm, diniylik, dunyoviylik.

Мамаюсупов С.D. Влияние процесса десекуляризации в Узбекистане на мировоззрение молодежи

Распад СССР породил в Новое время новые идеологии и новое мировоззрение. Это привело к появлению в стране новых групп, замаскированных под разные религии, а также к спариванию. Мин к сожалению, в результате ненаучного доступа к религии большая часть слоев молодежи оказалась под влиянием групп, замаскированных под религию. Поэтому в данной статье автор философски анализирует обстоятельства нарушения баланса религиозных и светских знаний молодежи Узбекистана, влияние десекуляризации на мировоззрение молодежи, проблемы, вызванные десекуляризацией.

Ключевые слова: секуляризация, десекуляризация, молодежь, религия, экстремизм, терроризм, религиозность, секуляризм.

Mamayusupov S.D. The impact of desecularization in Uzbekistan on the worldview of young people

The disintegration of the USSR gave rise to new ideologies and a new worldview in the new era. This led to the emergence of various faith-masquerading groups in the land in a new form, as well as the urching. Unfortunately, as a result of unscientific access to religion, a large part of the youth layer came under the influence of groups under the guise of religion. Therefore, in this article, the author philosophically analyzes the circumstances of the violation of the balance of religious and secular knowledge of the youth of Uzbekistan, the impact of desecularization on the worldview of young people, the problems caused by desecularization.

Key words: secularization, desecularization, youth, religion, extremism, terrorism, religiosity, secularism.

Usmonov Muxammadi Bahritdinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
yuridik fanlar doktori, professor

YER MUHOFAZASI SOHASIDAGI JINOYATLARNING JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TA’SIRINI OLDINI OLISH MUAMMOLARI

Mamlakatimizda yerning bozor munosabatlari doirasiga tortilishi, yerga nisbatan xususiy mulkchilik institutining shakllanishi jarayonlari, yerga nisbatan xususiy mulkchilikning yangilangan Konstitutsiyaga kiritilganligi, ammo ushbu munosabatlar sohasida qonun osti huquqiy hujjatlari bazasining takomilga yetmaganligi yer bilan bog‘liq jinoyatlarning sezilarli darajada o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. Bu toifa jinoyatlar yer bilan bog‘liq noqonuniy bitimlar tuzish, yerni o‘zboshimchalik bilan egallab olish, yerni talon-taroj qilish kabi jinoiy qilmishlar natijasida sodir etilib jamoat xavfsizligiga jiddiy xavf-xatar solmoqda. Shu sababdan, yer munosabatlari sohasida bu kabi davlat va jamoat manfaatlariga zid hisoblangan ijtimoiy xavfli qilmishlarning mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy xavf-xatari, unga qarshi samarali kurash usullarini ilmiy nazariy jihatdan o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yer munosabatlari sohasida quyidagi jinoyat turlari keng tarqalgan bo‘lib, ular yerga nisbatan noqonuniy bitim tuzish yo‘li orqali O‘zbekiston Respublikasi JKning 205-moddasida ko‘rsatilgan “Hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish”, 206-moddasida nazarda tutilgan “Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish”, 207-moddasida belgilangan “Mansabga sovuqqonlik bilan qarash”, 210-moddasida ko‘rsatilgan “Pora olish”, 168-moddasi bilan tartibga solingan “Firibgarlik”, 229-moddasida belgilangan “O‘zboshimchalik”, 228-moddasida o‘rnatilgan “Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish” va h.z. kabi mansabdorlik jinoyatlarini sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Jinoyat qonunchiligi normalarining tahlili shundan dalolat beradiki, demak ushbu sohada eng ko‘p uchraydigan jinoyatlarning soni mansab vakolatini suiiste’mol qilish va firibgarlik jinoyati bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, maxsus ilmiy manbalarda to‘g‘ri ta’kidlanganidek: “yer aylanmasi sohasida qonunga tajovuz qilish holatlari bo‘yicha jinoyatlarning bir qismi mulkchilikka qarshi, shuningdek iqtisodiy faoliyat sohasidagi boshqa jinoyatlar, soliq jinoyatlari hisoblanadi” [1].

Jinoyat qonunchiligi darajasida yer bilan bog‘liq jinoyatlar aniq bitta bobda tizimlashtirilmagan, chunki yer munosabatlari mazmunining turli tumanligi, ushbu toifa jinoyatlar obyektida farqlar mavjudligi tufayli O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bitta bobida barcha turdagi yer bilan bog‘liq jinoyatlarni joylashtirishning obyektiv jihatdan imkoniyati yo‘q. Umuman olganda, yer munosabatlari turlaridan kelib chiqib, ushbu sohada sodir etiladigan jinoyatlarni chegaralashni uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq: a) yerdan foydalanish va muhofaza qilish tartibini buzishga qaratilgan hatti-harakatlar; b) yer uchastkalariga nisbatan mulk huquqini buzishga qaratilgan hatti-harakatlar; v) yerlarni boshqarish tartibini buzishga qaratilgan hatti-harakatlar.

Shunday qilib, yer munosabatlari sohasida sodir etiladigan jinoyatlar doirasi O‘zbekiston Respublikasi JKning 193-204-moddalarida nazarda tutilgan maxsus tarkibdan tashqari, ekologik, iqtisodiy va boshqaruv tusidagi JKning turli boblarida joy olgan ko‘pgina ijtimoiy xavfli hatti-harakatlarni ham qamrab oladi.

Yer bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilishining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, bunda asosiy ko‘pchilik tajovuzlar bir vaqtning o‘zida ham g‘arazgo‘ylik, ham iqtisodiy, ham ekologik, va, ham uyushgan

jinoyatchilikka tegishli bo‘ladi. Bu guruh jinoyatlarga quyidagilar tegishlidir: yer uchastkasini oldi-sotdi qilish, ijaraga berish uchun zarur bo‘lgan hujjatlarni qalbakilashtirish yo‘li bilan yerga nisbatan noqonuniy bitimlar tuzish; yer uchastkasini noqonuniy olish maqsadida mansabdor shaxsni og‘dirib olish; yer uchastkalariga nisbatan firibgarlik harakatlari; yer uchastkalariga nisbatan bitimlar tuzishga yoki uni tuzishni rad etishga majburlash; yer uchastkasini o‘zlashtirish yoxud unga nisbatan mulk huquqini begonalashtirish; yer uchastkasini olish yoxud uni olish jarayonini tezlatish uchun pora olish yoki pora olishga firibgarlik qilish; ko‘chmas mulkni, shuningdek yer uchastkasini egallash maqsadida sotib oluvchiga noqulay bo‘lgan korxonani bankrotlikka qaratilgan qasddan harakatlar qilish; yer bilan noqonuniy tuzilgan bitimlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va boshqalar.

Ijtimoiy xavfli bo‘lgan yer qonunchiligining buzilishida aybdorlarga nisbatan jinoiy javobgarlik qo‘llaniladi. Bu javobgarlik faqat O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jinoyat deb belgilangan jinoiy jazoga tortiladigan harakatlar va harakatsizliklar uchun kelib chiqadi. Demak, jinoiy javobgarlikka shaxs yer qonunchiligi va boshqa qonunchilik buzilganligi uchun shunday javobgarlik agar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan holatlardagina tortilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi yer qonunchiligini buzganlik uchun o‘zida quyidagi jinoyatlar ro‘yxatini qamrab oladi:

Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish. Unga ko‘ra, maxsus vakolatga ega mansabdor shaxslar tomonidan zararli ekologik oqibatlarni keltirib chiqargan halokatlar yoki atrof tabiiy muhitning radiatsiyaviy, kimyoviy, bakteriyaviy ifloslanganligi yoxud odam hayoti yoki sog‘lig‘i, tirik tabiat uchun xavfli bo‘lgan boshqacha tarzda ifloslanganligi haqidagi yoxud aholi salomatligining holatiga doir ma’lumotlarni qasddan yashirilishi yoki buzib taqdim etilishi aholining ommaviy kasallanishi yoki odam o‘lishiga sabab bo‘ladi (194-modda); Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko‘rmaslik. Mansabdor shaxsning ekologiyasi ifloslangan joylarni dezaktivatsiya qilish yoki boshqacha tarzda tiklash choralarini ko‘rishdan bo‘yin tovlashi yoki bunday ishlarni yetarli darajada bajarmasligi odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi yoki odam o‘lishiga olib keladi (195-modda); Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish. Ushbu jinoyatning sodir etilishi yerlarni ifloslantirish yoki buzish, suv yoki atmosfera havosini ifloslantirish odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi yoki odam o‘lishiga sabab bo‘ladi (196-modda); Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa jinoyat hisoblanadi (197-modda); Zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish. Ushbu jinoyat natijasida xo‘jalik faoliyatida o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o‘g‘it, o‘sish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilarni ishlab chiqarish, saqlash, tashish yoki ulardan foydalanish qoidalarini buzish odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud odam o‘lishiga sabab bo‘ladi (201-modda); Yer uchastkalarini o‘zboshimchalik bilan egallab olish.

Sanab ko‘rsatilgan moddalarning maqsadi barcha xalq xo‘jaligi tarmoqlarining faoliyati uchun zarur qimmatli milliy boylik, ishlab chiqarish vositasi sifatida yerlarni ishdan chiqarishdan himoya qilish yo‘li bilan, ya’ni obyekti yer hisoblangan xo‘jalik yoki boshqa faoliyat yuritish qoidalarini buzish tufayli yer holatining sifatini yomonlashtirishdan muhofaza qilishdan iborat [2].

Jinoyatning obyektini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan, aholi punktlari, o‘rmon fondi va shunga o‘xshash har qanday toifadagi yerlar tashkil etadi. Yer har qanday turdagi yer uchastkalari, o‘zlashtirilgan yoki

o‘zlashtirilmagan, subyektlari va turlaridan qat’iy nazar yerga bo‘lgan huquqlar sifatida qaraladi.

Jinoyatning obyektiv tomoni o‘g‘itlar, o‘simliklarni o‘stirish vositalari, zaharli ximikatlar va boshqa xavfli ximik va biologik moddalarni saqlash, foydalanish va qadoqlash bilan munosabatda bo‘lish qoidalarini buzish tufayli xo‘jalik va boshqa faoliyatining zararli mahsulotlari bilan yerni zaharlash, ifloslantirish, boshqacha ishdan chiqarishdir. Masalan, zaharli ximikatlarni qo‘llash qoidalarini buzish bilan yerni yaroqsiz holatga keltirish, tuproqning unumdor qatlamini yo‘q qilish va shunga o‘xshashlar.

Jinoyatning subyekti o‘g‘itlar, o‘simliklarni o‘stirish vositasi, zaharli ximikatlar va boshqa xavfli ximik va biologik moddalar bilan munosabatda bo‘lish bilan bog‘liq xo‘jalik yoki boshqa faoliyatni amalga oshiruvchi 16 yoshga yetgan shaxslardir.

Jinoyatning subyektiv tomoni: JKning 201-moddasida ko‘rsatilgan moddalar bilan munosabatda bo‘lish qoidalarini buzish qasddan (egri qasd) va ehtiyotsizlikdan sodir etilishi ham mumkin (yengil qarash va ehtiyotsizlik). Egri qasdda aybdor tegishli maxsus qoidalarni buzish xavfini biladi, ifloslantirish, zaharlash yoki yerni boshqa ishdan chiqarishni oldindan ko‘radi va shunday oqibatlarning kelib chiqishiga befarq munosabatda bo‘ladi. Yengil qarashda u qoidalarni buzganda shunday oqibatlar bo‘lishi mumkinligini oldindan ko‘radi, ammo o‘ziga ishonib kimningdir sog‘lig‘i yoki atrof tabiiy muhit zarar ko‘rmaydi deb o‘ylaydi. Bu vaziyatlarda qoidalarni buzish odatda ongli ravishda sodir etiladi. Ehtiyotsizlikda aybdor JKning 201-moddasida ko‘rsatilgan moddalar bilan munosabatda bo‘lish qoidalarini buzishning kelib chiqishini oldindan ko‘rmaydi, ammo ularni oldindan ko‘rishi zarur va mumkin edi.

Yerga nisbatan noqonuniy bitimni ro‘yxatga olganlik, davlat yer kadastri hisobga olish ma’lumotlarini buzib ko‘rsatganlik, yer uchun haq to‘lash miqdorini qasddan pasaytirganlik agar bu qilmishlar g‘araz yoki boshqa shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab mansabdor shaxslar tomonidan o‘z xizmat mavqeidan foydalanib sodir etganlik jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo‘ladi.

Ushbu moddada umumiy belgilarga ega, ammo obyektiv tomoni bo‘yicha farq qiluvchi uchta mustaqil jinoyat tarkibi belgilangan. Jinoyat tarkibining umumiy belgilari: ularning mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilishi, ya’ni maxsus subyektning mavjudligi; to‘g‘ri qasd, g‘arazli yoki boshqa shaxsiy manfaatdorlik; o‘z xizmat mavqeidan foydalanish hisoblanadi. Jinoyat yuqorida ko‘rib chiqilgan qilmishlardan har qaysisini sodir etgan paytdan tugallangan jinoyat deb tan olinadi.

Subyektiv tomoni - to‘g‘ri qasd bo‘lib, bunda subyekt o‘z harakatining huquqqa qarshiligini anglaydi va uni amalga oshirishni xohlaydi. Jinoyat subyektiv tomonining majburiy belgilari g‘arazli yoki shaxsiy manfaatdorlik maqsadi hisoblanadi.

Yerga nisbatan noqonuniy bitimlarni ro‘yxatga olish faktini tergov qilishda asosiy e’tibor quyidagi holatlarni isbotlashga qaratilishi zarur: yerga nisbatan bitim ro‘yxatga olinganligining noqonuniyligi (yerni berish uchun qonuniy asoslarning yo‘qligi, dastlabki hujjatlar, faktik holatlarda bayon qilingan ma’lumotlarning mos emasligi, yerga nisbatan bitimni ro‘yxatga olish jarayoni tartibining buzilganligi; bitimga nisbatan talab qilinadigan qonuniy talablarning buzilishi; beriladigan yer uchastkalari hisob normalarining miqdori va yerdan foydalanish chegaralarining buzilishi); noqonuniy bitimni ongli ravishda ro‘yxatdan o‘tkazish, ya’ni yerga nisbatan bitimni ro‘yxatga olayotgan shaxsning noqonuniylik faktini tushunishi; yuqorida ko‘rsatilgan harakatlarni aynan mansabdor shaxs tomonidan ongli ravishda sodir etilishi; yerga nisbatan noqonuniy bitimni o‘z xizmat mavqeidan foydalanib ro‘yxatga olgan, mansabdor shaxsning g‘arazli yoki boshqa shaxsiy manfaatdorligi (pul, sovg‘a olish va boshq.); yer uchastkasining kadastr bahosini aniqlash.

Ko‘rsatilgan holatlar quyidagi vositalar bilan o‘rnatiladi: a) yerga nisbatan

huquqni ro‘yxatga olish uchun asos bo‘ladigan dastlabki hujjatlarni va yerga egalik huquqini ro‘yxatga olish fakti ifodalangan hujjatlarni ajratib olish; b) so‘roq qilish: ularning vujudga kelish holati bo‘yicha yerga nisbatan huquqni qo‘lga kiritgan shaxslar; shunday qarorlarni qabul qilish asoslari bo‘yicha yerni naturada ajratib berish haqidagi qarorni qabul qilgan tuman hokimlari; uni ro‘yxatdan o‘tkazish holati bo‘yicha yerga nisbatan bitimni ro‘yxatdan o‘tkazgan mansabdor shaxslar; hujjatlarni holati bo‘yicha tayyorlagan va o‘tkazgan yer qo‘mitalarining yordamchi xodimlari va mansabdor shaxslari; bitimni holati bo‘yicha tasdiqlagan notariuslar; v) yerga nisbatan bitimning huquqiy asoslarini tasdiqlovchi (rad etuvchi) hujjatlarni talab qilib olish; g) yer uchastkasini texnik ko‘rikdan o‘tkazish aktlarini talab qilib olish; d) bunday bitimni tuzish uchun qimmatliklar olinganligiga asoslar mavjud bo‘lganda, tegishli mansabdor shaxslarni tintuvdan o‘tkazish; e) tezkor xizmat xodimlariga yer huquqiga egalik qilgan shaxs bilan noqonuniy bitimni ro‘yxatdan o‘tkazgan mansabdor shaxsning xizmatdan tashqari aloqalarini aniqlash uchun alohida topshiriqlar berish; j) dastlabki va ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlar, tegishli mansabdor shaxslarning imzosi haqiqiyligini aniqlash maqsadida ekspertiza o‘tkazish; z) bo‘lishi mumkin bo‘lgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish uchun yuzlashtirish o‘tkazish.

Davlat yer kadastri deganda, yer resurslarining yerning mulkdori, egalik qiluvchilari va foydalanuvchilari o‘rtasidagi taqsimoti, yerning tabiiy, xo‘jalik, sifat xususiyatlari, qimmati, joylashgan o‘rni va o‘lchamlari, ular toifalarining huquqiy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda hujjatlar tizimi tushuniladi. Ma’lumotlarni soxtalashtirish yer uchastkasining miqdori, uning sifati, huquqiy holatini pasaytirishda ifodalanishi mumkin bo‘lib, o‘zida yer uchastkasiga tegishli noqonuniy qarorlar qabul qilish, soliq undiriladigan maydonlarning qisqartirish va yer bilan bog‘liq boshqa maxinatsiyalarga sabab bo‘lishi mumkin [3].

Davlat yer kadastrining hisob ma’lumotlarini o‘z xizmat mavqeidan foydalanish orqali soxtalashtirishda mansabdor shaxsning aloqadorligi aniqlanganda, asosiy e’tibor quyidagi holatlarni isbotlashga qaratilishi lozim: to‘g‘ri qasdni, ya’ni jinoyat subyektining o‘z hatti-harakatini huquqqa xilofligini anglashi va ularni amalga oshirishni xohlashi; g‘araz yoki boshqa shaxsiy manfaatdorlik, bu pora olish, yer yuzasidan bitim tuzish uchun qulay sharoit yaratish, uchinchi shaxslarga noqonuniy xizmatlar taqdim etish, o‘zi va uchinchi shaxslar uchun ma’lum manfaatlar yaratish va shunga o‘xshashlarda ifodalanishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, yer qonunchiligida ko‘rsatilgan bir qator yer jinoyatlari, ya’ni davlat va jamoat manfaatlariga zid yer bilan bog‘liq noqonuniy bitimlar tuzish; yerni o‘zboshimchalik bilan egallab olish; yerdan xo‘jasizlarcha foydalanish; yerni talon-taroj qilish; yerni noqonuniy sotib olish va sotish; yerlarning davlat ro‘yxati, hisob-kitobi va baholanish ma’lumotlarini soxtalashtirish kabilar O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida o‘z ifodasini topmagan. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XIV bobini yuqorida sanab ko‘rsatilgan jinoyatlar tarkibi bilan to‘ldirish va ushbu jinoyatlarni sodir etgan aybdorlarga nisbatan tegishli jinoiy jazo choralari belgilangan normalar bilan to‘ldirish maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda yer munosabatlari sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining tajribasi davlatning nazorat-tartibga solish va huquqni muhofaza qilish funksiyalarini uyg‘unlashtirish, iqtisodiyot va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, yer munosabatlari sohasida huquq-tartibotni ta’minlash uchun jamoat nazorati imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bu yuqorida aytilgan holatlarga kriminogen ta’sirlarni pasaytirish bo‘yicha choralar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish, yer

munosabatlari sohasidagi jinoyatchilikning o'sishiga umumiy ta'sir etishda davlatning tashkilotchilik va muvofiqlashtiruvchilik rolini kuchaytirishni talab etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дубовик О.Л. Экологические преступления: комментарий к главе 26 УК РФ. - М., 1992;
2. Дубовик О.Л. Экологические преступления: комментарий к главе 26 УК РФ. - М., 1998;
3. Жевлаков Э.Н. Уголовно-правовая охрана окружающей среды в РФ. Ч. 1. - М., 2002;

Usmonov M.B. Yer muhofazasi sohasidagi jinoyatlarning jamoat xavfsizligiga ta'sirini oldini olish muammolari

Maqolada yer jinoyatlarining jamoat xavfsizligiga ta'siri masalalari tadqiq etilgan bo'lib, unda yer jinoyatlari xavf-xatarlarining oldini olish hamda unga qarshi kurashishning dolzarb masalalari o'rganilgan hamda ushbu sohada milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yer, yer huquqi, yer qonunchiligi, jinoyat, yer jinoyatlari, jamoat xavfsizligi, qonun, jinoyat qonunchiligi.

Усмонов М.Б. Проблемы предупреждения влияние преступлений в сфере охраны земли на общественную безопасность

В статье рассматриваются вопросы влияния преступлений в сфере земельных отношений на общественную безопасность, предупреждения по предотвращению земельных преступлений, а также разработаны предложений по совершенствованию национального законодательства в этой области.

Ключевые слова: земля, земельное право, земельное законодательство, преступление, преступлении в сфере земли, общественная безопастность, закон, уголовное законодательство.

Usmonov M.B. The impact of land use crime on public safety and some ways to prevent it

The article deals with land using crimes, safety of land and preventing the crimes with using land. The issues of making such crimes have been investigated. Proposals for preventing land using crimes and ways of fighting against such crimes are given in the article.

Key words: land law, law, crime, public safety, usage, sphere, influence, some ways of prevention.

Muxammadiyev Ayub Abduraxmanovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professori,
yuridik fanlar doktori, professor

TASHKILOTLARGA HAMDA FUQAROLARGA QARASHLI MOL-MULKLARNI QO'RIQLASH MASALALARI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 27-bobi 152-153-moddalarida[1] mudofaa va xavfsizlik masalalarining konstitutsiyaviy asoslari belgilangan bo'lib, davlatimizning suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoyasini ta'minlash vazifasi O'zbekiston Qurolli kuchlari qatorida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi zimmasiga ham yuklatilgan. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-avgustdagi Farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligi va davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolarning konstitutsion huquq va erkinliklarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil etildi. Xususan, mazkur Farmon asosida amalga oshirilgan islohotlar davomida 2019 yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qo'riqlash bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi tasarrufidan chiqarilib, Milliy gvardiya tarkibiga o'tkazildi.

Qo'riqlash xizmati - qo'riqlash xizmatini ko'rsatuvchi qo'riqlanayotgan obyektlarda saqlanayotgan moddiy-tovar boyliklarning butligini ta'minlash, ularni o'g'irlanishi va talon-taroj qilinishini oldini olish, obyektlar va ularga tutash hududlarda turli huquqbuzarliklarning oldini olish, bu boradagi tashviqot-targ'ibot yuritishga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibini yurituvchi huquqiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati faoliyati bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonuni[3], "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi Qonuni[4] va sohaga oid boshqa qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublika-sining "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi Qonunida belgilanishicha, Milliy gvardiya qo'riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiradi.

Bugungi kunda, O'zbekistonda xususiy qo'riqlash organi, tashkilot hamda korxonalar mavjud emas. O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda faoliyat ko'rsatishi taqiqlanadi[5].

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasi jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini quyidagi xizmat turlari orqali ishonchli qo'riqlanishini ta'minlaydi:

- texnik qo'riqlash markazlari ishtirokida; saf bo'linmalari yordamida; harbiylashtirilgan soqchilik bo'linmalari orqali; qorovul bo'linmalari ishtirokida; tashvish tugmalari yordamida; ko'p qavatli uylardagi xonadonlarni yong'indan ogohlantiruvchi signalizatsiya vositalari orqali qo'riqlash; kirib-chiqish nazorati va boshqaruv qurilmalari bilan ishlash; kabelli kollektorlar va magistrallar qurilmalarini qo'riqlash; uzoq masofalardan aniqlaydigan qurilmalar yordamida obyektlarni qo'riqlash; telefon aloqasi mavjud bo'lmagan joylarda GSM uyali aloqa kanallari orqali qo'riqlashni amalga oshiradi.

Mustaqillik yillarida qo'riqlash bilan bog'liq faoliyat mustahkamlandi. Qo'riqlash xizmati faoliyati – qo'riqlanayotgan obyektlarda huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatini tashkillash-tiradi hamda qo'riqlanayotgan obyekt hududini inobatga olgan holda huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha kompleks huquqiy chora-

tadbirlarini amalga oshiruvchi davlatning qo'riqlash funksiyasi hisoblanadi.

So'nggi yillarda Respublikada davlat obyektlari, o'ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni samarali qo'riqlashni tashkil etish, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini ishonchli himoya qilish yuzasidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ilg'or xorijiy tajriba asosida qo'riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlari joriy qilinishi natijasida O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'riqlash xizmati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning qo'riqlashga olingan obyektlari soni oshdi[6].

Qo'riqlash bo'linmalarining yaxlit tizimini shakllantirish, qo'riqlash faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng miqyosda joriy etish bugungi qo'riqlash sohasining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, obyektlarni qo'riqlash tizimi «Yuqori sifat va qulay narx» tamoyili asosida bir-qator chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali bosqichma-bosqich takomillash-tirilmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini himoya qilishni rivojlantirish yo'nalishlarida Milliy gvardiya qo'riqlash xizmatiga haqiqatda mulkni muhofaza qilish sohasidagi davlat texnik siyosatini belgilab berilganligini hisobga olib, turli toifadagi obyektlarni muhofaza qilishni tashkil yetishga mo'ljallangan texnik vositalarga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilovchi tegishli davlat normativ-huquqiy bazasini yaratish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 noyabrdagi 930-son qaroriga asosan[7], Milliy gvardiya qo'riqlash bo'linmalari tomonidan qo'riqlanadigan obyektlar ro'yxati belgilab berildi. Ushbu ro'yxatga kiritilgan obyektlarni ikki yo'nalishda olib qarashimiz mumkin:

Birinchi, saf bo'linmalari tomonidan qo'riqlanadigan obyektlar:

Ikkinchi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining texnik qo'riqlash vositalari monitoring va nazorat markazlari tomonidan texnik qo'riqlash vositalari yordamida qo'riqlanadigan obyektlar.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bo'linmalarida xizmat ko'rsatishning eng taraqqiy etgan, iqtisodiy jihatdan kulay shakllari yuzaga keldi va hayotga joriy etildi; yanada tezkor, harakatchan, obyekt va xonadonlar qo'rig'i, xavfsizligi, mudofaasini ta'minlash borasida o'z oldiga qo'yilgan tezkor vazifalarni to'liq bajara oladigan bo'linmalar shakllantirildi; faoliyatga ilg'or, zamonaviy signalizatsiya va texnika vositalari joriy etilmoqda. Muhimi, qo'riqlash faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi va muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Bulardan ko'zlangan maqsad davlat va xalq boyligi, fuqarolarning mulklarini jinoiy tajovuzlardan ishonchli himoyalash, ularning to'liq xavfsizligini ta'minlashdan iborat.

Qo'riqlash faoliyati to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo'riqlash xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalarning namunaviy shakllaridagi tomonlarning javobgarligi yoritilgan.

Jumladan, shartnomada ko'rsatilgan summaning Buyurtmachi tomonidan o'z vaqtida to'lamaganligi uchun Buyurtmachi Ijrochiga o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

Ijrochining xodimi postda va patrul yo'nalishlarida bo'lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.

Penyani to'lash Buyurtmachi va Ijrochini o'z majburiyatlarini buzish oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod etmaydi. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar

bo‘ladi. Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to‘liq miqdorda qoplanadi.

Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zararning miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a’zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo‘lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.

Binobarin, manfaatdor taraf shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi yoki bekor qilish haqidagi ariza bilan sudga quyidagi vaziyatlarda murojaat qilishi mumkin: boshqa taraf shartnomani o‘zgartirish yoki bekor qilish taklifini rad etganida; taklifda belgilangan muddat ichida javob olinmaganida; qonun yoki shartnomada belgilangan muddat ichida javob olinmaganida.

Bunday muddat ko‘rsatilmagan va shartnoma tuzilishi vaqtida kelishilmagan hollarda 30 kunlik muddat ichida javob olishni nazarda tutuvchi dispozitiv norma kiritilgan. Shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risidagi va bekor qilish haqidagi taklifga javob olish muddatlariga doir bunday norma bir qator shartnomalarga nisbatan nazarda tutilgan. Shartnomani o‘zgartirish to‘g‘risida yoki bekor qilish haqida taklif olgan tarafning javobdan bo‘yin tovlashi yoki sukut saqlashi uning roziligi sifatida baholanmaydi.

Sudlar amaliyoti tahlil qilinganda, qo‘riqlashni ta’minlashda shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal etishda sudlarning huquqiy normalarni qo‘llashga yagona yondashuvi yo‘qligi bilan bog‘liq aniq muammo mavjud. Ba’zi sudlar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining umumiy qoidalariga amal qilishlari mumkin, boshqalari esa qo‘riqlash shartnomasini tartibga soluvchi qoidalarga ishora qiladilar, boshqalari esa odatda davlat xaridlarini tartibga solish bilan bog‘liq qoidalarga ishora qiladilar. Shu bilan birga, sudlar "Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida"gi Qonunning qoidalariga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Albatta, ushbu qonunda qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlarning javobgarligi institutini tartibga soluvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qoidalar mavjud yemas. Biroq, hech bo‘lmaganda bunday shartnomani tuzish haqiqati bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni ko‘rib chiqishda qo‘riqlash faoliyatining qo‘riqlash shartnomasi va boshqalarga muvofiqligini tekshirish uchun uning qoidalariga murojaat qilish tavsiya yetiladi.

Shunday qilib, birinchidan, qo‘riqlash shartnomasini ham, tomonlarning javobgarligini ham tartibga soluvchi tizimlashtirilgan huquqiy normalarning yo‘qligi, ikkinchidan, sudlarning mavjud huquqiy normalarni qo‘llash yagona yondashuvdan foydalanmasligi bilan bog‘liq muammo mavjud. Shu bilan birga, hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan normalar juda umumiy xususiyatga ega.

Qo‘riqlash shartnomasining qonunchilik darajasida to‘g‘ri tartibga solinmaganligi shartnoma majburiyatlarini bajarish jarayonida taraflar o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudlar tomonidan noto‘g‘ri va noaniq hal qilishga olib keladi.

Qo‘riqlash shartnomasi bo‘yicha tomonlarning javobgarligi institutini huquqiy tartibga solish muammolarini hal qilish uchun quyidagi asosiy choralarni ko‘rish maqsadga muvofiqdir: qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatish shartnomasini tartibga soluvchi qonunchilik normalarining tizimliligi va birligini ta’minlash maqsadida murojaat xarakteridagi normalarni ishlab chiqish va ularni “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga kiritish; sudlar uchun qonunchilik normalarini qo‘llash va qo‘riqlash shartnomasidan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish bo‘yicha maxsus tushuntirishlar ishlab chiqish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2023.
2. М.М.Нарзиева, “Ўзбекистон Республикаси қўриқлаш хизмати фаолиятини

маъмурий-ҳуқуқий жиҳатларини такомиллаштириш" Диссертация иши 2022, 15б.

3. Ўзбекистон Республикасининг "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида"ги қонуни, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022 й., https://lex.uz

4. Ўзбекистон Республикасининг "Қўриқлаш фаолияти тўғрисида"ги қонуни, Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 2022 й., https://lex.uz

5. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2023.

6.Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўриқлаш бош бошқармасининг фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори, 20.02.2021й. ПҚ-4997-сон, *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.08.2021й., 07/21/5235/0840-сон*

7.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Қўриқлаш бош бошқармаси бўлинмалари томонидан қўриқланадиган объектлар рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида"ги Қарори, 21.11.2019й. 930-сон, *Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 10.08.2022 й., 09/22/438/0726-сон*

Muxammadiyev A.A. Tashkilotlarga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulklarni qo'riqlash masalalari

Ushbu maqolada tashkilotlarga hamda fuqarolarga qarashli mol-mulklarni qo'riqlash faoliyati muntazam ravishda takomillashtirib borayotganligi, bundan ko'zlangan maqsad davlat va xalq boyligi, fuqarolarning mulklarini jinoiy tajovuzlardan ishonchli himoyalash, ularning to'liq xavfsizligini ta'minlashdan iborat ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: tashkilot, fuqaro, mol-mulk, qo'riqlash, davlat, xalq boyligi, jinoiy tajovuz, ishonchli himoya, xavfsizlikni ta'minlash, aholining tinch hayoti.

Мухаммадиев А.А. Вопросы защиты имущества, принадлежащего организациям и гражданам

В данной статье поясняется, что регулярно совершенствуется деятельность по охране имущества, принадлежащего организациям и гражданам, целью которой является надежная защита народного и государственного богатства, имущества граждан от преступных посягательств, обеспечение их полной безопасности.

Ключевые слова: организация, гражданин, собственность, защита, государство, национальное богатство, криминальная агрессия, надежная защита, безопасность, мирная жизнь населения.

Mukhammadiev A.A. Issues of protection of property belonging to organizations and citizens

This article explains that activities for the protection of property belonging to organizations and citizens are regularly improved, the purpose of which is to reliably protect national and state wealth, the property of citizens from criminal attacks, and ensure their complete safety.

Key words: organization, citizen, property, protection, state, national wealth, criminal aggression, reliable protection, security, peaceful life of the population.

Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus huquqiy fanlar va harbiy diplomatiya kafedrasi boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor
Rizoyev Feruz Furqat o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Barchamizga ma'lumki, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish hamda ularning oldini olish tizimini takomillashtirish bugungi kundagi eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "Jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish" mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish kabi ustuvor yo'nalishning muhim maqsadlaridan biri sifatida mustahkamlandi.

O'z navbatida, ushbu maqsadni amalga oshirish mexanizmlaridan biri sifatida "Jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik haqida xabar berish va ularni ro'yxatga olishning "E-huquqbuzarlik" yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini joriy etish" [2] orqali erishish mumkinligi qayd etilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida Farmonining 87-maqsadi sifatida **"Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati va huquqlarini himoya qilishga yo'naltirish"** [3] belgilangan.

Yuqoridagi vazifalarning ijrosini ta'minlashning eng samarali usuli esa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyatida zamonaviy usullarni qo'llash, sohani raqamlashtirish hamda sohaga ilg'or xorijiy tajribalarni jalb qilish sanaladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning eng ustuvor vazifalaridan biri avvalo huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda ularning oldini olish tizimini yo'lga qo'yish sanaladi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, huquqbuzarliklarning oldini olishga faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati bilan erishish mushkul. Chunki huquqbuzarliklar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'lum bir sabab va shart-sharoitlar natijasida vujudga keladi. Ushbu sabab va shart-sharoitlar esa avvalo ma'lum bir omillar natijasida shakllanadi. Bunday omillar esa jamiyatdagi turli sohalarning ta'siri natijasida paydo bo'lishi mumkin. Jumladan, huquqbuzarliklarga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

Shaxsiy:

- biologik omillar: genetika va gormonlardagi farqlar impulsivligi;
- psixologik omillar: depressiya, tashvish va shaxsiyatning buzilishi kabi ruhiy salomatlik muammolari;
- ijtimoiy-iqtisodiy omillar: kambag'allik, ta'limdagi uzilishlar va mehnat qilish imkoniyatlarining cheklanishi;
- oila va tarbiyada shakllangan salbiy omillar: zo'ravonlik, beparvolik yoki oila dinamikasidagi o'zgarishlarning salbiy oqibatlari;
- idrok buzilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: giyohvandlik, alkogolizm.

Ijtimoiy omillar:

- jamiyatdagi tengsizliklar va ijtimoiy muhitdan chetlatishlar;
- jamiyatdagi tartibsizliklar;

- zaiflashgan ijtimoiy institutlar: oila, maktablar va diniy tashkilotlar kabi an'anaviy institutlarning tanazzulga uchrashi;

- zo'ravonlik va jinoyatchilikka duchor bo'lish: jinoyatchilik darajasi yuqori bo'lgan muhitda o'sish, jamiyatning ayrim qatlamlari tomonidan jinoiy xatti-harakatlarni normal qabul qilinishi;

- ommaviy axborot vositalari va madaniy ta'sirlar: OAV va madaniy hayotda jinoyat va zo'ravonlik namoyishlari orqali jinoiy xatti-harakatni jozibali ko'rsatilishi.

Yuqoridagi sabab va shart-sharoitlar o'z navbatida huquqbuzarliklarning sifat darajasiga ta'sir ko'rsatadi hamda ular ma'lum bir muddat mobaynida shakllanib keladi, ularning oqibatlari ham turlicha ahamiyat kasb qilishi mumkin.

Amaliyotda bugungi kunga kelib huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning an'anaviy usullaridan juda keng foydalanilayotganligini, lekin ularning samaradorligi juda past darajada bo'lib, asosan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borishga qaratilganligini hamda mas'ul organlar esa huquqbuzarlik sodir qilinganidan keyin o'zining funksiyasini bajarishga kirishayotganligini kuzatishimiz mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda jinoyatchilikka umuman olganda huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning zamonaviy usullaridan foydalanish bugungi kunning eng asosiy vazifasi ekanligini anglashimiz lozim.

Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida "huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermaydi" [4] deb ta'kidlangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, quyida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida mavjud bo'lgan bir qator muammolarni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan huquqbuzarliklarning samarali profilaktikasini amalga oshirish davlat organlari, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilar:

"fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini, shu jumladan aholi bilan to'g'ridan to'g'ri va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari faoliyatida faol ishtirok etish, fuqarolar murojaatlari va muammolariga bepisand munosabatda bo'lish va byurokratik holatlarga yo'l qo'ymaslik orqali ta'minlash;

huquqni qo'llash amaliyoti va qonunchilikni takomillashtirish choralarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish orqali huquqbuzarliklarning, ayniqsa voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida oldini olish hamda ularga chek qo'yish, shuningdek ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

idoralararo hamkorlikni yanada rivojlantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan videokuzatuv, elektron hisobga olish va o'zaro axborot almashish, idoralararo ma'lumotlar bazalari tizimlarini profilaktik ishlarga keng joriy etish;

jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ijtimoiy va davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlikni yo'lga qo'yish;

amalga oshirilayotgan profilaktika chora-tadbirlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini, qonuniylik ahvoli hamda jinoyatchilik darajasi haqidagi ma'lumotlarni aholiga yetkazish masalalarida ommaviy ax-

borot vositalari bilan faol hamkorlik qilish, Internet butunjahon axborot tarmog‘i imkoniyatlaridan keng foydalanish, sodir etilgan huquqbuzarliklar va ularni bartaraf etish jarayoni to‘g‘risida keng jamoatchilikni tezkor xabardor qilish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini, shu jumladan huquqbuzarliklar dinamikasi, ularni sodir etish takroriyligi, ijtimoiy fikr, profilaktik ishlar natijasidan fuqarolarning qoniqish hosil qilishi va aholi bilan hamkorlik darajasini inobatga oladigan baholashning aniq mezonlarini joriy etish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha idoralararo dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda manzillilik, sohaviy ixtisoslashuv, hududiy va boshqa o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olinishini ta’minlash;

ijtimoiy muammolarni hal etish, birinchi navbatda aholi bandligini ta’minlash, ayollar va yoshlarni ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etishni faollashtirish, voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasi muammolari bo‘yicha kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, profilaktik ishlarni olib borishning zamonaviy uslubiyotini joriy etish;

huquqbuzarliklardan jabrlanuvchilar va g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan yoki sodir etgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini rivojlantirish;

huquqbuzarliklar profilaktikasiga fuqarolar va jamoat tashkilotlarini, shu jumladan ularni moddiy va boshqacha tarzda rag‘batlantirish orqali jalb etish mexanizmlarini takomillashtirish” belgilangan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi O‘RQ-371-sonli “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar uchun o‘z faoliyatini qanday yo‘nalishlarda olib borishi lozimligi belgilab berilmagan. Ya’ni huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar o‘z faoliyatini ayni damda jinoyat sodir qilinganidan keyingi jinoyatning oshganlik darajasiga qarab amalga oshirib kelayotganligini bu esa doimiy ravishda kriminogen o‘choqlarda jinoyat hamda jinoyatchilarning shakllanishi uchun qulay imkoniyat yaratayotganligini anglatadi.

Shu sababdan huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar uchun huquqbuzarliklar profilaktikasini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirishi lozimligini belgilash maqsadga muvofiq sanaladi:

1) shaxs, jamiyat va davlatni noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish;

2) jinoyatlarning oldini olish;

3) huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslarni profilaktik hisobga olish tizimini rivojlantirish;

4) jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini, shu jumladan ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash tizimi yo‘lga qo‘yish;

5) yo‘l harakati xavfsizligini va transport xavfsizligini ta’minlash;

6) axborot texnologiyalari vositasida sodir qilinayotgan jinoyatlarga qarshi kurash;

7) voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, huquqbuzarliklari va g‘ayriijtimoiy harakatlarining oldini olish;

8) terrorizm va ekstremistik faoliyatga qarshi kurashish, terrorchilik xurujlarining nishonlarini, shu jumladan muhim va xavfli infratuzilma va hayotni ta’minlash obyektlarini, shuningdek, odamlar ommaviy to‘planadigan joylarni himoya qilish;

9) giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish;

10) barcha mulk shakllarini muhofaza qilish va xavfsizligini ta’minlash;

11) iqtisodiy xavfsizlik hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash;

12) korrupsiyaga qarshi kurashish, uning kelib chiqish sabablari va shartlarini aniqlash hamda bartaraf etish;

13) ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish;

14) yong‘in xavfsizligini ta’minlash;

15) tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish hamda oqibatlarini minimallashtirish;

16) fuqarolarning huquqiy savodxonlik darajasini oshirish va huquqiy ongini rivojlantirish.

Ushbu yo'nalishlarning belgilanishi natijasida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalarning huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi amalga oshirishi lozim bo'lgan profilaktik chora tadbirlarini maqsadli yo'naltirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Ikkinchidan, huquqbuzarliklar haqida xabar berishda haligacha qisqa raqamli (masalan: 102, 1215) qo'ng'iroqlardan foydalanib kelinmoqda. Bu esa huquqbuzarlikdan jabrlanishi natijasida jismoniy jihatdan cheklangan (nogiron, kasal, garovga olingan, yaralangan va boshqalar) shaxslar tomonidan hamda huquqbuzarliklarga guvoh bo'lgan lekin ma'lum bir sabablar tufayli (IIOlari bilan bevosita muloqotni xohlamasligi, huquqbuzarlikni sodir qilgan shaxslarga nisbatan qo'rquvning mavjudligi, guvoh sifatida ishda ishtirok etishni xohlamasligi kabi) huquqbuzarliklar haqida tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishni istamaydigan shaxslar tomonidan huquqbuzarliklar haqida xabar berishni qiyinlashtirayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda jinoyat va huquqbuzarliklar haqida xabar berish tizimini raqamlashtirish hamda shunday funksiya bajaruvchi **"Ogoh Uz" mobil ilovasini** yaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Bu orqali huquqni muhofaza qiluvchi hamda favqulodda holatlarda yordam beruvchi organlar bilan jismoniy muloqotni chegaralash hamda tezkorlikni ta'minlashga erishiladi.

Ilova quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

- huquqbuzarliklar haqida tezkor xabar berish va ularni video, foto ko'rinishida saqlash;

- favqulodda holatlar (yong'in, tabiiy ofat, texnogen vaziyatlarda) haqida tezkor xabar berish;

- shaxslarning joylashuv nuqtalarini aniqlash;

- qidiruvdagi va shubhali shaxslar haqida ma'lumotni olish;

- jinoyatlar va huquqbuzarliklardan himoya qilish bo'yicha turli tarqatmalardan (eslatma, videorolik, harakatlanish bo'yicha eslatmalar) foydalanish.

Rivojlangan davlatlar tajribasida, jumladan AQShda jinoyat haqida xabar berish hamda shubhali holatlar haqida zudlik bilan xabar berish maqsadida "LiveSafe"[5] mobil ilovasidan foydalaniladi. Singapur davlatida jinoyat haqida xabar berishda "SGSecure"[6] mobil ilovasidan hamda qisqa raqamlarga SMS xabarnomalari yuborish tizimlaridan foydalaniladi. Buyuk Britaniyada esa jinoyat haqida xabar berish uchun "Streetsafe"[7] mobil ilovasidan hamda favqulodda SMS yuborish xizmatlaridan foydalaniladi.

Uchinchidan, so'nggi yillarda mamlakatimizda sodir etilayotgan jinoyatlar ulushida firibgarlik jinoyatlarining salmog'i yuqori bo'lib, ushbu jinoyatlarning asosiy qismi axborot texnologiyalari vositalari yordamida sodir qilinayotganligini kuzatishimiz mumkin. Axborot texnologiyalari orqali sodir qilingan firibgarlik jinoyatlarining katta qismini yolg'on qo'ng'iroqlar hamda fishing xabarlar ekanligini inobatga olgan holda firibgarlik jinoyatlarini oldini olishning yangicha mexanizmini ishga tushirish maqsadga muvofiq sanaladi.

Jumladan, sodir qilingan firibgarliklardan fuqarolarni himoya qilish maqsadida qo'ng'iroqlarni hamda SMS xabarlarni bloklaydigan "AntiFiribgar" dasturini ishga tushirish. Ushbu dastur o'z navbatida ikki tarkibdan, ya'ni mobil ilovadan hamda botdan tashkil topadi. Sodir qilingan firibgarlik jinoyatlarining raqamlarini IIOlarida yaratiladigan baza orqali doimiy dasturga kiritib boriladi, dastur esa endi shu raqamdan amalga oshiriladigan qo'ng'iroqlarni hamda SMS xabarlarni avtomatik bloklash hamda firibgarlik haqida bildirishnomalar yuborish imkoniyati ega

bo‘ladi. Bundan tashqari dasturdagi botdan foydalanish orqali ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilarga yuborilgan xabarlarni firibgarlikka bog‘liqligini tekshirish hamda bu haqida xabar berish mumkin bo‘ladi.

Rivojlangan davlatlarda jumladan, Singapur davlatida xuddi shunday maqsadlar uchun “Scamshield”[8] ilovasi hamda botdan foydalangan holda firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

To‘rtinchidan, hududlarda huquqbuzarliklarga qarshi kurashda kriminogen ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlarining ko‘payishi uchun sun’iy to‘siqlarning mavjud emasligini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni huquqbuzarliklar sodir qilingan hududlarda joylashgan infratuzilma obyektlari tahlili amalga oshirilmagan. Shu sababdan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda infratuzilma obyektlarini quyidagi jadval asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Infratuzilma obyektlari tahlili:

Kriminogen ehtiyojlarni* qondirishga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlari		**Kriminogen ehtiyojlarni* kamaytirishga xizmat qiluvchi infratuzilma obyektlari**	
Tungi klub	-5	Bog‘cha	+5
Bar	-5	Maktab	+5
Saunalar	-5	Kutubxona	+5
Alkogol mahsulotlari savdosini amalga oshiruvchi do‘konlar	-5	Muzey	+5
Noqonuniy hujralar	-5	Teatr	+5
Fohishaxonalar	-5	Kitob do‘konlari	+5
Spa salonlar	-5	Sport zallari	+5
Tamaki mahsulotlarini (sigaret, elektron sigaret va boshqa) sotuvchi rastalar	-5	O‘quv markazlari	+5
Game club	-5	IT markaz	+5

**Hududlarning xususiyatidan kelib chiqqan holda infratuzilma obyektlariga o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

Yuqoridagi jadval asosida hududlarda joylashgan infratuzilma obyektlari tahlil qilinadi hamda ularning o‘rtacha qismi olinganda kriminogen ehtiyojni qondirishga xizmat qiluvchi obyektlar -20 balldan yuqori bo‘lganda ularni kamaytirish maqsadida sun’iy to‘siqlardan (faoliyat uchun litsenziya talab qilish, faoliyati uchun cheklovlar belgilash, soliq tekshiruvlari o‘tkazish, taftishni amalga oshirish, reklama cheklovlarini o‘rnatish va hokazo) foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish. Bundan tashqari kriminogen ehtiyojlarni kamaytirishga xizmat qiluvchi obyektlarni ko‘paytirish maqsadida xuddi shunday sun’iy imkoniyatlar yaratish (soliq imtiyozlari, kredit imtiyozlari, ijara to‘lovlaridagi imtiyozlar, targ‘ibot-tashviqotlar va hokazolar) tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi”\\ https://lex.uz/docs/-6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Far-

moni, "Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" https://lex.uz/docs/-5841063.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston — 2030" Strategiyasi to'g'risida" farmoni, "Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" https://lex.uz/docs/-6600413.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori "Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi" https://lex.uz/docs/-3141186.

5. https://tips.livesafemobile.com/#/login

6. https://www.sgsecure.gov.sg/

7. https://www.police.uk/streetsafe

8. https://www.scamshield.org.sg/

Nurmatov M.M., Rizoyev F.F. Huquqbuzarliklarni oldini olishning zamonaviy usullari

Ushbu maqolada huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashishga oid muammolar xorijiy davlatlar tajribalari bilan solishtirgan holda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: huquqbuzarlik, jinoyat, sabab va shart-sharoitlar, shaxsiy omillar, ijtimoiy omillar, favqulodda holat, firibgarlik, mobil ilova.

Нурматов М.М., Ризоев Ф.Ф. Профилактика правонарушений современные методы

В данной статье анализируются проблемы профилактики преступности и борьбы с ней в сравнении с опытом зарубежных стран.

Ключевые слова: правонарушение, преступление, причина и следствие, личностные факторы, социальные факторы, чрезвычайное положение, мошенничество, мобильное приложение.

Nurmatov M.M., Rizoev F.F. Prevention of violations modern methods

This article analyzes the problems of crime prevention and combating them in comparison with the experiences of foreign countries.

Key words: offense, crime, cause and effect, personal factors, social factors, state of emergency, fraud, mobile application.

Chiniyev Dilshod Abdumo'minovich,
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi professori vazifasini bajaruvchi,
yuridik fanlar doktori

ADOLATLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISH – DAVLATIMIZ TARAQQIYOT YO'LINING ASOSIY MAQSADI

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida inson huquqlari va manfaatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Demokratik islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish, iqtisodiyotimizni barqaror o'sishini ta'minlash hamda erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish davrida ijtimoiy muammolarni hal etish, aholi farovonligi barqarorligini ta'minlash choralarini tizimli ravishda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlatlar tarixi iqtisodiyotni yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ijtimoiy masalalarni hal qilish barobarida amalga oshirishi jamiyat va davlatning o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi va barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatmoqda.

Shu tariqa rivojlangan davlatlarda ijtimoiy muammolar va ziddiyatlar pasayadi, yuzaga kelayotgan har qanday masala davlat va jamiyat institutlarining o'zaro ijtimoiy kelishuvi, konsensusi orqali hal qilib boriladi. Aks holatda, ijtimoiy norozichilik va kelishmovchiliklar keskinlashib, jamoat xavfsizligiga, odamlar tinchligi va osoyishtaligiga raxna soluvchi omillar ko'payib boradi.

Shu kabi holatlarni e'tiborga olib, milliy qonunchiligimizda ham, jumladan **jinoyat-protsessual qonunchiligida** davlat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ijtimoiy kelishuv, ijtimoiy hamkorlik tamoyillari tatbiq etilgan bo'lib, jinoyatlarni oldini olish, tergov va sud bosqichlarida ko'rib chiqish, ularni sodir etish sabablari va shart-sharoitlariga barham berishda jamoatchilikka, fuqarolarimizga tayanib ish yuritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu vazifani muhimligini e'tiborga olib, qonunchiligimizda bu boradagi zarur normalar mustahkamlab qo'yilgan.

Xususan, tergovda, ishni sudda ko'rish chog'ida jinoyat sodir etilgan holatlarga aniqlik kiritish, aybdorlarni qidirish, ularni fosh etish, adolatli hukm chiqarish, shuningdek jinoyatning sodir etilish sabablari va unga imkon bergan sharoitlarni aniqlash uchun jamoatchilik yordamidan foydalanish nazarda tutilgan. Hattoki, jamoat birlashmalari va jamoalarning vakillari jinoyat ishini yuritishda jamoat ayblovchilari hamda jamoat himoyachilari tariqasida qatnashishga ham haqlidirlar.

Yana bitta misol. Sudlov faoliyatida oshkoralikni kengaytirish uchun sudlar zarur hollarda ommaviy axborot vositalari xodimlarini, tegishli jamoat birlashmalarini va jamoalarni bo'lajak protsesslar to'g'risida xabardor qilishi, shuningdek protsesslarni bevosita korxonalarda, muassasalarda, tashkilotlarda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida hamda ta'lim muassasalarida o'tkazishi mumkinligi belgilangan.

Fuqaroning og'ir va o'ta og'ir jinoyatlari to'g'risida uning ish, o'qish yoki yashash joyidagi jamoaga, ish bo'yicha sud muhokamasi qachon va qayerda o'tkazilishi haqida xabar berilishi misolida ham davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy kelishuv, hamkorlik rishtalarini ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy kelishuvni, ijtimoiy hamjihatlikni, millatlararo totuvlik va birdamlikni ta'minlash Yangi O'zbekistonning yangilanish va taraqqiyot yo'liga asos qilib olingan adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdan iboratdir. Bu demokratik va iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning, ular orqaga qaytmasligining juda muhim shartidir.

Shunga ko'ra, jinoyatlarni oldini olish uchun ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy adolatni ta'minlash kabi ijtimoiy siyosatning muhim elementlariga alohida e'tibor berish, odamlarning ijtimoiy kayfiyatiga ta'sir etuv-

chi ijtimoiy muammolarni aniqlash va hal etish, ijtimoiy kafolatlarni, aholini ijtimoiy himoyalash choralarini ta'minlash davlatimizning muhim vazifalaridan bo'lib kelmoqda.

Jamiyatimizning ajralmas bir bo'lagi bo'lgan har bir inson ham amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarni mazmun-maqsadlarini tushunib, kerakligini his qilib yetganligi, islohotlar tufayli o'z imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqara olishini anglay olganligi, va eng muhimi, o'z tasavvurlarini jamiyat va davlat intilishlari bilan uyg'unligi, oldimizga qo'ygan ulug'vor maqsadlarga erishimizning muhim omillaridan hisoblanadi.

Bo'lib o'tgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan referendum natijalari fikrimizni tasdig'i bo'lib, ko'p millatli xalqimizning hamjihatligi va birdamligini ko'rsatib berdi hamda Asosiy Qomusimiz normalari asosida davlatimiz bilan bir tan, bir jon bo'lib, jamiyatimizni yangilash, ertangi kunimizni bugundan ko'ra yaxshiroq bo'lishini ta'minlashga bel bog'laganining yorqin namunasi bo'ldi.

Konstitutsiyaviy o'zgarishlar oxirgi yillarda shiddat bilan amalga oshirilgan o'zgarishlar natijasi o'laroq shakllangan davlatimiz va jamiyatimiz yutuqlarining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy qiyofasida o'z aksini topdi desak, to'g'ri bo'ladi.

O'z o'rnida, Konstitutsiyamiz, shu jumladan jinoyat-protsessual qonunchiligi normalari davlat qurilishining yangi strategik maqsadi – ijtimoiy davlat qurishni hamda ijtimoiy adolat va ijtimoiy birdamlik tamoyillari asosida xalq farovonligini oshirish, aholining zaif qatlamlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, har bir insonga tinch va munosib hayot kechirishiga imkon beradigan shart-sharoitlar yaratilishini belgilab berdi.

Eng asosiysi, bu normalar demokratik, adolatli fuqarolik jamiyati asoslarini yanada mustahkamlab berdi. Bunday jamiyatda davlat idoralari, davlat hokimiyatining har qanday bo'g'inida xizmat qilayotgan xodimlar xalq manfaatlarini ko'zlab, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlarda belgilangan insonning huquq va erkinliklarini amalda ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi va bu faoliyatda **ijtimoiy adolat** va qonuniylik prinsiplariga tayanadi.

Ijtimoiy adolatning asosiy jihatiga to'xtalar ekanmiz, konstitutsiyaviy, jinoyat-huquqiy normalarda davlat idoralarining barcha darajadagi xizmatchilari O'zbekiston xalqi, millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar uning har bir fuqarosining talab-istaklarini qondirishga qaratilganligida namoyon bo'lib, ushbu normalarda xalqimizning azaldan insonparvar, odamoxun fazilatlari hamma narsadan ustun qo'yilganligi, inson tom ma'noda e'zozlanganligidan darakdir.

Yana bir muhim masala. Davlatimiz, konstitutsiyaviy, jinoyat-huquqiy normalarda mustahkamlab qo'yganidek, xalq manfaati yo'lida hayotimizning barcha jabhalarida, shu jumladan ijtimoiy sohada islohotlarni amalga oshirar ekan, birinchi navbatda adolatni ta'minlashga – har bir inson huquq va erkinliklari to'laqonli, hech qanday kamsitishlarsiz ro'yobga chiqarishga, aholi farovonligini, jamiyatimiz birlamchi bo'g'ini bo'lgan oilamizda munosib va barqaror turmush tarzini kafolatlashga yo'naltirilgandir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning mazmuni va maqsadi ham har bir fuqaromiz millati, dini va maslagidan qat'iy nazar, shaxs sifatida namoyon bo'lishi, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi, o'z hayotidan mamnun bo'lib, farovon yashashi, ma'naviy barkamollikka erishishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashayotgan aholining munosib va erkin, farovon hayotini ta'minlash, har bir inson huquq va imkoniyatlarini to'liq foydalanishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish – Yangi O'zbekistonimizni barpo etish yo'lida jinoyatlarni oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarga barham berish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Shunday bo'lsada, ma'lumot o'rnida shuni ham aytish lozimki, jamiyatni demokratlashtirish va erkin bozor iqtisodiyotini rivojlantirish davrining ayrim bosqichlarida odamlarning moddiy ahvoli yomonlashuviga olib kelish holatlari ham kuzatilishi, bunday

holat esa ularni jinoyat yo‘liga boshlashi mumkin. Shu paytda davlatning aholining ijtimoiy himoyalanmagan qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashga doir choralarni ko‘rishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib qoladi.

Shu sababli, aholining turmush darajasini pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik, ishsizlar sonini o‘sishini oldini olish, kam ta’minlangan oilalarni, haqiqatan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash, odamlar qashshoqlashuviga qarshi kurash choralari tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Bu borada, qashshoqlikni tugatish muammolarini hal etishda aholining vujudga kelgan vaziyatlar tufayli bu darajaga tushib qolishi mumkin bo‘lgan guruhlar – nogironlar, yolg‘iz onalar, yetim bolalar, keksalarga alohida e’tibor berilmoqda va amalga oshirilayotgan ko‘mak, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlatning o‘z oldiga olgan yuqorida qayd qilingan ijtimoiy majburiyatlarini bajarishda aholining siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish muhim ahamiyatga egadir.

Fuqarolarga juda keng huquq va erkinliklar berilgan, ularning jamiyatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi, har bir inson mamlakatimiz fuqarosi ekanligini his qilishi, konstitutsiyaviy darajada berilgan huquq va erkinliklarni qadrlashi, mashaqqatli mehnat bilan qo‘lga kiritilgan demokratik qadriyatlarni asrab-avaylashi va himoya qilinishi juda muhimdir.

Aholining turmush darajasi o‘sishi uchun shart-sharoit va ishonchli kafolatlar yaratib beruvchi omillar tobora ortib bormoqda.

Eng asosiysi – insonlarning fikrlashi va dunyoqarashi o‘zgarmoqda, siyosiy va ijtimoiy ongi, saviyasi o‘sib bormoqda. Bugungi aholimiz bundan 6-7 yil oldingi odamlar emas, endilikda bizni tanlab olgan yo‘limizdan ortga qaytarib bo‘lmaydi.

Ijtimoiy siyosat, uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnat faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka keng jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratishdan ham iborat.

Bu chora-tadbirlar aholi turmush darajasi keskin pasayib ketishining, aholi daromadlari va turmush darajasida asossiz katta farqlarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi, jamiyat osoyishtaligi va barqarorligini ta’minlashning, odamlarni amalga oshirilayotgan islohotlarga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanishi omili bo‘ladi.

Har qanday davlatda turli ko‘rinishdagi tengsizliklar ko‘paysa va bunga imkoniyat beradigan imkoniyatlar mavjud bo‘lsa, ular ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi. Ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida keskin katta farq paydo bo‘lishi, jamiyatda qarama-qarshiliklar, ichki mojarolar kelib chiqishiga zamin bo‘ladi.

Shuning uchun, demokratik davlatning eng muhim vazifasi ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni oldini olish, yuzaga kelgan aholi qiyinchiliklarini hal qilish, odamlarning turmush sharoitlarini yaxshilab borishdan iborat.

Shunday bir paytda, davlat xizmatchilarining o‘zlari ham islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunmasligi, ijtimoiy adolatni buzilishi, hayotimizning turli jabhalaridagi korrupsiya holatlarining urchishi, muayyan ijtimoiy masalasi yuzasidan qiynalib turgan insonning shunday ham og‘ir ahvolini yanada og‘irlashtirishga, jiddiy ijtimoiy lahzalarga, ijtimoiy beqarorlikni vujudga kelishiga sabab bo‘lishi, fuqarolar tinchligi, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni yumshatish, munosib turmush sharoitlarini yaratish maqsadida oxirgi yillarda talaygina ishlar amalga oshirildi.

Tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste’mol xarajatlaridan kam bo‘lmagan darajaga olib chiqdik. Misol uchun, 2017-yilda kam ta’minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo‘lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko‘mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag‘lar esa, 7 barobar ko‘paytirilib, yiliga 11 trillion so‘mga yetdi [1].

Kam ta’minlangan oilalar farzandlarini parvarish qilish bo‘yicha nafaqalar qamrovi kengaytirildi, nafaqa tayinlashda hisobga

olingan bolalarning yoshi 14 yoshdan 18 yoshgacha oshirildi, mazkur to‘lov muddati 6 oydan 12 oygacha hamda nafaqa miqdori o‘rtacha 1,5 barobarga oshirildi, 2022-yildan boshlab – oilaning har bir a’zosiga jami bir oylik o‘rtacha daromad minimal iste’mol xarajatlari miqdoridan oshmaganda oilani kam ta’minlangan deb e’tirof etilishi belgilab qo‘yildi [2].

Kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida «Ijtimoiy himoya yagona reyestri» axborot tizimi joriy qilindi, kam ta’minlangan nafaqa oluvchi oilalar soni oxirgi uch yilda to‘rt barobarga oshib, 1,9 millionga yetdi [3].

2023-yil uchun Davlat byudjetining ijtimoiy sohaga yo‘naltirilayotgan mablag‘lar miqdoriga jiddiy e’tibor qaratildi. Ta’lim sohasi xarajatlari 58,4 trln so‘m, sog‘liqni saqlash sohasiga 28,4 trln so‘m, madaniyat sohasiga 2,5 trln so‘m, sport sohasiga 2,3 trln so‘m va fanni yanada rivojlantirish tadbirlari uchun 2023-yilda 1,8 trln so‘m yo‘naltirish belgilandi.

2023-yil uchun Davlat byudjetida aholini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlarini moliyalashtirish uchun 18,1 trln so‘m ajratilishi, jami 52 mingdan ortiq daromadi yuqori bo‘lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj fuqarolarga ipoteka krediti bo‘yicha dastlabki badal va foizlarning bir qismini qoplash uchun Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan 1,1 trln so‘m subsidiyalar to‘lab berilishi ko‘zda tutildi [4].

So‘nggi olti yilda biz ijtimoiy yordam ko‘lami 5 barobar oshirilib, 2 milliondan ortiq oilani qamrab olindi. Hozirgi kunda har bir ehtiyojmand oila byudjet va “3 ta daftar” tizimi orqali moddiy yordam olmoqda. Bu maqsadlarga byudjetdan har yili ajratiladigan mablag‘ni 18 trillion so‘mga yetdi. Qiyoslash uchun: 2016-yilda bu raqam 2,2 trillion so‘mni tashkil etardi.

Ijtimoiy ta'minotga yo‘naltirilgan mablag‘larning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2,5 barobar yoki 2016-yildagi 0,9 foizdan 2022-yilda 2,2 foizga ko‘paydi [5].

Oxirgi yillarda mamlakatimiz bo‘yicha qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko‘p uy-joylar qurdik. Bu davrda qo‘shimcha 500 ming o‘quvchi o‘rni yaratilib, ularning jami soni 5 million 300 mingga yetdi. Hozirgi vaqtda yana 1 million 200 ming o‘quvchi o‘rni yaratish bo‘yicha ishlar jadal davom ettirilmoqda [6].

Aholi uchun yangi uy-joylar qurish hajmini 1,5 barobar oshirib, 90 mingga yetkazilishi belgilangan. Bu borada ikki yil oldin boshlangan imtiyozli shartlar asosida ipoteka kreditlari berish davom ettirilmoqda.

Joriy yilda Toshkent viloyatida “Mening birinchi uyim” yangi ipoteka dasturi boshlanadi. Dastur doirasida, birinchi navbatda turar-joyga ehtiyoji bor hamda yosh oilalar uchun eng qulay shartlar asosida uy-joylar barpo etilishi belgilangan [7].

Agar e'tibor bersak, 2016-yilgacha qashshoqlik, kambag‘allik so‘zlari ishlatilmagan. Bugungi kunda, kambag‘allik darajasini kamaytirish vazifasi kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Uzoq muddatga mo‘ljallangan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlash strategiyasining bosh maqsadi qilib qo‘yildi. Prezidentimizning shu yil yanvar oyida Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “Birinchi navbatda aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish — biz uchun bosh vazifalardan biri bo‘lib qoladi”, deya aniq aytildi.

Kambag‘allikni qisqartirish jarayonlarini tartibga solish uchun maxsus vazirlik tashkil etildi, 2030-yilgacha Kambag‘allikni kamaytirish strategiyasi ishlab chiqildi, qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan ko‘plab davlat va ijtimoiy dasturlar ijro qilinmoqda, bu esa jinoyatchilikni oldini olishga xizmat qilishi muqarrardir.

2022-2026 – yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid Davlat Dasturining alohida IV-bo‘limi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”ga bag‘ishlandi hamda uning 37-maqsadida “Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda

nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish" belgilandi.

Davlat dasturiga muvofiq, alohida Konsepsiya asosida ishsiz va ish qidirayotgan shaxslarning 160 ming nafarini talabgor kasblarga o'qitish hamda ulardan kamida 5 ming nafarining kasbiy malaka darajasi tasdiqlash va ularga malaka pasportlarini taqdim etish, og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan 75 ming nafar ishsiz xotin-qizlarni davlat hisobidan mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarga o'qitish kabi muhim vazifalar bajarilishi ko'zda tutildi.

Yuqoridagilarga ko'ra, qonun hujjatlari, shu jumladan jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlab qo'yilgan ijtimoiy hamkorlik tamoyillari asosida davlatimiz tomonidan adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, aholini qiynab kelayotgan muammolarni hal etish kabi ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratilishi, jinoyatchilikni barvaqt oldini olish, jinoyatlar sodir etilishi sabablari va shart-sharoitlariga barham berish hamda "O'zbekiston – 2030" taraqqiyot strategiyamizda belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022-yil. https://president.uz/uz/lists/view/5774.

2. Kam ta'minlangan oilalarga yagona bola puli - uzaytirilgan to'lov muddati. https://uchquduq.uz/matbuot-xizmati/yangiliklar/item/2767-kam-ta-minlangan-oilalarga-yagona-bola-puli-uzajtirilgan-t-lov-muddati.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175-son Farmoni, https://lex.uz/.

4. Senatorlar 2023-yil uchun O'zbekiston Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonunni ma'qulladi. 27/Dekabr'/2022 https://dunyo.info/cyrl/site/inner/senatorlar_2023_yil_uchun_ozbekiston_davlat_byudzheti_togrisidagi_qonunni_ma'qulladi-IB.

5. "Bizning maqsadimiz aniq va o'zgarmasdir – demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lini yanada qat'iy davom ettiramiz", O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga ko'rsatilgan nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining XI-syezdidagi nutqi, 31.05.2023-yil. https://uzlidep.uz/news-of-party/14426.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022-yil. https://gov.uz/uz

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 21.12.2022-yil. https://gov.uz/uz

Chiniyev D.A. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish – davlatimiz taraqqiyot yo'lining asosiy maqsadi

Ushbu maqolada mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlari borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga sudlov faoliyatidagi oshkoralik, zarur hollarda ommaviy axborot vositalari xodimlari, tegishli jamoat birlashmalari va jamoalarni bo'lajak protsesslar to'g'risida xabardor qilish ham nazarda tutilgan. Aholining turmush darajasi o'sishi uchun shart-sharoit va ishonchli kafolatlar yaratib beruvchi omillarga alohida urg'u berilgan.

Kalit so'zlar: islohotlar; og'ir jinoyatlar; ijtimoiy adolat; strategiya; Yangi O'zbekiston, Yagona reyestr; kam ta'minlangan.

Чиниев Д.А. Проведение справедливой социальной политики – основная цель на пути развития нашего государства

В данной статье освещаются проводимые в нашей стране реформы в области прав и интересов человека. При этом отмечено про обеспечение прозрачности в судебной деятельности для информирования работников СМИ, соответствующих общественных объединений и сообществ о предстоящих судебных процессах в случае необходимости. Особое внимание уделяется факторам, создающим условия и надежные гарантии роста уровня жизни населения.

Ключевые слова: реформы; тяжкие преступления; социальная справедливость; стратегия; Новый Узбекистан; Единый реестр, малообеспеченный.

Chiniev D.A. Conduct a fair social policy – the development of our state is the main goal of the path

This article covers the reforms carried out in our country on human rights and interests. At the same time, it was noted about ensuring transparency in judicial activities to inform media workers, relevant public associations and communities about upcoming trials, if necessary. Special emphasis is placed on factors that create conditions and reliable guarantees for the growth of the standard of living of the population.

Key words: reforms; serious crimes; social justice; strategy; New Uzbekistan, single register; low – income.

Axmedova Muqaddasxon Tursunovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasi professsori, yuridik fanlar doktori, dotsent;
Muinova Nilufar Abdukarimovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR SAYLOV HUQUQINING TARTIBGA SOLINISHIGA OID MUHIM MASALALAR

Demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etilganligi hamda jamiyat hayotida demokratik prinsiplar to‘la qaror topganligining asosiy ko‘rsatgichi fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi, davlat hayotida bo‘ladigan ishlardan ularning xabardorligi, mamlakatda vaqti-vaqti bilan saylovlarning o‘tkazib turilishi bilan belgilanadi.

Demak, demokratik huquqiy davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda saylovlar muhim mezon rolini o‘ynaydi. Saylovlar demokratiyaning ajralmas va muhim belgisi hisoblanib, erkin va bevosita saylovlar orqali ayollar o‘zi munosib deb bilgan shaxslarni Prezident lavozimiga, parlament quyi palatasiga yoki mahalliy davlat vakillik organlariga deputat sifatida saylaydilar, ularga nisbatan o‘z munosabatini bildiradilar hamda davlat hokimiyati vakillik organlarini tashkil etishda ishtirok etadilar. Saylovlar - ayollarning saylov huquqi orqali ham amalga oshiriladi.

Saylov huquqi ayollarning davlat tomonidan kafolatlangan saylov jarayonlarida qatnashish huquqidir. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ayollarning saylov huquqi saylash va saylanish huquqidan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasida belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar [1].

Ushbu konstitutsiyaviy normaning mazmuni saylov huquqi ayollarning saylash va saylanish huquqidan iborat ekanligini belgilaydi.

Shundan ko‘rinib turibdiki, saylov huquqi deb, bir tomondan saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisi, ikkinchi tomondan, fuqarolarning siyosiy huquqi sifatida saylash va saylanish huquqi (aktiv va passiv saylov huquqi)ga aytiladi [2].

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida saylov huquqiga doir ba’zi talablar o‘rnatilgan, masalan, ma’lum yoshga yetgan bo‘lish, shu joyda ma’lum yil muqim yashagan bo‘lish, muomala layoqatiga ega bo‘lish va h.z. Saylov huquqi ma’lum prinsiplar orqali amalga oshirilib, ular saylovlarning adolatli va qonuniy asosda o‘tkazilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Saylov huquqining asosiy prinsiplari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o‘z ifodasini topgan. Uning 21-moddasida belgilanishicha, “xalq irodasi davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan, ovoz berish erkinligini ta’minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o‘tkaziladigan saylovlarda o‘z aksini topishi zarur” [3].

BMT Bosh assambleyasi tomonidan qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro paktning 25-moddasida ko‘rsatilishicha, “har bir fuqaro hech qanday cheklashlarsiz, kamsitilishsiz, bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, erkin, yalpi-umumiy, teng, yashirin ovoz berish huquqiga ega bo‘lishi kerak” [4]. Ushbu xalqaro huquqiy hujjatlar talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Saylov kodeksida umumiy, teng, to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi, yashirin ovoz berish, saylovlarning oshkora o‘tishi, xohish-irodani erkin bildirish saylov huquqining asosiy prinsiplari sifatida belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida ham ular saylov huquqining asosiy prinsiplari sifatida e’tirof etilgan. Umumiy saylov huquqi saylov huquqining asosiy prinsipi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 4-moddasi Umumiy saylov huquqi deb nomlanib, unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlari umumiydir. Saylov kuni o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga egadir. Fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma’lumoti, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qat’i nazar, teng saylov huquqiga egadir [5].

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va saylov qonunchiligiga binoan saylanish huquqiga ega bo‘lish uchun quyi yosh chegarasi belgilangan. Ayollar mahalliy kengash deputati bo‘lib saylanishi uchun 21 yoshga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati va Senat a’zosi bo‘lib saylanishi uchun 25 yoshga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bo‘lib saylanishi uchun esa, 35 yoshga to‘lgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, xalq deputatlari kengashlariga deputat bo‘lib saylanish uchun ayollar O‘zbekiston hududida oxirgi besh yil, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bo‘lib saylanishi uchun oxirgi o‘n yil mobaynida muqim yashagan bo‘lishi talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bo‘lib saylanish uchun yana davlat tilini yaxshi bilish lozim. Teng saylov huquqi saylov huquqining navbatdagi prinsipi sanaladi. Bu prinsip O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Saylov kodeksida mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 5-moddasida saylovda ishtirok etuvchi har bir fuqaro bir ovozga ega bo‘ladi. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etmaydi. Teng saylov huquqi prinsipi saylov okruglarida (vakillik organlariga) saylovchilar sonining bir xil bo‘lishi, saylov uchastkalarining teng normada tuzishda ham o‘z ifodasini topadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va pog‘onali saylov huquqi saylov huquqining asosiy prinsiplaridan biridir [6].

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 6-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanishi ko‘rsatilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi ovoz berishda ayollarning bevosita, shaxsan ishtirok etishini bildiradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi orqali eng quyi vakillik organlari deputatlari ham, oliy vakillik organlarining deputatlari ham, davlat boshlig‘i – Prezident ham bevosita fuqaro saylovchilar tomonidan saylanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasiga asosan, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarning qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda - to‘rt kishidan saylanadi” [7]. Ushbu moddaga ko‘ra, saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan O‘zbekiston fuqarosi Senat a’zosi bo‘lib saylanishi mumkin. Demak, mamlakatimiz saylov tizimida to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi bilan bir qatorda, pog‘onali saylov huquqi ham mavjud bo‘lib, u Senat a’zoligiga hududlardan a’zo saylashda qo‘llaniladi.

Yashirin ovoz berish va saylovlarda oshkoralik saylov huquqining navbatdagi prinsipidir. Saylovlarda adolatni ta’minlash vositalaridan biri ovoz berishning yashirin bo‘lishidir. Saylovlarning yashirin ovoz berish orqali o‘tkazilishi O‘zbekiston Respu-

blikasi Konstitutsiyasining 128-moddasida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 7-moddasi “Yashirin ovoz berish”, deb nomlanib, unga asosan deputatlar saylovida yashirin ovoz beriladi. Saylov qonunchiligiga asosan ovoz berish yashirin xonalarda amalga oshirilishi, saylovchi byulleten bilan tanishganda saylov kabinalarida undan boshqa hech kim (saylov komissiyasi a’zolari, kuzatuvchilar) bo‘lmasligi kerak. Ovoz berishning yashirinligi muddatidan oldin ovoz berilganda, nogironlar, kasallarga maxsus saylov qutisi olib borilganda ham ta’minlanadi. Saylov jarayonidagi boshqa barcha harakatlar oshkora o‘tkaziladi. Oshkora o‘tmagan saylovlar demokratik deb hisoblanmaydi [8].

Shuning uchun oshkoralik ham saylov huquqining muhim prinsiplaridan biridir. Saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishdagi oshkoralik quyidagi tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

birinchidan, saylov komissiyalarining ishlari, saylov okruglari va komissiyalari tuzilganligi, komissiyalarning tarkibi, ularning joylashgan yeri va ish vaqti saylovchilarga ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinadi;

ikkinchidan, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning dasturlari, nomzod ko‘rsatish faoliyati, nomzodlarni ro‘yxatga olish va ular haqidagi ma’lumotlar, nomzodlar bilan tashkil qilinadigan uchrashuvlar haqida ma’lumot ommaviy axborot vositalari orqali xabar qilinadi, nomzodlar va ularning vakillarining ommaviy axborot vositalarida chiqishlari tashkil qilinadi;

uchinchidan, saylovchilarning ro‘yxati tuzilganligi, qaysi saylovchi qanday raqamda ro‘yxatga kiritilganligi ko‘rsatilgan xabarnoma va ovoz berish manzili va vaqti ko‘rsatilgan taklifnomalar barcha saylovchilarga uchastka saylov komissiyalari tomonidan yetkaziladi;

to‘rtinchidan, ovoz berish yakunlari haqida saylovchilarga ma’lumot OAV orqali yetkaziladi;

beshinchidan, saylovga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bilan bog‘liq barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda deputatlikka nomzod ko‘rsatgan siyosiy partiyalardan bittadan kuzatuvchi, ommaviy axborot vositalarining vakillari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlaridan, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va harakatlardan kuzatuvchilar qatnashish huquqiga ega.

Ayollarning saylov huquqini demokratik tamoyillar asosida o‘tkazilishida saylov huquqiga bag‘ishlangan xalqaro xujjatlar standart va etalon vazifasini bajaradi. Saylov munosabatlarini tartibga soladigan shunday xalqaro huquqiy hujjatlar sirasiga birinchi navbatda BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasi tomonidan 1991 yil 30 sentabrda ratifikatsiya qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kiradi. Ushbu xalqaro hujjatning 21-moddasiga ko‘ra, har bir inson o‘zi yashayotgan davlatning boshqaruvida bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali qatnashish huquqiga egadir. Xalq irodasi hokimiyatning asosi bo‘lmog‘i lozim, bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, umumiy va teng saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yoki ovoz berish erkinligini ta’minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o‘tkaziladigan saylovlarda o‘z ifodasini topishi kerak.

BMT Bosh assambleyasi tomonidan 1966 yil 16 dekabrda qabul qilingan yana bir muhim xalqaro hujjat – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktdir. Uning 25-moddasiga muvofiq, har bir fuqaro kamsitishlarsiz hamda asossiz cheklovlarsiz, ham bevosita, ham erkin saylangan vakillar orqali davlat ishlarini boshqarishda qatnashish, umumiy va teng saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish orqali o‘tkaziladigan va saylovchilarning erkin holdagi xohish-irodasini ta’minlovchi chinakam davriy saylovlarda ovoz berish va saylanish, o‘z mamlakatida umumiy shartlarda davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo‘lishi lozim [9].

BMT tomonidan 1952 yil 20 dekabrda qabul qilingan “Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risida” [10]gi (O‘zbekiston

Respublikasi 1997 yil 30 avgustda qo‘shilgan) hamda 1979 yil 18 dekabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida” [11]gi konvensiyalar (O‘zbekiston Respublikasi 1995 yil 6 mayda qo‘shilgan) saylovlarda xotin-qizlar huquqining ta’minlanishiga xizmat qiladigan muhim xalqaro hujjatlardir. Ushbu xalqaro hujjatlarga muvofiq, ishtirokchi davlatlar mamlakatning siyosiy va jamoat hayotida xotin-qizlar kamsitilishiga barham berish yuzasidan barcha tegishli choralarni ko‘rishlari, jumladan, ayollarga erkaklar bilan teng shart-sharoitlarda saylov huquqini ta’minlashi lozim. Erkin saylovlarni amalga oshirishni ta’minlashda Parlamentlararo ittifoq kengashining 1994 yil 26 martda qabul qilingan “Erkin va adolatli saylovlar mezonlari to‘g‘risida”gi deklaratsiya alohida ahamiyatga ega.

Ushbu deklaratsiyada chinakam erkin va odilona saylovlar o‘tkazishning institutlarini va huquqiy kafolatlarini ta’minlash, saylovlarni tashkillashtirish va o‘tkazishda xolis, odilona va barqaror mexanizmni o‘rnatish, yashirin ovoz berish prinsipiga rioya qilish, noqonuniy harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik, saylov jarayonining aniq va tushunarli olib borilishini ta’minlash, saylovlarda zo‘ravonlik qilish holatlarining oldini olish, saylov jarayoniga taalluqli bo‘lgan shikoyatlarni saylov organlari va sudlar tomonidan tez va samarali ko‘rib chiqishda qonuniy va boshqa choralar ko‘rish davlatlarning majburiyati ekanligi belgilangan.

Shuningdek, mazkur xalqaro tashkilot tomonidan 1997 yil 24 mayda qabul qilingan “Demokratiya to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasi”ga muvofiq, demokratiyaga erishishning asosiy vositasi aniq davr mobaynida o‘tkaziladigan erkin va odilona saylovlar hisoblanadi, uning yordamida xalq xohish-irodasi ifoda etilishiga imkon yaratiladi.

MDH tomonidan 2002 yil 7 oktabrda qabul qilingan “Demokratik saylovlar, saylov huquq va erkinliklari standartlari to‘g‘risida”gi konvensiya saylov jarayonini bugungi kun talablari asosida tashkil etishning asosiy tamoyillarini belgilab beradi. Konvensiyada fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga, mahalliy o‘zo‘zini boshqarish organlariga va xalq (milliy) vakilligining boshqa organlariga saylash va saylanish huquqlari, saylovchilarning erkin xohish-iroda bildirishini ta’minlovchi, umumiy, teng saylov huquqi bilan yashirin ovoz berish asosidagi saylovlarning muntazamligi, majburiyligi, odilonaligi, chinakamligi va erkinligi tamoyillari, saylovlarning ochiq va oshkoraligi, inson va fuqaroning saylov huquqlari hamda erkinliklarini sud tomonidan va boshqa yo‘llar bilan himoya qilishni amalga oshirish, saylovlarni xalqaro kuzatish, saylov jarayoni ishtirokchilarining saylov huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish lozimligi kafolatlangan.

Ayrim mamlakatlarda esa parlament a’zolari bevosita fuqarolar tomonidan emas, saylovchilar saylagan vakillar tomonidan saylanadi. Ya’ni, fuqarolar deputatlarni saylashni o‘z vakillariga topshiradi.

Xususan, Italiya, Fransiya davlatlarida jinoiy jazoni o‘tab chiqqan, ammo sudlanganlik holati olib tashlanmagan fuqarolar yoki bo‘lmasa, Argentina, Meksika davlatlarida hibsda saqlanayotgan shaxslar ham saylovchilar ro‘yxatiga kiritilishi mumkin emas. O‘zbekiston Respublikasining saylov qonunchiligi va ular asosida o‘tkaziladigan saylovlar yuqorida sanab ko‘rsatilgan xalqaro saylov hujjatlari va standartlari talablariga to‘la mos keladi. Mamlakatimiz saylov tizimi xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari, rivojlangan demokratik davlatlarning bu boradagi ilg‘or tajribasi va xalqimizning milliy mentalitetini inobatga olgan holda shakllantirilgan bo‘lib, u saylovlarni ochiq, xolis, erkin, adolatli o‘tkazilishini, ayollarga davlat ishlarini boshqarishda bevosita yoki bilvosita o‘z vakillari orqali ishtirok etishi imkoniyatlarini kafolatlaydi

Xulosa o‘rnida aytish o‘rinliki, milliy saylov qonunchiligimiz na faqat umumtan olingan xalqaro saylov standartlari talablariga mos keladi, balki u xorijiy mamlakatlar saylov qonunchiligidan bir qator afzal jihatlari bilan ajralib turadi. Bular:

birinchidan, mamlakatimizda barcha saylov va referendumlarni tashkil etish va o'tkazish uchun mustaqil organ, ya'ni Markaziy saylov komissiyasi tashkil etilishi hamda uning o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshirishidir.

ikkinchidan, saylov qonunchiligimizga binoan Qonunchilik palatasining bir yuz ellik deputati to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi, ya'ni saylovchilar bevosita deputatlikka nomzodga ovoz beradi va uning natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi deputati saylanadi.

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tadigan saylovning aniq davriy muddati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab qo'yilgan.

to'rtinchidan, milliy saylov qonunchiligimizga ko'ra fuqaro saylovchilar ro'yxatiga kiritilishi uchun O'zbekiston fuqarosi bo'lishi kerak. Bu borada mamlakatimiz milliy saylov qonunchiligidan farqli o'laroq, ayrim xorijiy davlatlarning vakillik organlari saylovlarida o'z davlatining fuqarosidan tashqari, xorijiy fuqarolarning ham ishtirok etishini kuzatish mumkin;

beshinchidan, Saylov kodeksiga ko'ra, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydi. Ya'ni, ular saylovchilar ro'yxatiga kiritilmaydi. Fuqarolarning saylovda ishtirok etishiga to'sqinlik qiluvchi boshqa cheklovlarni ayrim davlatlar tajribasida uchrashini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т. Ўзбекистон, 2023. – Б. 96-97.

2. Рустамбаев М.Х., Усмонов М.Б. Аёл ҳуқуқи. Дарслик. Масъул муҳаррир ю.ф.д., профессор О.К.Турғунов.– Т.: ЖХУ, 2021. – Б. 287.

3. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. // Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. – Т.: Адолат, 2004. – Б. 30-36.

4. Ўша жойда, - Б. 36-55

5. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 26.06.2019 й., 03/19/544/3337-сон; 09.02.2021 й., 03/21/670/0089-сон

6. Рустамбаев М.Х., Усмонов М.Б. Аёл ҳуқуқи. Дарслик. Масъул муҳаррир ю.ф.д., профессор О.К.Турғунов. – Т.: ЖХУ, 2021. – Б. 290.

7. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023. – Б.51.

8. Рустамбаев М.Х., Усмонов М.Б. Аёл ҳуқуқи. Дарслик. Масъул муҳаррир ю.ф.д., профессор О.К.Турғунов. – Т.: ЖХУ, 2021. – Б. 292.

9. Рустамбаев М.Х., Усмонов М.Б. Аёл ҳуқуқи. Дарслик. Масъул муҳаррир ю.ф.д., профессор О.К.Турғунов. – Т.: ЖХУ, 2021. – Б. 294.

10. Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. //Масъул муҳаррир А.Х.Саидов. –Т.: Адолат, 2004. – Б. 80.

11. Международные конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью. // Сборник международных документов. Составитель Ю.С.Пулатов. –Т.: ИПК «Шарк», 1995. – Б. 104-118.

Axmedova M.T., Muinova N.A. O'zbekistonda ayollar saylov huquqining tartibga solinishiga oid muhim masalalar

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida ayollarning siyosiy huquqlaridan biri bo'lgan saylov huquqining ta'minlangani, ayollarning davlat boshqaruvida o'z o'rniga ega bo'lishi, saylash va saylanish huquqlarining kafolatlari yuzasidan fikrlar bildirib o'tilgan.

Shuningdek, bu masala bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasi hamda saylov huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik masalalari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ayol huquqi, ayollarning saylov huquqi, saylov, saylov tizimi, siyosiy huquqlar, saylov huquqining cheklanishi, Saylov kodeksi, saylovoldi tashviqot, saylovlarning oshkora o‘tkazish, saylov huquqini buzganlik uchun javobgarlik.

Ахмедова М.Т., Муинова Н.А. Важные вопросы, связанные с регулированием избирательного права женщин в Узбекистане

В настоящей статье приведены вопросы обеспечения одного из политических прав женщин, а именно избирательного права, обеспечения места женщин в органах государственного управления, гарантии права избират и быт избранными. Также освещены опыт зарубежных стран в данной сфере и вопросы ответственности за нарушение избирательных прав.

Ключевые слова: права женщин, избирательное право женщин, избирательная кампания, прозрачное проведение выборов, ответствнност за нарушение избирательного права.

Axmedova M.T., Muinova N.A. Important issues related to the regulation of women's suffrage in Uzbekistan

This article presents issues of ensuring one of the political rights of women, namely the right to vote, ensuring the place of women in government bodies, guaranteeing the right to vote and be elected. The experience of foreign countries in this area and issues of liability for violation of electoral rights are also covered.

Key words: women's rights, women's suffrage, election campaign, transparent conduct of elections, responsibility for violation of electoral rights.

Xolbo'tayev Abdug'ani Abduraximovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

DAVLAT CHEGARASINI QO'RIQLASH SOHASIDAGI MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR TUSHUNCHASI

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni to'g'ri yuritish ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash, vaziyatni har tomonlama anglash, o'z vaqtida va qonuniy qaror qabul qilish hamda uning ijrosini ta'minlash, huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablari va sharoitlarini o'rganish va bartaraf etish, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi [1]. Bu jarayondagi muhim prinsiplardan biri tezkorlik bo'lib, har bir ish imkon qadar qisqa muddatlarda hal qilinishi kerak [2]. Sodir etilgan har qanday huquqbuzarlikka nisbatan o'z vaqtida chora ko'rish, ta'sir choralarini qonuniy ravishda va belgilangan muddatlarda qo'llash uni sodir etgan shaxs va atrofidagilar uchun katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish mazkur ishlarni yuritish vazifalari va tartibi, dalillar (MJtKning XIX bobi), ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi bayonnomani rasmiylashtirish (MJtKning XX bobi), ma'muriy yo'l bilan ushlab turish, ashyolar va transport vositalarini ko'zdan kechirish, ashyolar va hujjatlarni olib qo'yish (MJtKning XXI bobi), ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritishda qatnashuvchi shaxslar (MJtKning XXII bobi), ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish (MJtKning XXIII bobi), yarashuv to'g'risidagi ishlar bo'yicha ish yuritish (MJtKning XXIII1 bobi), muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxsni reabilitatsiya markaziga joylashtirish to'g'risida ish yuritish (MJtKning XXIII bobi), ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qaror (ajrim) ustidan shikoyat berish va protest bildirish (MJtKning XXIV bobi), jinoyat ishlari bo'yicha sudning ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qarorini (ajrimini) qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish (MJtKning XXIV bobi) xususidagi tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning [3] 248^2-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga ushbu Kodeksning 224-moddasida, 224^1-moddasining birinchi qismida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari bo'linmalarining boshliqlari va ularning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga va jarima tariqasidagi ma'muriy jazo chorasi qo'llashga haqli.

Shu bilan birga, MJtKning 287-moddalariga asosan, DXX Chegara qo'shinlariga mazkur Kodeksning 184^2, 184^3, 196^1, 196^2, 224-moddalarida, 224^1-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida, 224^2-moddasida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227^{21}-moddasi birinchi qismida, 227^{23}-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda shaxslarni ushlab turish vakolati taqdim etilgan. MJtKning 280-moddasiga muvofiq, buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish tegishli qonunchilik hujjatlari bilan zimmasiga yuklatilgan DXX Chegara qo'shinlarining mansabdor shaxslari tomonidan 184^2, 184^3, 196^1, 196^2-moddalarida, 224-moddasining ikkinchi qismida, 224^1-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida, 224^2-moddasida, 225-moddasining yettinchi va sakkizinchi qismlarida, 227^{21}-moddasi birinchi qismida,

227^{23}-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirilib, MJtKning 282-moddasida belgilangan tartibda uni ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan organga (mansabdor shaxsga) ko'rib chiqish uchun yuborilib kelinmoqda.

Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar tushunchasi milliy qonunchilikda qo'llanilmagan bo'lib, mazkur atama MDH mamlakatlarining qonunchilik hujjatlarida turli xil ko'rinishda ifodalangan.

Xususan, mazkur sohaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar "Rossiya Federatsiyasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunida [4] "Davlat chegarasini himoya qilish sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar" sifatida, "Qozog'iston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunida [5] "Chegara makonidagi ma'muriy huquqbuzarliklar" deb e'tirof etilgan. "Belarus Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunida [6] bu tushunchaga umuman to'xtalmagan.

"O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonunning [7] 4-moddasida, **Davlat chegarasini qo'riqlash** – jangovar-xizmat, tezkor-xizmat harakatlari, nazoratga oid, tezkor-qidiruv va rejimli tadbirlar majmui sifatida ta'riflangan.

Davlat chegarasini qo'riqlash – O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati hamda Davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish yagona tizimining boshqa subyektlari tomonidan, ularning Davlat chegarasi to'g'risidagi qonunchilikka rioya qilishni ta'minlash bo'yicha vakolatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jangovar (operativ) xizmat harakatlari, nazorat, tezkor-qidiruv, rejimli va boshqa tadbirlar majmui hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, DXX Chegara qo'shinlari tomonidan Davlat chegarasini qo'riqlash davomida mazkur sohadagi ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etilgan taqdirda, ularga qonunchilik talablariga muvofiq ushbu huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarga nisbatan tegishli ta'sir choralarini ko'rish majburiyatini yuklaydi.

Keltirilgan normativ-huquqiy hujjatlardagi atamalardan hamda ilmiy tarzda asoslangan "Davlat chegarasini qo'riqlash" atamasiga berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda, "Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar" tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini berishni lozim deb topdik:

Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar *deganda, qonunchilikka binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarga bevosita zarar yetkazadigan, aybli, g'ayrihuquqiy qilmishlar tushuniladi.*

Mazkur tushunchadan kelib chiqqan holda, aynan Davlat chegarasini qo'riqlash davomida aniqlanadigan MJtKning quyidagi moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklarni **Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar** sifatida keltirish mumkin:

196^{1}-modda (O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchisining qonuniy talablarini bajarmaslik);

196^{2}-modda (O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari harbiy xizmatchilarining o'z xizmat burchini bajarishiga qarshilik ko'rsatish);

224-modda (Chegara zonasiga, shuningdek fuqarolarning kirishi va bo'lishiga vaqtincha cheklov belgilangan joylarga kirish hamda ularda yashash qoidalarini buzish);

224^{1}-modda (O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejimni buzish);

224^{2}-modda (O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasida barpo etilgan muhandislik-texnika inshootlarini va to'siqlarni yo'q qilib yuborish yoki ularga shikast yetkazish).

MJtKning 184^{2}, 184^{3}, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida, 227^{21}-moddasi birinchi qismida, 227^{23}-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar bevosita Davlat chegarasini

qo‘riqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlarda ham sodir etilishi mumkinligini hisobga olib, ularni yuqorida keltirilgan Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar doirasiga kiritmaslikni lozim deb topdik.

Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish – ma’muriy protsess tarkibidagi ma’muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning alohida turi bo‘lib, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarini qo‘zg‘atish, ish bo‘yicha dalillar to‘plash, protsessual hujjatlar tuzish, ularni ko‘rib chiqish hamda ishni tugatishgacha bo‘lgan harakatlar majmuidan iborat [8].

MJtKning 269-moddasiga asosan, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish vazifalari: har bir ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘la va obyektiv ravishda aniqlab chiqishdan, bu ishni qonunchilikka muvofiq holda hal etishdan, chiqarilgan qarorning ijrosini ta’minlashdan, shuningdek ma’muriy huquqbuzarlik sodir etish sabablari va bunga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlashdan, huquqbuzarliklarning oldini olishdan, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashdan, qonuniylikni mustahkamlashdan iboratdir.

DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi har bir ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama, to‘la va obyektiv ravishda aniqlash vazifasini tahlil qilganda huquqbuzarlik ishini to‘g‘ri ko‘rib chiqishda zarur bo‘lgan barcha holatlarni aniqlash lozim.

DXX Chegara qo‘shinlari tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik ishlari bo‘yicha har bir holatni o‘z vaqtida aniqlash — ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya etishni nazarda tutadi. Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish mazmuni nafaqat ishning holatini o‘z vaqtida, har tomonlama va to‘la aniqlab olishni, balki uning obyektivligi, xolisligini ham talab qiladi. Chunki, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsiplaridan biri bu – obyektivlikdir. Ushbu prinsipdan kelib chiqib, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega bo‘lgan DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslari barcha holatlarni aniqlashlari shart. Obyektivlik ishga nisbatan adolatsizlik, taxminlarga asoslangan holda javobgarlikka tortilayotgan shaxsning manfaatini ko‘zlab guvohlik beradigan holatlarni mensimaslikni istisno etadi. Bundan tashqari, ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning obyektivligi – ushbu jarayon ishtirokchilariga, ularning shikoyatlari va boshqa murojaatlariga nisbatan hurmat bilan qarashni nazarda tutadi [9].

Amaliyotda ushbu prinsipni amalga oshirish maqsadida, MJtK bilan bir qancha kafolatlar o‘rnatilgan (masalan: huquqbuzarlikka oid ishlar qayta ko‘rib chiqilishi mumkin) ma’lum bir holatda ishni ko‘rib chiquvchi davlat organi (mansabdor shaxslar) hujjatlarni talab qilib olishi, ekspertiza o‘tkazishi va boshqa choralarni ko‘rishi mumkin.

DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarining qo‘llanishiga ularning o‘zlariga yuklatilgan Davlat chegarasini qo‘riqlash bo‘yicha vazifasidan kelib chiqqan holda, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish yurituviga doir ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha boshqa ta’sir ko‘rsatish choralari qo‘llanib bo‘linganidan keyin ma’muriy huquqbuzarlikni to‘xtatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnoma tuzish zarur bo‘lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o‘zida tuzish imkoni bo‘lmagan taqdirda ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risida bayonnoma tuzish, ishlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishini ta’minlash va ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma’muriy yo‘l bilan ushlab turish, shaxsan ko‘rikdan o‘tkazish, uning ashyolari, transport vositalarini ko‘zdan kechirish va ashyo hamda hujjatlarni olib qo‘yish orqali yo‘l

qo‘yiladi.

Demak, bundan ko‘rinadiki, DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash bo‘yicha ma’muriy majburlov choralarining ma’muriy protsessual tartibda qo‘llanilishi Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishning asosiy bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Huquqshunos olim Yu.P.Gapon o‘zining tadqiqot ishida mazkur ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarini qo‘llashning maqsadi sifatida keltirilganlardan tashqari, ma’muriy huquqbuzarliklarni oldini olishni ham keltirib o‘tadi [10].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, DXX Chegara qo‘shinlari nomidan bo‘linma boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari (aniq subyektlar toifasi keltirilmagan) MJtKning 224-moddasida, 224[1]-moddasining birinchi qismida, 225-moddasining birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish va jarima tariqasidagi ma’muriy jazo chorasini ko‘rish vakolatiga egadirlar.

Mazkur taalluqlilik qonun hujjatlari bilan belgilangan bo‘lib, bunday ajratish huquqbuzarliklarning predmeti va ularning Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi munosabatlarga zarar yetkazishda ifodalanadigan harakat (harakatsizlik) nuqtai nazaridan kelib chiqqan.

Keltirilgan ilmiy qarashlardan kelib chiqqan holda DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatini quyidagicha tushunish mumkin:

– tor ma’noda: DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish bo‘yicha MJtKda belgilangan protsessual harakatlarni amalga oshirish;

– keng ma’noda: DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan Davlat chegarasini qo‘riqlash vazifasini amalga oshirish jarayonida aniqlanadigan ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha mazkur huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish yuzasidan ma’muriy protsessual harakatlarni amalga oshirishda qo‘llaniladigan tadbirlar majmui.

Keverkov D.R. o‘zining dissertatsiya ishida Chegara qo‘shinlari va chegara organlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati sifatida – Chegara qo‘shinlari va chegara organlarining mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish va ko‘rib chiqish, qabul qilingan qarorlarni ijro etish, zarurat yuzaga kelganida – ma’muriy surishtiruv o‘tkazish, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi qarorlarni qayta ko‘rib chiqish tushunilishini bildirib o‘tadi [11].

Shu ma’noda, *DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati* – ma’muriy protsess tarkibidagi ma’muriy yurisdiksiyaviy faoliyatning bir qismi bo‘lib, ma’muriy qonunchilik hujjatlariga muvofiq, DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish, ish bo‘yicha dalillar to‘plash, protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish, ish yuritishni ta’minlash choralarini qo‘llash, ularni ko‘rib chiqish, qabul qilingan qarorlarni ijro etishgacha bo‘lgan harakatlar majmuidan iborat deb ta’riflash mumkin bo‘ladi.

Keltirilgan ilmiy qarashlar va qonunchilik hujjatlari tahlili natijalariga muvofiq, DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarining **o‘ziga xos jihatlari** sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarini qo‘llashning huquqiy asoslarining qonun hujjatlaridan tashqari, DXX ichki idoraviy hujjatlari bilan ham tartibga solinganligi;

DXX Chegara qo‘shinlari mansabdor shaxslari tomonidan ma’muriy

huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishda MJtKning 285-moddasida keltirilgan barcha ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralaridan foydalanilishi;

ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarining, asosan ma’muriy-huquqiy rejimlar (Davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi, Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi rejim) buzilishlari bilan bog‘liq ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etilganida qo‘llanilishi;

qonun hujjatlari bilan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralarini qo‘llovchi DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilarining doirasi aniq belgilanmaganligi;

DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritishni ta’minlash choralari sifatida ma’muriy ushlab turishning 10 sutkagacha bo‘lgan muddatga qadar belgilanganligi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, DXX Chegara qo‘shinlari harbiy xizmatchilari tomonidan ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyatida ma’muriy-huquqiy normalarni to‘g‘ri qo‘llash, aniqlangan huquqbuzarliklarni to‘liq, asosli va to‘laqonli ravishda ko‘rib chiqilishini ta’minlash hamda qonun hujjatlariga muvofiq shaxslarning bu boradagi harakatlarini huquqbuzarliklar sifatida to‘liq malakalash qobiliyatini shakllantirish maqsadida, “Davlat chegarasi”, “Davlat chegarasini qo‘riqlash”, “Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar”, “DXX Chegara qo‘shinlarining ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish faoliyati” kabi tushunchalarning kelgusida amaliyotda qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida, Davlat chegarasini qo‘riqlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarda aks ettirilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ma’muriy huquq: Darslik / H.T. Odilqoriyev, I. Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. H.T. Odilqoriyev va B.E. Qosimovning umumiy tahriri ostida.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B. 349.

2. *Алимов Х.Р., Махмудов А.А., Исмоилов Н.Т.* Маъмурий ҳуқуқ: Дарслик / Масъул муҳаррир проф. У. Таджиханов. – Т.: ЎзР ИИВ Академияси, 2002. – Б. 133.

3. Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси – Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 йил, 3-сон, 6-модда.

4. Закон Российской Федерации от 1 апреля 1993 г. № 4730-I «О Государственной границе Российской Федерации» (с изменениями и дополнениями)/ Электрон манба: http://pravo.gov.ru

5. Закон Республики Казахстан «О Государственной границе Республики Казахстан» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 31.03.2021 г.) // Электрон манба: https://online.zakon.kz/

6. Закон Республики Беларусь от 21 июля 2008 г. № 419-З «О Государственной границе Республики Беларусь» // Электрон манба: https://online.zakon.kz/

7. “Ўзбекистон Республикасининг Давлат чегараси тўғрисида”ги 2023 йил 13 сентябрдаги ЎРҚ–868-сон Қонуни // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz),2023 йил 13 сентябрь

8. Ma’muriy huquq: Darslik / H.T. Odilqoriyev, I. Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. H.T. Odilqoriyev va B.E. Qosimovning umumiy tahriri ostida.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B. 345.

9. Ma’muriy huquq: Darslik / H.T. Odilqoriyev, I. Ismailov, N.T. Ismailov va boshq.; prof. H.T. Odilqoriyev va B.E. Qosimovning umumiy tahriri ostida.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B. 347.

10. *Гапон Ю.П.* Меры обеспечения производства по делам об административных правонарушениях, применяемые должностными лицами подразделений пограничного контроля пограничных органов. афторефер. дисс. Челябинск, 2015. ст. 9.

11. Кеверков Д.Р. Правовые основы производства по делам об административных правонарушениях в пограничных органах и пограничных войсках Федеральной службы безопасности Российской Федерации. афторефер дисс. Москва, 2004 г., ст. 10.

Xolbo'tayev A.A. Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar tushunchasi

Maqolada Davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar tushunchasi, turlari va o'ziga xos xususiyatlari, DXX Chegara qo'shinlari mansabdor shaxslari tomonidan mazkur turdagi ma'muriy huquqbuzarliklar yuzasidan ko'riladigan jazo choralari, DXX Chegara qo'shinlarining ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish faoliyatining mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: davlat chegarasi, davlat chegarasini qo'riqlash, davlat chegarasi rejimi, chegara rejimi, davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejim, davlat chegarasini qo'riqlash sohasidagi ma'muriy huquqbuzarliklar.

Холбутаев А.А. Понятия административные правонарушения в области охраны государственной границы

В статье раскрыты понятие, виды и особенности административные правонарушения в области охраны Государственной границы, меры наказания, применяемые должностными лицами Пограничных войск СГБ в данных видах правонарушениях, сущность деятельности Пограничных войск СГБ по производству дел об административных правонарушениях.

Ключевые слова: государственная граница, охрана государственной границы, режим государственной границы, пограничный режим, режим пунктах пропуска через государственную границу, административные правонарушения в области охраны государственной границы.

Kholbutayev A.A. Concepts of administrative offense in the field of state border protection

The article reveals the concept, types and features of administrative offenses in the field of protecting the State Border, the penalties applied by officials of the State Security Service Border Troops in these types of offenses, the essence of the activities of the State Security Service Border Troops in handling cases of administrative offenses.

Key words: state border, protection of the state border, regime of the state border, border regime, regime of checkpoints across the state border, administrative offenses in the field of protection of the state border.

Zokirov Botirjon Pulatxujayevich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

XORIJIY DAVLATLARNING JINOIY AKTIVLARNI QAYTARISH BO‘YICHA IJOBIY TAJRIBALARI (QOZOG‘ISTON MISOLIDA)

Ayni vaqtda dunyoning barcha davlatlarida, shu jumladan, mamlakatimizda ham noqonuniy aktivlarni davlatga qaytarish mexanizmlarini va ushbu protsessual jarayonlarni takomillashtirish bo‘yicha samaradorlikni oshirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu borada ijobiy xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish ushbu sohadagi ko‘plab muammolarni hal etishga yordam beradi.

2023-yil 12-iyul kuni Qozog‘istonda “Noqonuniy orttirilgan aktivlarni davlatga qaytarish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi[1]. Qonun har qanday davlat hududida, ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi. Agar ushbu subyektlar Qozog‘istonda noqonuniy orttirilgan aktivlarga egalik qilsalar, foydalansalar yoki nazorat qilsalar, bunday shaxslar ushbu qonunning ta’sir doirasida tushishi mumkin. Qonun, shuningdek, noqonuniy aktivlarga egalik qiluvchi shaxslar bilan affillangan munosabatdagilar yoki ularning qarindoshlariga nisbatan ham qo‘llaniladi.

Oldin mavjud bo‘lgan holatdan farqli ravishda ushbu qonunni ishlab chiqilish jarayonida mualliflar tomonidan qonun nazoratga olishi kerak bo‘lgan shaxslar doirasini imkon qadar oshirishga harakat qilishgan va shu sababli bir qancha samaradorlikka erishilgan. Masalan, ilgari bu kabi holatlarda gumon qilinib, jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar o‘z mol-mulklarini yashirishlari yoki affillangan shaxslarga qayta ro‘yxatdan o‘tkazishlari mumkin edi, bu esa ularning aktivlariga nisbatan vujudga kelishi mumkin bo‘lgan xavflardan saqlanish imkonini berar edi. Biroq, endi ushbu qonun qarindoshlari, turmush o‘rtog‘i, huquqiy vorislar va boshqa shaxslarni ham nazorat qilish imkonini beradi.

Qanday turdagi aktivlar va daromadlar aktivlarni qaytarish to‘g‘risida qonun bilan tartibga solinadi. Agar umumiy miqdori oylik hisoblash indeksidan 13 mln. baravar ko‘p bo‘lgan shaxsning aktivlari haqida asosli shubhalar paydo bo‘lsa, bunday shaxs haqidagi ma’lumotlar aktivlarni qaytarish reyestriga kiritilgan. Reyestrga kiritilgandan so‘ng, shaxs sudda aktivlarning kelib chiqishi qonuniyligini isbotlashi kerak. Agar shaxs sudda o‘z aktivlarining kelib chiqishi qonuniyligini isbotlay olmagan bo‘lsa, ushbu aktivlarning kelib chiqishi noma’lum deb topilib, davlatga qaytariladi.

Qonun amal qilish doirasi bo‘yicha o‘zida keng ko‘lamli holatlarni aks ettirgan. Masalan:

- shaxs mas’uliyatli davlat lavozimini egallab turgan vaqtida, aktivlarni orttirgan bo‘lsa;
- kelishuvlarga asosan shaxs bu kabi aktivlarga egalik qilsa, foydalansa yoki tasarruf etsa;
- shaxs egallab turgan mavqeyi yoki aloqalar yordamida aktivlarni orttirgan bo‘lsa;
- aktivlar sobiq turmush o‘rtog‘i, qarindoshlari, qaramog‘idagi shaxslar yoki boshqa affillangan shaxslar egaligida bo‘lsa.

Qonunda e’tiborga molik bo‘lgan jihatlar shundan iboratki, komissiya ushbu hujjatda ko‘rsatilmagan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarni ham affillangan shaxslar sifatida tan olishi mumkin. Shuningdek, qonun normalari merosxo‘rlar va huquqiy vorislarga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin.

Aktivlarni qaytarish reyestri. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, reyestr qonunning ijobiy jihatlarini tasdiqlovchi yangi institutdir. Ushbu reyestrga

aktivlarning kelib chiqishi noqonuniyligi haqida asosli shubhalar mavjud bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi[2].

Agarda asosli holatlar tufayli muddat uzaytirilmasa, bu kabi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar reyestrdagi bir yil davomida saqlanadi. Reyestrdagi ma'lumotlarni saqlash muddatlari aktivlarni qaytarish bo'yicha olib borilayotgan say-harakatlar munosabati bilan chet eldagi sudlar yoki hakamlik sudlarida muhokama etilayotganligi yoki shu kabi huquqiy protsesslarda aktivlarni tekshirish jarayonlari davom etayotganligi sababli uzaytirilishi mumkin.

Subyektlar reyestrga kiritilgandan so'ng, 1 oydan 3 oygacha bo'lgan muddatlarda aktivlari haqidagi to'liq ma'lumotlarni taqdim etadilar. Vakolatli organ tomonidan deklaratsiyalar 6 oy davomida ko'rib chiqiladi.

Deklaratsiyani tahlil qilish natijalari bo'yicha yakuniy qaror komissiyaning tavsiyalarini hisobga olgan holda qabul qilinadi. Unda shaxsni reyestrdan chiqarib tashlash, aktivlarni ixtiyoriy ravishda qaytarish to'g'risida shartnoma tuzish, aktivlarni davlat daromadiga o'tkazish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilinishi mumkin yoki deklaratsiya qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

E'tiborli jihati shundaki, vakolatli organ ma'lumotlarni reyestrga kiritishdan oldin monitoring o'tkazib, tahlil etadi. Monitoring natijalari huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kelgusida tekshirishlar o'tkazishga asos bo'ladi.

Reyestrga kiritilgan shaxslarning huquqiy maqomi. Yuqorida ta'kidlanganidek, reyestrga kelib chiqishi noqonuniyligi haqida asosli shubhalar mavjud aktivlarga egalik qiluvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. Masalan, shaxsga tegishli bo'lgan aktivlarning qiymati davlat lavozimidagi qonuniy daromadiga muvofiq bo'lmasa yoki shaxsning daromadi oylik hisoblash indeksidan 13 mln. baravar ko'p bo'lgan holatlarda. Ahamiyatli jihati shuki, shaxs davlat xizmatidagi mas'ul lavozimni tark etganidan keyin ham ushbu qonun ta'sir doirasiga tushishi mumkin.

Asosli shubhalar subyekt tomonidan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay raqobatbardosh bo'lmagan sharoitlar mavjud bo'lganda ham vujudga kelishi mumkin, shu jumladan quyidagi shartlar mavjud bo'lganda:

- soliq va boshqa imtiyozlar hamda preferensiyalar olishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash holatlarida ;
- davlat-xususiy sherikchilik loyihalarida ishtirok etishda;
- kredit resurslaridan foydalanishdagi sun'iy imkoniyatlar mavjud bo'lganda;
- davlat xaridlariga erkin kirish imkoniyati, shuningdek, kvazi-davlat subyektlaridan xaridni amalga oshirishda yoki bitimlar bozor iqtisodiyotidan tashqari sharoitlarda iqtisodiyot uchun samarasiz hollarda tuzilgan bo'lsa va boshqa holatlarda.

Asosli shubhalarning vujudga kelish sabablari ro'yxati qat'iy emas, ya'ni boshqa sabablar ham asos bo'lishi mumkin. Shaxs reyestriga kiritilganidan so'ng, uning mulkka taqiq qo'yishi mumkin. Taqiq qo'yilganidan so'ng, shartnomalar tuzish, aktivlar realizatsiyasi, aksiyalarga ovoz berish, dividendlar olish va to'lov qilish, likvidlik holatida aktivlarni tarqatish va boshqalar mumkin emas. Bunday choralar xorijiy davlatlardagi aktivlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Reyestrga kiritish sud qarori yoki sanksiyasini talab qilinmaydi. Muqaddam qonunchilik har qanday huquqlarni cheklashda asos sifatida sud yoki prokurorning sanksiyasini talab qilgan. Garchi reyestrga kiritish mulkdorlarning huquqlarini bevosita cheklamasa ham, bunday cheklashning oqibatlari aniq, ya'ni shaxs tekshirish doirasida ma'lum majburiyatlarni bajaradi, shuningdek, sudda aktivlarning kelib chiqish manbalarini qonuniyligini isbotlashi shart. Ya'ni shaxs aybdor emasligini isbotlashga majbur.

Qozog'iston qonunchiligi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan yuridik shaxslar ham reyestrga kiritilishi mumkin hamda qonun vakolatli organga ularga nisbatan tekshirishlarni amalga oshirish va kelgusida, ularning aktivlarini davlatga

qaytarish bo‘yicha choralarni amalga oshirish vakolatini beradi.

Yangi instituti - Aktivlarni qaytarish bo‘yicha komissiyasi. Qonun bilan yangi davlat organi - noqonuniy orttirilgan aktivlarni qaytarish bo‘yicha komissiya joriy etildi[3]. Komissiyani Bosh vazir boshqaradi va uning tarkibi parlament a’zolari, jamoat arboblari, hukumat a’zolari va davlat organlarining birinchi rahbarlaridan iborat. Shunday qilib, huquqbuzarliklarga qarshi kurashda nafaqat huquqni muhofaza qilish idoralari vakillari, balki ilgari huquqbuzarliklar to‘g‘risida qaror qabul qilishdan uzoq bo‘lgan jamiyat vakillari, saylangan xalq vakillari ham ishtirok etadilar. Bundan tashqari, Bosh prokuratura huzurida aktivlarni qaytarish bo‘yicha vakolatli organ - yangi qo‘mita ham tashkil etildi[4].

Ushbu qonun butun jamiyat rivojiga turtki beradi. Masalan, deputatlar va jamoat arboblari xalqning saylangan vakillari sifatida to‘plangan amaliy tajriba asosida o‘z navbatida jamiyatning to‘g‘ri ijtimoiy qadriyatlarini shakllantirish, ya’ni noqonuniy aktivlarga nisbatan murosasizlik hissini shakllantirilishini kuchaytiradilar.

Qonunning tatbiq etilishi. Qonun maksimal darajada samarali ishlashi uchun huquqni muhofaza qilish tizimi yetarlicha shakllanganlik darajasida bo‘lishi lozim. Reyestrga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun asoslardan biri, yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, vakolatli organ xodimida asosli shubhalar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish imkoniyati hamda bu kabi ma’lumotlarni olish hamda rasmiylashtirish bo‘yicha operativ va protsessual malakalar bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, qonunda sanab o‘tilgan reyestrga kiritish shartlari chegaralangan emas, ya’ni uni qo‘llash holatlari ma’lum darajada kengdir. Ushbu jarayonlarda qonunni qo‘llovchi vakolatli organ xodimlarining huquqiy ongi va professionalligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Aktivlarni davlat daromadiga majburiy qaytarish uchun sabab ularning kelib chiqish manbalarini asossiz deb topilgan sud qarori ekanligi sababli, sudda qarorni to‘g‘ri qo‘llashning asosiy elementi hisoblanadi. Reyestridan chiqarish uchun aktivlarga egalik qiluvchilar ularning kelib chiqish manbalarini qonuniyligini isbotlashga majbur. Mazkur vaziyat sudlarga ish materiallari va holatlarini har tomonlama to‘liq o‘rganishda katta mas’uliyat yuklaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yangi qonun ko‘plab jismoniy va yuridik shaxslarga, shu jumladan aktivlari shubhali bo‘lmagan subyektlarga ham ta’sir qilishi mumkin. Garchi qonun aktivlarga vijdonli egalik qiluvchilarning huquqlarini himoya qilish tamoyillariga asoslangan bo‘lsa-da, asosiy maqsadi noqonuniy aktivlarni qaytarish va oqilona tatbiq etishga qaratilgan. Zero, qonunning oqilona tatbiq etilishi mamlakatdagi shaffof investitsiyaviy jozibadorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi[5]. Shu sababli qonunda aktivlarga nisbatan “asosli shubhalar” va “kelib chiqishi asoslanmagan aktivlar” kabi terminlar joriy etilgan.

Qonunchilikdagi ushbu ijobiy jihatlar aktivlarga insofli egalik qiluvchilarni reyestrga turli asoslar bilan kiritilishi oldini olish maqsadida, o‘z tashabbuslari bilan deklaratsiyalarni taqdim etib borishlari hamda tashkilotlarda turli noqonuniy holatlarni kelib chiqishini barvaqt bartaraf etish uchun komplayens tizimini yanada kengroq qo‘llanishini joriy etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Закон республики казахстан о возврате государству незаконно приобретенных активов/ https:// online.zakon.kz/ Document;
2. https://kapital.kz/economic/120035/;
3. https://tengrinews.kz/kazakhstan_news/;
4. https://www.gov.kz/memleket/entities/komissiya?lang=ru;
5. https://primeminister.kz/ru/news/novyy-zakon-rk-o-vozvrateaktivov.

Zokirov B.P. Xorijiy davlatlarning jinoiy aktivlarni qaytarish bo'yicha ijobiy tajribalari (Qozog'iston misolida)

Maqolada jinoiy aktivlarni qaytarish yuzasidan Qozog'istonning ijobiy tajribasi keltirilib, bu borada qonunchilikdagi yangiliklar, protsessual jarayonlarni olib borishdagi yangi mexanizmlar, vakolatli davlat idoralarining yangi imkoniyatlari, yangi davlat organlari xususida fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: jinoiy aktiv, vakolatli idoralar, protsessual mexanizm, "asosli shubhalar" va "kelib chiqishi asoslanmagan aktivlar", reyestr, komissiya.

Зокиров Б.П. Передовой опыт зарубежных стран по возвращению преступных активов (на примере Казахстана)

В статье приводился положительный опыт Казахстана по возвращению преступных активов и освещались новости в законодательстве, новые механизмы в проведении процессуальных процессов, возможности уполномоченных государственных органов, а также мнения о новых государственных органах.

Ключевые слова: преступный актив, компетентные органы иностранных государств, процессуальный механизм, реестр, комиссия, «разумные сомнения», «активы необъяснимого происхождения».

Zokirov B.P. Organizational and legal problems in the return of criminal assets from abroad and ways to solve them (In the example of Kazakhstan)

The article describes the positive experience of Kazakhstan in the return of criminal assets and covered news in legislation, new mechanisms in conducting procedural processes, the capabilities of authorized government bodies, as well as opinions on new government bodies.

Key words: criminal asset, competent authorities of foreign states, procedural mechanism, register, commission, "reasonable doubts", "assets of unexplained origin".

Nazarova Laylo Geldimurodovna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

JINOYAT ISHINI SUDGA QADAR YURITISHDA MOL-MULKNI XATLASH PROTSESSUAL HARAKATINI TAKOMILLASHTIRISH

Mulk huquqi obyektiv ma’noda murakkab (sohalararo) institut bo‘lib, bir qancha huquq sohalari, jumladan konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma’muriy, jinoyat hamda jinoyat-protsessual va yana boshqa huquq normalarini o‘zida birlashtiradi. Mazkur huquq instituti mulkning muayyan shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatuvchi umumiy prinsiplarni yaratuvchi qoidalarni o‘zi ichiga oladi va aniq bir shaxsning moddiy mulkini himoya qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 164-moddasiga muvofiq, mulk huquqi shaxsning o‘ziga qarashli mol-mulkka o‘z xohishi bilan va o‘z manfaatlarini ko‘zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish, shuningdek o‘zining mulk huquqini, kim tomonidan bo‘lmasin, har qanday buzishni bartaraf etishni talab qilish huquqidan iboratdir. Demak, mulk huquqining mazmuni mulkdorning o‘z mulkiga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf et olish imkoniyatining mavjudligida ko‘rinadi. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida ham hech kim o‘zboshimchalik bilan mulkidan mahrum qilinishi mumkin emasligi belgilangan (17-modda) [1]. Bundan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, insonning mulk huquqi xalqaro darajada kafolatlangan.

Jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida fuqarolarning o‘z mulklariga nisbatan yuqoridagi egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari cheklanishi mumkin. Bunday cheklash asoslari qonunda belgilangan bo‘lib, ulardan har qanday chekinish yoki o‘zboshimchalik bilan shaxsning mulk daxlsizligini buzish javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shulardan kelib chiqib, mulk daxlsizligining bir qator belgilarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

birinchidan, mulk huquqi daxlsizligi mulkning himoyalanish imkoniyati hisoblanadi;

ikkinchidan, shaxsning mulk huquqini cheklash va undan mahrum qilish faqat qonunda belgilangan hollardagina amalga oshiriladi.

Mulk daxlsizligi asosan fuqarolik qonunchiligida tadqiq etiladigan masala bo‘lib, jinoyat protsessida esa uning jinoyat ishi bilan bog‘liq jihatlari o‘rganiladi, xolos. Yuridik fanda mazkur tushuncha bir qator ma’nolarni anglatadi va boshqalar tomonidan bo‘ladigan har qanday tajovuzlardan saqlanish ma’nosida ham ishlatiladi. Fuqarolik kodeksining 166-moddasida mulkning daxlsizligi mulkdorga qarshi turgan barcha subyektlarning mulk huquqini buzishdan o‘zlarini saqlashlaridan iborat ekanligi ko‘rsatilgan. Boshqa normativ hujjatlarda esa ushbu tushunchaga ta’rif yoki boshqacha tushuntirish berilmagan. Jinoyat-protsessual qonunchiligida mulk daxlsizligining alohida prinsip sifatida belgilanishi demokratik jamiyatga xos bo‘lgan qoida sanaladi.

Jinoyat ishlarini yuritishda mulk daxlsizligini kafolatlash masalasi olimlar tomonidan doimiy ravishda o‘rganilib kelingan. Xususan, I.Zokirov va M.Baratovlarning fikricha, mulkning daxlsizligi mulkdorning konstitutsiyaviy huquqidir. Unga tashqi tomondan tazyiq o‘tkazish mumkin emas [2]. A.N.Bandurka, YE.N.Blajivskiylarga ko‘ra, jinoyat ishlari yurituvida shaxsning mulk huquqi cheklanishiga tashqi omil sabab bo‘ladi va u mulkdorning o‘ziga tegishli bo‘lgan mulkka nisbatan o‘zi xohishiga ko‘ra yuridik xatti-harakatlarni amalga oshira olmasligida namoyon bo‘ladi [3]. Mulk daxlsizligi yuzasidan o‘xshash fikrlarni T.Suprun, T.Yatsik, V.Shkabeleilar ham bildirib o‘tishgan [4]. Shunday fikrni Y.M.Grusheva, A.V.Kaplina, O.G.Shilolar jinoyat protsessida

mulk daxlsizligi faqat jamoat manfaatlari yuzasidangina cheklanishi kerak va bu jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalarini amalga oshirish uchun zarur, degan fikrni bildirishgan [5]. Bulardan xulosa qilish mumkinki, jinoyat ishlari yurituvida mulk huquqining cheklanishi aniq bir shaxsning o‘z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish bilan bog‘liq huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi tashqi ta’sir natijasi bo‘lib, mulkdorga bir qator yuridik xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki ularni bajarishdan tiyilish majburiyatini yuklaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jinoyat ishlari yurituvida ishtirokchilar rioya qilish shart bo‘lgan prinsiplar qatoriga quyidagi mazmundagi mulk daxlsizligini kafolatlovchi yangi prinsip kiritish taklif etiladi:

Mulk daxlsizligi qonun bilan kafolatlanadi. Jinoyat ishlari yurituvida hech kim ushbu kodeksda nazarda tutilmagan tartibda mulk huquqidan mahrum qilinishi yoki bu huquq boshqacha tartibda cheklanishi mumkin emas.

Mulkiy huquqlarga rioya qilinishini ta’minlash surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning majburiyati hisoblanadi.

Shaxslarning mulkiga zarurat bo‘lmagan holda shikast yetkazish yoki ularning asossiz ravishda yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladigan protsessual harakatlarni bajarish taqiqlanadi.

Mazkur qoidaning prinsip sifatida jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilanishi bir qator institutlarning mulkdor, mulk egasi foydasiga qayta ko‘rib chiqilishiga olib keladi: mol-mulkni xatlash va boshqa mulkiy undirishning sud qarori asosida o‘tkazilishi va fuqarolarga tegishli mulkni musodara qilishning alohida tartibi belgilanadi, mol-mulkni olib qo‘yish va uni xatlash institutlari qisman birlashadi.

Jinoyat protsessida mulk bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar faqatgina fuqaroviy da’vo va protsessual chiqimlarni o‘z ichiga oluvchi boshqa moddiy sarf-xarajatlardan iborat emas, jinoyat ishini yuritish davomida kelib chiqadigan mol-mulkni xatlash, ashyoviy dalil bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsa-buyumlarni olib qo‘yish, garov tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash uchun amalga oshiriladigan protsessual harakatlarni o‘tkazishda ham vujudga keladi. Ular orasida bugungi kunda eng dolzarb masala – jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash, undan jabr ko‘rgan shaxslarning buzilgan mulkiy huquqlarini tiklash hisoblanadi. Ular orasida jinoyat ishini yuritishga mas’ul shaxsning qonunga xilof xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zararni undirish o‘z yechimini topishni kutayotgan muammolardan biridir. Bunda zarar deganda jinoyat yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi sodir etilishi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarning huquq va manfaatlariga yetkazilgan haqiqiy zarar va boy berilgan foyda tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2016 yil 27 dekabrdagi 26-sonli «Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida»gi qaroriga ko‘ra zarar deganda, quyidagilar tushuniladi:

huquqi buzilgan shaxs o‘zining buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar);

shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) [6]. Demak, jinoyat protsessida jabrlanuvchi, fuqaroviy da’vogar nafaqat yetkazilgan haqiqiy zararni, balki boy berilgan foydani ham undirishlari mumkin. Chunki, O‘zbekiston Respublikasi FK 985-moddasining birinchi qismida g‘ayriqonuniy harakat (harakatsizlik) tufayli fuqaroning shaxsiga yoki mol-mulkiga, shuningdek yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, jumladan, boy berilgan foyda zarar yetkazgan shaxs tomonidan to‘liq hajmda qoplanishi kerakligi ko‘rsatilgan. Lekin, JPKning 275-moddasida belgilangan da’vo predmetlari qatorida boy berilgan foyda nazarda tutilmagan. Tergov amaliyotida boy berilgan foydani undirish bilan bog‘liq muammolar asosan uni isbotlash

jarayonining murakkab ekanligidan kelib chiqadi [7]. Shuning uchun zararning aynan mazkur turini undirish fuqaroviy da'vogar uchun har doim ham muvaffaqiyatli natija bilan tugamaydi.

Sudga qadar jinoyat ishini yuritishda shaxsning mulkiy huquqlarini cheklovchi usullardan yana biri – bu jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan jinoyat-protsessual vositalar hisoblanadi. Jinoyat ishi doirasida berilgan fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish va hal etish, tergov organlari tomonidan zarar qoplanishi choralarini ko'rish, jinoiy tajovuz obyektlarini jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarga qaytarish kabilar jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan jinoyat-protsessual vositalar hisoblanadi. Aynan ushbu vositalardan bir jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi JPKning 276-moddasiga muvofiq, jinoyat tufayli yoki aqli noraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida o'zini mulkiy ziyon ko'rgan deb hisoblovchi shaxs yoxud uning vakili jinoyat ishi qo'zg'atilgan paytdan boshlab to sud tergovi boshlangunga qadar fuqaroviy da'vo qo'zg'atishga haqlidir. Lekin, amaldagi tartib har doim ham jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashga imkon bermasligi mumkin. Masalan, T.Tillayevga ko'ra, qidiruvdagi shaxslarni javobgarlikka tortishning imkoni bo'lmaydi. Bu esa ish bo'yicha moddiy zarar ko'rgan shaxslarga zararni qoplash masalasining hal etilmasdan ochiq qolishiga olib keladi [8]. A.Nishonov esa o'z tadqiqotida huquqbuzarning to'lovga moddiy imkoniyati mavjud bo'lmagan hollarda ham jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogarga yetkazilgan zarar qoplanmasdan qolishiga olib kelishini ko'rsatib o'tgan [9]. Ular jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish maqsadida ularga yetkazilgan moddiy zararni kompensatsiya qilish tizimini joriy etish va uni davlat o'z zimmasiga olishi kerakligini ta'kidlashgan.

Bir qator olimlar shaxsga mulkiy zarar yetkazilishida davlatning aybi mavjudligi, ya'ni o'z fuqarolarining mulkiy huquqlarini yetarli darajada himoya qila olmaganligi bilan izohlashadi. Ularga ko'ra, shaxs o'zining buzilgan huquqlari tiklab berilishini davlatdan talab qilishga haqli va uni jinoyat-protsessual vositalardan foydalangan holda ta'minlash davlatning majburiyati hisoblanadi [10]. Davlat esa o'z majburiyatini his qilgan holda fuqarolarining mulkiy huquqlarini kompensatsiyalash orqali bo'lsa ham to'liq kafolatlashni zimmasiga olishi zarur. Xalqaro huquqda sodir etilgan jinoyatdan jabr ko'rgan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning buzilgan huquqlarini tiklash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, BMTning **"Jinoyatlar va hokimiyatni suiiste'mol qilish jabrdiydalari uchun odil sudlovning asosiy prinsiplari Deklaratsiyasi**"da [11] qonunbuzar yoki xulq-atvori uchun javobgar bo'lgan uchinchi shaxslar jinoyatdan jabr ko'rganlarga yetkazilgan zararni qoplab berishlari kerakligi belgilangan. Buning mol-mulkni qaytarish, yetkazilgan zarar uchun to'lov qilish kabi mexanizmlar ham Deklaratsiyada nazarda tutilgan. Mazkur jarayonda davlat va qonunlar jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanishining kafolati hisoblanadi. Jinoyat ishlari yurituvida esa davlat (tergov va sud) organlari jinoyat natijasida yetkazilgan zararni undirish choralarini ko'radilar.

Tergov amaliyotida shaxsga yetkazilgan zarar qoplanmasdan, uning o'ziga yetkazilagan moddiy zararni undirish huquqi ta'minlanmayotgan holatlar talaygina. Masalan, JPKning 285-moddasida jinoyat narsasi bo'lgan mulk gumon qilinuvchi, ayblanuvchida emas boshqa uchinchi shaxslarda topilsa u olib qo'yilgan bo'lsa, mol-mulkni insofli egallovchiga bu mol-mulk egasiga qaytarilishi natijasida yetkazilgan ziyonni undirish haqida mahkumga nisbatan fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqi tushuntiriladi. Ushbu norma mazmunidan anglashiladiki, mazkur uchinchi shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish majburiyatini davlat o'z zimmmasiga olmayapti. Natijasida huquqni qo'llash amaliyotida ushbu toifa shaxslar o'zlariga yetkazilgan moddiy zararni

undira olmayapti. Bizningcha, yuqoridagi olimlar ta'kidlaganidek, ularga yetkazilgan moddiy zarar shakllantiriladigan maxsus fond hisobidan qoplab berilishi va davlat regress tartibida jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslardan zararni undirib olish mexanizmini joriy etish kerak.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoat tashkilotlari, diniy tashkilotlar, fuqarolarning oilaviy va o'zga birlashmalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish idoralari, boshqa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlarning yuridik shaxslari va fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulkiy huquq subyektlaridir [12]. Mulk huquqi subyektlari sifatida har qanday shaxs ham jismoniy, ham yuridik shaxslar jinoyat-protsessual munosabatlarga kirishadi. Ular mazkur huquqlarini yakka holda yoki boshqalar bilan birgalikda amalga oshirishlari mumkin bo'ladi va har qanday narsa-buyumning mulk toifasiga kirishi uchun asosiy mezon – bu uning moddiy qiymatga ega ekanligi hisoblanadi. Boshqa bir olimlar shaxsning mulk huquqlarini cheklashga asos bo'luvchi holatlar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tgan: a) muayyan ijtimoiy manfaatlarning yuzaga kelganligi; b) mulkiy manfaatlar to'qnashuvining yuzaga kelishi [13]. Jinoyatlarni tergov qilish jarayonida kelib chiqadigan tahlili shuni ko'rsatadiki, ishtirokchilar quyidagi holatlar yuzaga kelgan taqdirda mulkiy munosabatlarga kirishadi:

- jinoyat sodir etilishi natijasida ularga nisbatan moddiy zarar yetkazilgan bo'lsa;
- protsessual majburlov yoki ehtiyot choralarining qo'llanilishi natijasida ularning o'z mulkiga nisbatan bo'lgan huquqlari cheklanganda;
- boshqa protsessual harakatlar amalga oshirilishi natijasida ular moddiy zarar ko'rgan taqdirda;
- asossiz ravishda jinoyat ishiga jalb etilganligi natijasida moddiy zarar ko'rganligi. Shaxsni fuqaroviy da'vogar deb topishning jinoyat-protsessual mezoni bu tegishli protsessual qarorning surishtiruvchi, tergovchi tomonidan qabul qilinishi hisoblanadi. Shu vaqtdan boshlab shaxs rasman o'ziga yetkazilgan moddiy zararni undirib olish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Jinoyat ishi doirasida mazkur shaxslarning mulkiy huquqlarini cheklash deganda tashqi ta'sir natijasida aniq bir shaxsning o'z mulkiga nisbatan bo'lgan shaxsiy huquqini yetarli darajada amalga oshira olmasligi yoki amalga oshirishida bir qancha qiyinchiliklar kelib chiqishi tushuniladi. Mamlakatimizda shaxsning mulk huquqi qonunda nazarda tutilgan aniq hollarda, masalan konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlari, salomatligi, davlat xavfsizligi va mudofaasini ta'minlash uchun cheklanishi mumkin. V.A.Mikryukov mulkiy huquqlar cheklanishini ikki guruhga ajratgan: umumiy va xususiy [14]. Unga ko'ra umumiy cheklov ko'pchilik yoki jamiyat manfaatlari uchun amalga oshirilsa, ma'lum bir shaxslar doirasi uchun xususiy cheklov o'rnatiladi. Jinoyat ishi doirasida shaxslarning mulk huquqlari cheklanishi ular tomonidan o'z mulkiga nisbatan muayyan xatti-harakatlarni amalga oshira olmasligida ko'rinadi.

Jinoyat ishlari yurituvida mulk huquqi cheklanayotgan shaxslarning o'z mulkiga nisbatan egalik qilish huquqi yo'qolishi mumkin. Bunda shaxs mulkiga nisbatan jismoniy egalik qilish imkonini yo'qotadi: uni qo'riqlay olmaydi va saqlay olmaydi. Buni surishtiruvchi, tergovchi tomonidan o'tkaziladigan olib qo'yish, tintuv kabi tergov harakatlari o'tkazilishi natijasida ashyoviy dalil sifatida jinoyat ishiga qo'shilgan narsa-buyumlar misolida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, amaldagi qonunchiligimizga ko'ra mulkdor o'z mulkidan o'z xohishiga ko'ra foydalanishi mumkin. Lekin, bir qator protsessual harakatlar o'tkazilishi natijasida fuqaroviy javobgar deb topilgan shaxslarning o'z mulklaridan foydalanish huquqi ham noma'lum muddatga yo'qoladi. Ayniqsa, fuqaroviy javobgarga tegishli bank yoki boshqa kredit tashkilotlari hisobraqamlarida saqlanayotgan pul mablag'larining xatlanishi ulardan foydalanish imkonini ham yo'qqa chiqaradi.

Jinoyat ishlari yuritishuvida kelib chiqadigan mulkiy munosabatlar obyekti, ya'ni mol-mulk deganda naqd pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar, banklarda yoki boshqa kredit-moliya tashkilotlari hisobraqamlarida saqlanayotgan naqd bo'lmagan pul mablag'lari, qog'oz ko'rinishida bo'lmagan qimmatli qog'ozlar, elektron pullar, kriptovalyuta, mulkiy huquqlar, shuningdek intellektual faoliyat natijalariga nisbatan huquqlar tushuniladi. BMTning **Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash Konvensiyasi**ning [15] 2-moddasida mulk deganda har qanday ashyo yoki huquqda namoyon bo'ladigan aktivlar, ya'ni moddiy va nomoddiy, ko'char va ko'chmas obyektlar tushuniladi. Shu bilan birga, konvensiya jinoyat ishi doirasida shaxslarning mulk huquqini cheklovchi vositalarga ham tushuntirish berib o'tgan. Unga ko'ra, "xatlash" va "olib qo'yish" mulkning vaqtinchalik topshirilishi, o'zgartirilishi yoki harakatlanishini yoki unga vaqtinchalik egalik qilishni taqiqlaydi, "musodara qilish" esa shaxsni mulk huquqidan mahrum qiladi. Ushbu konvensiyaning 25-moddasida unga a'zo davlatlar jinoyatdan jabr ko'rganlarga tegishli tartibda yordam va himoya ko'rsatishlari kerakligi belgilangan. Buning uchun davlatlar jabrlanuvchilarga kompensatsiya to'lash va yetkazilgan zararini undirib berishning alohida tartibini joriy etishlari zarur.

Shuningdek, **Xalqaro jinoyat sudi Rim statuti**ning 77-moddasida [16] bevosita yoki bilvosita jinoyat sodir etilishi natijasida qo'lga kiritilgan foyda, mulk va boshqa aktivlar musodara qilinishi belgilab qo'yilgan. Sudga qadar bo'lgan davrda jinoyat ishi tugatilgan hollarda shaxslarning ba'zi toifa mulklari musodara qilish orqali yetkazilgan zararni qoplashga yoki davlat foydasiga o'tkaziladi. Mazkur hujjatda jinoyat ishi doirasida ishtirok etuvchi shaxslarning mulk huquqini cheklash emas, ularni bu huquqdan mahrum qilish masalalariga ko'proq e'tibor berilganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zararni qoplab berishning protsessual choralari belgilangan. Bu choralar bir qancha tergov harakatlari, majburlov yoki ehtiyot choralari, shuningdek mol-mulkni xatlash, uni musodara qilish kabi protsessual harakatlarni amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Lekin, ushbu protsessual harakatlarning barchasi jinoyat ishi qo'zg'atilgandan keyingi jarayonlarga tegishli bo'lib, tergovga qadar tekshiruv davomida ishtirokchilarning mulk huquqlarini kafolatlash masalasi qonunchiligimizda tartibga solinmagan, mavjud normalar jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan bo'lib, uning uchun jinoiy hodisa yuz bergan bo'lishi talab etiladi.

Tergovga qadar tekshiruv davomida uning ishtirokchilari huquqiy maqomi ham belgilanmagan. Shuning uchun ularning huquqlari ham nazarda tutilmagan. O'zbekiston Respublikasi JPKning 39^1-moddasida tergovga qadar tekshiruv organlari tavsifi ko'rsatilgan, ular orasida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga mas'ul bo'lgan maxsus organ yoki mansabdor shaxs mavjud emas: tergovga qadar tekshiruv ularga qo'shimcha vazifa sifatida yuklatilgan. Amaldagi qonunchilik jinoyat ishi qo'zg'atilmasdan oldin istisno tariqasida faqat ushlangan shaxsga nisbatan gumon qilinuvchi maqomini bergan, xolos, ya'ni shaxs jinoyat sodir etganlikda gumon qilinib ushlanadi. Mazkur holatda gumon qilinuvchining mulk huquqi unga nisbatan bir necha tergov harakatlarini o'tkazish orqali cheklanishi mumkin. Bundan tashqari, tahlil qilinayotgan masala bilan bog'liq protsessual majburlov yoki ehtiyot choralarini ham amalga oshirish imkoni mavjud emas.

Jinoyat ishi qo'zg'atilmasidan oldin shaxslarning mulkiy huquqlariga aloqadar faqat ikki turdagi protsessual harakatni amalga oshirish mumkin: olib qo'yish va shaxsiy tintuv. Ushbu tergov harakatlarini o'tkazish orqali olib qo'yilgan narsa-buyumlar ashyoviy dalil sifatida e'tirof etiladi va ish materiallariga qo'shib qo'yiladi hamda "Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib

qo‘yish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yo‘q qilib tashlash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnoma”ga [17] asosan saqlanadi. Ashyoviy dalil sifatida e’tirof etilgan dalilar sudning hukmi chiqishi yoki jinoyat ishining tergov, sud muhokamasi davomida tugatilishi bilan egasiga qaytariladi yoki davlat foydasiga o‘tkaziladi yoxud o‘rnatilgan tartibda yo‘q qilinadi.

Jinoyatdan jabr ko‘rgan shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlat siyosati darajasidagi masala bo‘lishi kerak: masalani tartibga soladigan alohida davlat dasturi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Tergov organlari shaxsga yetkazilgan zararni qoplashni o‘zlari uchun huquq deb emas, majburiyat sifatida belgilashlari lozim. Chunki ular asosiy e’tiborlarini jinoyatni ochish va uni fosh etishga yo‘naltiradilar. Fuqaroviy da’vogarlar esa undiruv qaratilishi yoki olib qo‘yilishi kerak bo‘lgan mol-mulklarning yashirilmasligi yoki yo‘q bo‘lib ketmasligidan manfaatdor bo‘ladilar. Surishtiruvchi, tergovchi tomonidan ushbu choralarning o‘z vaqtida ko‘rilishi fuqaroviy javobgarlarning mulkiy huquqlarini cheklash orqali jabrlanuvchilarning o‘zlariga yetkazilgan zararni qoplatish huquqini ta’minlashga xizmat qiladi. Jinoyat sodir etilishi natijasida moddiy zarar ko‘rgan shaxslarni fuqaroviy da’vogar deb topmaslik jinoyat-protsessual qonunchilikning jiddiy buzilishi sifatida belgilanishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml
2. https://huquqburch.uz/uz/hususij-mulk-%D2%B3u%D2%9Bu%D2%9Bi-kafolatlarini-kuchajtirish-zarurati/
3. Кримінальний процесуальний кодекс України. Науково-практичний коментар : у 2 т. Т. 1 / О. М. Бандурка, Є. М. Блажівський, Є. П. Бурдоль та ін. ; за заг. ред. В. Я. Тація, В. П. Пшонки, А. В. Портнова. – Х. : Право, 2013. – 768 с. https://pravo-izdat.com.ua/image/data/Files/154/1-28.pdf
4. https://www.researchgate.net/publication/325664187_GROUNDS_FOR_LIMITING_PROPERTY_RIGHTS_IN_THE_APPLICATION_OF_TEMPORARY_SEIZURE_OF_PROPERTY_IN_CRIMINAL_PROCEEDINGS
5. Кримінальний процес : підручник / Ю. М. Грошевий, В. Я. Тацій, А. Р. ТуманК82 та ін. ; за ред. В. Я. Тація, Ю. М. Грошевого, О. В. Капліної, О. Г. Шило. - Х. : Пр;2013.-824 с. http://kizman-tehn.com.ua/wp-content/uploads/2017/09/Krim-protse-Tatsiy.pdf
6. https://lex.uz/acts/3115385#3115425
7. Мавлонов Т., Сафаров Б. Жиноят натижасида етказилган мулкий зиённи қоплаш билан боғлиқ фуқаровий даъвони кўриш жараёнида процесс иштирокчиларининг ҳуқуқларини таъминлаш //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 5/S. – С. 173-182.
8. Тиллаев, Т. (2017). Опыт зарубежных стран по возмещению вреда, причиненного потерпевшему. *Обзор законодательства Узбекистана*, (1), 67–69. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/13015
9. Нишанов А. Жабрланувчининг хуқуқ ва манфаатларини муҳофаза қилишнинг долзарб масалалари //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 82-87.
10. Большакова Я.С. Гражданский иск как форма реализации права граждан на возмещение причиненного преступлением вреда // МНИЖ. 2020. №7-2 (97). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/grazhdanskiy-isk-kak-forma-realizatsii-prava-grazhdan-na-vozmeschenie-prichinennogo-prestupleniem-vreda
11. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/power.shtml
12. “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги 152-XII-сон Қонун. https://lex.uz/acts/111466
13. https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31623116&mode=p&page=2&pos=12

9;-10#pos=129;-10

14. Микрюков В.А. Содержание ограничений и обременений права собственности. http://www.jurvestnik.psu.ru/index.php/ru/vipusk2122011/9-2010-12-01-13-31-58/-2-12-2011/128-2011-2-16

15. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/orgcrime.shtml

16. https://www.un.org/ru/law/icc/rome_statute(r).pdf

17. https://lex.uz/acts/1724291#1724350

Nazarova L.G. Jinoyat ishini sudga qadar yuritishda mol-mulkni xatlash protsessual harakatini takomillashtirish

Maqolada mulkni xatlash sohasidagi huquqiy munosabatlarning subyekt tarkibi to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqilgan va gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki ularning harakatlari uchun qonuniy javobgar shaxslarning, shuningdek gumonlanuvchi, ayblanuvchi yoki ularning harakatlari uchun qonuniy javobgar bo‘lmagan boshqa shaxslarning mol-mulkini xatlash bo‘yicha protsessual faoliyatni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar yuzasidan muallif fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, jinoyat-protsessual qonunchilikdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xatlash, tergovchi, surishtiruvchi, ayblanuvchi, zarar, mol-mulk, bayonnoma, dalillar, miqdor.

Назарова Л.Г. Совершенствование процессуального акта конфискации имущества по уголовному делу, рассматриваемому в суде

В стате изложен авторский взгляд на правоотношения, возникаюшие при производстве процессуалних действий по наложению ареста на имушество подозреваемого, обвиняемого или лиц, выновних в своих действиях, а также подозреваемого, обвиняемого или лиц, не несуших юридическую ответственность за своих действий. Также, разрабативаются предложения и рекомендации чтобы заполнить существуюшие пробели в уголовно-процессуальном законодателстве.

Ключевые слова: арест на имущество, следователь, дознаватель, обвиняемый, ущерб, имущество, протокол, доказателства, размер.

Nazarova L.G. Improvement of the procedural act of confiscation of property in the criminal case before the court

The article presents the author's view of the legal relations arising in the procedural actions to seize the property of the suspect, the accused or other person, who is guilty of his or her actions, as well as the suspect, the accused or persons who are not legally responsible for his or her actions. Also, proposals and recommendations are being developed in order to fill the existing gaps in the criminal procedure legislation.

Key words: seizure of property, investigator, interrogator, accused, damage, property, protocol, evidence, size.

Юсупов Нодиржон Акбаржонович,
самостоятельный соискатель Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

ОСОБЕННОСТИ СТАДИЙ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРОИЗВОДСТВА СЛУЖЕБНОЙ ПРОВЕРКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

В сфере различных отраслей государственного управления на современном этапе формируется кадровая, образовательная, инно-вационная политика государственной службы. На современном этапе приоритетным направлением административной реформы является повышение эффективности государственного управления.

Как отметил глава государства «...Для того чтобы вывести развитие страны на новый этап, нужно изменить и систему управления, и законодательство, и наше общество. Если мы этого не сделаем, если будем и дальше не замечать очевидные проблемы, то отстанем от жизни и прогресса» [1].

В последние годы реализованы масштабные административные реформы, направленные на создание эффективной системы управления, являющейся важным условием построения Нового Узбекистана [2].

Как отметил отечественный ученый профессор И.Хамедов конечной целью любой административной реформы является компактная, профессиональная, эффективная система государственного управления, способная решать задачи государственной политики и обеспечивать ожидаемые обществом результаты [3].

Необходимо отметить, что система государственного управления - это совокупность институтов, функций, отношений, методов решений и принципов управления общества. Государственное управление как система рассматривается как совокупность взаимосвязанных элементов управления, взаимодействия аппарата управления и общества, социальных отношений [4].

В свою очередь статья 4 Закона Республики Узбекистан «О государственной гражданской службе» определяет **государственная граж-данская служба** — вид государственной службы, представляющий собой профессиональную оплачиваемую деятельность граждан Республики Узбекистан по обеспечению осуществления полномочий государственных органов на должностях государственной гражданской службы [5].

Так, государственным гражданским служащим является гражданин Республики Узбекистан, осуществляющий свою деятельность на должности государственной гражданской службы.

Гражданин Республики Узбекистан приобретает правовой статус государственного гражданского служащего с момента назначения на должность государственной гражданской службы и утрачивает его в связи с прекращением деятельности государственного гражданского служащего.

Дополнительные права, обязанности и ограничения, связанные с правовым статусом государственных гражданских служащих, относящихся к политической группе должностей государственной гражданской службы, определяются отдельным законодательством [6].

Так, в соответствии с законодательством Республики Узбекистан государственный гражданский служащий обязан:

соблюдать Конституцию Республики Узбекистан, законы и иные акты законодательства;

добросовестно выполнять свои служебные обязанности, соблюдать установленные государственным органом правила этического поведения, порядок работы со служебной информацией, а

также иные правила, связанные с прохождением государственной гражданской службы;

соблюдать установленные настоящим Законом ограничения, связанные с прохождением государственной гражданской службы;

не допускать конфликта интересов, быть беспристрастным и объективным;

воздерживаться от действий (бездействия), которые могут привести к подрыву авторитета государственного органа или возникновению сомнений в добросовестности исполнения им своих служебных обязанностей, в том числе от любых форм дискриминации, необъективности или особого расположения к кому-либо при исполнении своих служебных обязанностей;

не использовать свое служебное положение в личных и иных противоправных целях, а также не допускать оказания незаконного влияния на свою служебную деятельность, деятельность государственных органов, их должностных лиц и граждан;

соблюдать требования о защите сведений, составляющих государственные секреты или иную охраняемую законом тайну, а также не разглашать сведения, полученные при исполнении своих служебных обязанностей, в том числе после прекращения деятельности государственного гражданского служащего;

представлять декларацию о доходах и имуществе в сроки и порядке, установленные законом;

обеспечивать сохранность государственной собственности, использовать вверенную ему государственную собственность только в служебных целях;

регулярно совершенствовать свои профессиональные компетенции.

Государственный гражданский служащий может нести и иные обязанности в соответствии с законодательством [7].

Но необходимо отметить, что в практике встречаются случаи нарушения государственным служащим своих обязанностей. Так, несоблюдение государственным гражданским служащим должностной инструкции и Правил этического поведения государственных гражданских служащих, а также ограничений, установленных законодательством Республики Узбекистан является основанием для применения к нему мер дисциплинарных взысканий [8].

Так, служебная проверка (служебное расследование), являясь стадией такого элемента адми-нистративного процесса как дисцип-линарное производство, осуществляется субъектами дисциплинарной власти, обеспечивая решение определенных задач, реализуемых в процессе ее проведения, с учетом процессуальных сроков, ее результатом является принятие управленческих решений, которое выражается в определенной процессуальной форме.

Служебную проверку (расследование) в государственном органе проводится комиссией по проведению служебного расследования, состоящей из представителей кадрового подразделения, юридической службы и других подразделений государственного органа, а также профессионального союза (при наличии). В состав комиссии по проведению служебного расследования не могут входить руководитель государственного органа и лица, заинтересованные в результатах служебного расследования.

Срок проведения служебной проверки (расследования) не должен превышать пятнадцати рабочих дней. На основании обоснованных доводов комиссии по проведению служебного расследования руководитель государственного органа вправе продлить срок его проведения еще до пятнадцати рабочих дней [9]. Необходимо отметить, что любая служебная проверка имеет свои стадии дисциплинарного производства, которые имеют решающее значение при назначении наказаний. К таким относятся: обстоятельства и условия, повлекшие за собой

дисциплинарный проступок; обоснованность или необоснованность выдвинутого обвинения в дисциплинарном проступке государственного гражданского служащего; особенность и размер ущерба, причиненного в результате дисциплинарного проступка; доводы, указанные в объяснениях и письменном требовании государственного гражданского служащего и др.

В науке административного права нет единства мнений ученых повопросу содержания и количества стадий дисциплинарного производства.

Однако большинство ученых, проводя анализ структуры дисцип-линарного производства, констатируют необходимость выделения стадии, в рамках которой осуществляется выяснение обстоятельств дела о дисциплинарном проступке, что является одной из юридических гарантий защиты прав и свобод субъектов, допустивших нарушение служебной дисциплины.

Так, зарубежными учеными приводятся мнения о стадиях служебной проверки Е.В. Климкина выделяет стадию - служебная проверка (расследование) [10]. Д.Н. Бахрах - служебное разбирательство [11]. В.Д. Сорокин - проведение служебной проверки и принятие решения по ее результатам. Вместе с тем, определяя ее правовую природу, следует отметить различные походы. Так, Н.А.Овчинников рассмат-ривает служебную проверку как меру дисциплинарного принуждения [12]; С.Е. Чаннов как совокупность мероприятий, проводимых соответствующими долж-ностными лицами государственного органа [3]; А.В. Сухинин «как комплекс действий должностных лиц, уполномоченных на ее проведение, направленный на полное, всестороннее, объективное исследование обстоятельств, имевших место, с внесением предложений об ответственности виновных либо прекращении проверки за отсутствием признаков нарушения, а также осуществление профилактических мер с устранением причин и условий, им способствующих». Вместе с чем, все ученые едины в том, что этот институт направлен на выяснение всех обстоятельств дела о дисциплинарном проступке и вынесение решения и профилактику последующих дисциплинарных проступков [13].

По результатам служебного расследования составляется акт комиссии по проведению служебного расследования и подготавливается заключение о применении или неприменении мер дисциплинарного взыскания к государственному гражданскому служащему. Заключение комиссии по проведению служебного расследования может быть отклонено руководителем государственного органа или может быть основанием для применения мер дисциплинарного взыскания к государственному гражданскому служащему.

Мы согласны с мнением ученых, так как в соответствии статьи 7 Кодекса Республики Узбекистан об административной ответственности определено, что Государственные органы, органы самоуправления граждан, общественные объединения разрабатывают и осу-ществляют мероприятия, направленные на предупреждение административных правонарушений, выявление и устра-нение причин и условий, способствующих их совершению, на воспитание граждан в духе сознательности, дисциплины, соблюдения Конституции и законов Республики Узбекистан [14].

Так, укрепление дисциплины, искоренение коррупции из сферы государственной службы являются важным элементом административной реформы, проводимой в Республике Узбекистан. Как отметил Президент Республики Узбекистан «Пока в борьбу с коррупцией не будут вовлечены все слои населения, лучшие специалисты, пока все наше общество не будет, образно говоря, привито «вакциной честности», мы не сможем достичь поставленных целей» [15].

Таким образом, институт служебной проверки (расследования) представ-

ляет самостоятельный институт дисциплинарного производства Служебная дисциплина - это и часть (вид) трудовой дисциплины, и один из видов служебной дисциплины, как разновидности трудовой дисциплины, позволяет применять трудовое законодательство для регулирования дисциплинарных отношений. А харак-теристика служебной дисциплины как разновидности государственной дисциплины, позволяет ставить вопрос о специальной регламентации государственно-дисциплинарных отношений, являюшихся к тому же разновидностью государственно-служебных отношений.

Использованная литература

1. Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису и народу Узбекистана 20 декабря 2022 год\\ www.president.uz

2. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по реализации административных реформ Нового Узбеки-стана» от 21 декабря 2022 г., № УП-269

3. Хамедов И.А.Административные реформы: как проводить их правильно 23 февраля 2022

4. Селиманова С.М. Административное право. Учебник. Т.2022 г. С.234

5. Закон Республики Узбекистан “О государственной гражданской службе” от 8 августа 2022 г., № ЗРУ-788 \\ Национальная база данных законодательства, 09.08.2022 г., № 03/22/788/0723

6. Гражданский кодекс Республики Узбекистан \\ Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1996 г., приложение к № 2; 1997 г., № 2, ст. 56; 1998 г., № 5-6, ст. 102, № 1, ст. 20, № 9, ст. 229; 2001 г., № 1-2, ст. 23; 2003 г., № 5, ст. 67; Собрание законодательства Республики Узбекистан, 2004 г., № 25, ст. 287, № 37, ст. 408; 2006 г., № 14, ст. 110, № 39, ст. 385; 2007 г., № 1-2, ст. 3, № 3, ст. 21, № 14, ст. 132, № 15, ст. 154, № 50-51, ст. 506; 2008 г., № 52, ст. 513; 2009 г., № 39, ст. 423; 2010 г., № 37, ст. 315, № 38, ст. 328; 2011 г., № 51, ст. 542; 2014 г., № 20, ст. 222, № 50, ст. 588; 2015 г., № 33, ст. 439; 2016 г., № 17, ст. 173; 2017 г., № 37, ст. 978; Национальная база данных законодательства, 30.12.2017 г., № 03/18/455/0492, 10.01.2018 г., № 03/18/459/0536, 19.04.2018 г., № 03/18/476/1087; 05.03.2019 г., № 03/19/526/2701, 21.03.2019 г., № 03/19/531/2799, 24.05.2019 г., № 03/19/542/317, 23.10.2019 г., № 03/19/572/3943, 04.12.2019 г., № 03/19/586/4106, 12.12.2019 г., № 03/19/592/4144; 15.01.2020 г., № 03/20/602/0052; 23.01.2020 г., № 03/20/603/0071; 12.10.2021 г., № 03/21/721/0952; 30.03.2022 г., № 03/22/760/0249; 21.04.2022 г., № 03/22/765/0332, 30.06.2022 г., № 03/22/782/0576; 08.11.2022 г., № 03/22/801/0998; 25.10.2023 г., № 03/23/871/0797

7 [8]. Закон Республики Узбекистан “О государственной гражданской службе” от 8 августа 2022 г., № ЗРУ-788 \\ Национальная база данных законодательства, 09.08.2022 г., № 03/22/788/0723

9. Закон Республики Узбекистан “О государственной гражданской службе” от 8 августа 2022 г., № ЗРУ-788 \\ Национальная база данных законодательства, 09.08.2022 г., № 03/22/788/0723

10. Климкина Е.В. Административно-правовое регулирование дисциплинарной ответственности государ-ственного гражданского служащего: дис. ...к.ю.н / Е.В. Климкина. - М., 2016. – С. 40.

11. Бахрах Д.Н. Административное право / Д.Н. Бахрах. – М., 2000. – С. 589.

12. Овчинников Н.А. Служебная проверка как способ обеспечения законности и дисциплины в деятельно-сти сотрудников органов внутренних дел / Н.А. Овчинников // Административное и муниципальное право. – 2021. – № 2. – С. 52–56.

13. Пресняков М.В. Дисциплинарная ответственность гражданских служащих:

проблемы нормативной определенности и справедливой дифференциации / М.В. Пресняков, С.Е. Чаннов // Трудовое право. – 2009. – № № 8, 9.

14. Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности\\ Ведомости Верховного Совета Республики Узбекистан, 1995 г., № 3; Ведомости Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 1995 г., № 9, ст. 193

15. Мирзиёев Ш.М. «Борьба с коррупцией – дело всего общества» 24 января 2021 г.// www.president.uz

Юсупов Н.А. Особенности стадий административно-правового регулирования производства служебной проверки в Республике Узбекистан

В статье рассматриваются на онове изучения национального законодательства и мнений отечественных и зарубежных ученых особенности стадий административно-правового регулирования производства служебной проверки.

Ключевые слова: государственная служба, кадровая политика, администратитвная реформа, служебная проверка, стадии производства служебной проверки.

Yusupov N.A. O‘zbekiston Respublikasida ichki audit ishlab chiqarishni ma'muriy-huquqiy tartibga solish bosqichlarining xususiyatlari

Maqolada milliy qonunchilikni o‘rganish hamda mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari asosida ichki audit ishlab chiqarishni ma'muriy-huquqiy tartibga solish bosqichlarining xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: davlat xizmati, kadrlar siyosati, ma'muriy islohot, ichki audit, ichki audit bosqichlari.

Yusupov N.A. Features of the stages of administrative and legal regulation of the production of internal audits in the Republic of Uzbekistan

The article discusses, based on the study of national legislation and the opinions of domestic and foreign scientists, the features of the stages of administrative and legal regulation of the production of internal audits.

Key words: civil service, personnel policy, administrative reform, internal audit, stages of internal audit.

Usmonov Bekzod Absalomovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

FIRIBGARLIK JINOYATLARI NATIJASIDA YETKAZILGAN ZARARNI QOPLASHNING PROTSESSUAL TARTIBI

Hozirgi kunda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirish fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquq va erkinliklarining poymol bo‘lishining oldini olish kabi vazifalar bugungi kundagi davlat dasturining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Konstitutsiyamizning 54-moddasiga muvofiq mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi faqat shu mulkning egasiga taalluqli. Shuning uchun mulkiy huquqni amalga oshirishga har qanday noqonuniy aralashish ushbu huquqning jiddiy buzilishiga sabab bo‘ladi va jinoiy javobgarlikni taqozo etadi.

Qabul qilingan qonunlar bilan firibgarlik jinoyatlari uchun jazoning sodir qilingan jinoyatga mutanosibligini ta’minlashga, bunday qilmishlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi oshirildi. Jumladan, firibgarlik jinoyatini sodir qilganlik uchun maksimal jazo muddati kuchaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 168-moddasiga muvofiq, firibgarlik, ya’ni aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquqni qo‘lga kiritish uch yilgacha, ancha miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo‘lsa uch yildan besh yilgacha, ko‘p miqdorda, takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa besh yildan sakkiz yilgacha, juda ko‘p miqdorda, o‘ta xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [1]. Jinoyatning bevosita obyekti — o‘zganing mulki yoki mulkiy huquqlarini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir.

Firibgarlikning predmeti mulkdan tashqari yuridik kategoriya sifatida o‘zganing mulkiga bo‘lgan huquq, mulkka bo‘lgan alohida vakolatlar (masalan, aybdor uyda yashash huquqini qo‘lga kiritishi mumkin) hisoblanadi. Bu huquqlar turli xil hujjatlarda, masalan, vasiyatnoma, sug‘urta polisi, muayyan boyliklarni olish uchun ishonchnoma, turli xil qimmatli qog‘ozlarda mustahkamlangan bo‘lishi mumkin.

Obyektiv tomondan firibgarlik aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish yo‘li bilan o‘zganing mulkini yoki o‘zganing mulkiy huquqini egallashdan iborat. Ushbu jinoyatning o‘ziga xosligi shundaki, tashqi tarafdan mulkdor tomonidan mulkni «ixtiyoriy» ravishda berish yoki begonalashtirish va jinoyatchiga o‘tkazish kuzatiladi. Aynan aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish mulkdorda yoki mulkning boshqa qonuniy egasida mulkni yoxud mulkiy huquqlarni jinoyatchiga o‘tkazish fikrini tug‘diradi. Shu usulda jabrlanuvchining ongi va ixtiyoriga ta’sir etish yoki uning ishonchini suiiste’mol qilish orqali firibgar mulkni o‘z foydasiga yoki boshqa shaxslar foydasiga o‘tkazish maqsadiga erishadi. Bu yerda aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish talon-toroj qilishning zaruriy usuli sifatida gavdalanadi.

Aldash deganda, mol-mulk egasi yoki mol-mulk ishonib topshirilgan shaxsning o‘zi uni firibgarga ixtiyoriy ravishda, o‘z xohishi bilan berishiga erishish maqsadida, jabrlanuvchini chalg‘itish uchun aybdor shaxs tomonidan har qanday faktni buzib ko‘rsatish yoki haqiqatni yashirish yoxud bila turib yolg‘on ma’lumotlarni xabar qilish tushuniladi.

Aldash birinchi navbatda shaxsning ongli ravishda o‘zgaga noto‘g‘ri ma’lumotlarni tarqatishida ifodalanadi. Aldash firibgarlik bilan talon-toroj qilish usuli sifatida aybdorning haqiqiy maqsadlariga (masalan, mulkni qaytarib bermaslik maqsadida qarzga olish); predmetga, uning narxi, miqdori va sifatiga

(rangli metallardan foydalangan holda tilla buyumlar sifatida har xil narsalar ishlab chiqarish, to'liq bo'lmagan tovarni to'liq narxida sotish) taalluqli bo'lishi mumkin. Aldash, shuningdek, firibgarning shaxsi, uning mansabi va ijtimoiy mavqei, kasbiga ham bog'liq bo'lishi mumkin (masalan, shaxs o'zini soliq inspeksiyasi xodimi sifatida tanishtiradi va soliq to'lovlari sifatida pul mablag'larini oladi).

Aybdor firibgarlikni sodir etishda soxta hujjatlardan foydalansa, uning qilmishi firibgarlik tarkibi bilan qamrab olinadi va u JK 209-moddasi (Mansab soxtakorligi) yoki 228-moddasi bilan qo'shimcha kvalifikatsiya qilishni talab qilmaydi. Biroq, firibgarlik harakatlarini sodir etish maqsadida aybdor shaxsning o'zi hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlasa, ularni qalbakilashtirsa, uning qilmishlari jinoyatlar jami bo'yicha Jinoyat kodeksining 168 va 228-moddalari (Hujjatlar, shtamplar, muhrlar, blankalar tayyorlash, ularni qalbakilashtirish, sotish yoki ulardan foydalanish) bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shunga e'tibor berish lozimki, agar soxta hujjat (kasallik varaqasi, haydovchilik guvohnomasi, ma'lumotnoma va hokazo) firibgar tomonidan tayyorlanmagan bo'lib, u boshqa shaxs tomonidan tayyorlanib, ushbu shaxs hujjatdan talon-toroj qilishda foydalanishini bilgan bo'lsa, unda bu shaxs nafaqat hujjatlarni qalbakilashtirganlik uchun, balki firibgarlik orqali talon-toroj qilishda yordamchi sifatida javobgarlikka tortiladi.

Firibgarlik harakatlarini sodir etishda aybdor o'zini boshqa shaxs sifatida (davlat hokimiyat organi rasmiy vakili kiyimini kiyish yoki hokimiyat vakilining guvohnomasini qalbakilashtirish) namoyon qilish orqali o'zganing mulkini qo'lga kiritishi mumkin.

Ishonchni suiiste'mol qilish deganda aybdor shaxs tomonidan o'zganing mulkini qonunga xilof ravishda o'z foydasiga olish uchun o'zi va mulk egasi yoxud mulk egaligi ixtiyorida turgan shaxs o'rtasidagi alohida, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatlardan qonunga xilof ravishda mulkni o'z foydasiga olish uchun foydalanishi tushunilishi lozim. Odatda, ishonchga asoslangan munosabatlar firibgar va jabrlanuvchi shaxs o'rtasida prokat, ijara, oldi-sotdi, topshiriq shartnomasi va h.k.larda vujudga kelishi mumkin. Firibgar niyatiga erishish uchun xizmat, qarindoshchilik, do'stlik munosabatlaridan ham foydalanishi mumkin.

Firibgarlik o'zganing mulki qo'lga kiritilgan va aybdorda o'z ixtiyoriga ko'ra talon-toroj qilingan mulkni tasarruf etish imkoniyati paydo bo'lgan paytdan boshlab tugallangan jinoyat hisoblanadi.

Agar shaxs aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan aqli noraso shaxsning yoxud o'ziga nisbatan sodir etilgan harakatlarning xususiyatini tushunmaydigan yosh bolaning mulkini qo'lga kiritib olsa, aybdor firibgarlik uchun emas, balki o'g'rilik uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi kerak.

Subyektiv tomondan firibgarlik to'g'ri qasddan g'araz maqsadda sodir etiladi, g'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy belgisi hisoblanadi.

Oliy sud Plenumining "o'zgalar mulkini o'g'irlik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida "aybdor tomonidan sodir etilayotgan voqeani tushunib etish qobiliyatiga ega bo'lmagan (masalan, yoshi juda kichiklar, ruhiy jihatdan aqli norasolar, alkogoldan yoki narkotik moddalardan kuchli mastlik darajasida bo'lgan yoki uxlab qolgan) shaxslarning mulkini o'g'irlash o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish deb tavsiflanishi kerak" [2]

Aybdor o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida jabrlanuvchini chalg'itayotganligini yoki bila turib ishonchini suiiste'mol qilayotganligini anglab etadi va buning sodir etilishini xohlaydi. Shuningdek, ushbu jinoiy qilmishni aybdor mulkiy foyda olish va boyib ketish maqsadida sodir etadi, g'araz maqsadning mavjudligi firibgarlikning zaruriy alomati hisoblanadi, shu bilan birga, agar mulkni aldash yo'li bilan g'arazli maqsadlarsiz egallagan bo'lsa (masalan, boshqa shaxsning nomidan oylik ish haqini unga berib qo'yish maqsadida olish), qilmishni firibgarlik sifatida kvalifikatsiya qilib bo'lmaydi.

"Bu o'rinda o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadi nafaqat mulkiy bitimlarni amalga oshirishdan oldin, balki ularni bajarish jarayonida ham paydo bo'lishi mumkinligi e'tiborga olinishi lozim. Bayon qilin-

ganlardan kelib chiqib, uzrli sabablarga ko‘ra qarzni o‘z vaqtida qaytarmagan va o‘zganing mulkini tekinga qo‘lga kiritish maqsadi bo‘lmagan shaxsning harakatini firibgarlik deb baholab bo‘lmaydi” [3].

Firibgarlik jinoyatining subyekti 16 yoshga to‘lgan, har qanday aqli raso jismoniy shaxs bo‘la oladi.

Sud-tergov amaliyotida firibgarlikni o‘g‘irlikdan farqlashda ayrim qiyinchiliklar mavjud. Firibgarlikni sodir etishda aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish o‘zganing mulkini qo‘lga kiritish usuli bo‘lib xizmat qiladi, o‘g‘irlik sodir etishda aldashni qo‘llash o‘g‘irlanadigan narsani qo‘lga tushirishni yengillashtirish vositasi hisoblanadi. Firibgarlik sodir etilganda jabrlanuvchi shaxs mulkni yoki mulkiy huquqni firibgarga o‘z ixtiyori bilan topshiradi, o‘g‘irlikda esa aybdor shaxs uni mulk egasining yoki mulk kimning ixtiyorida turgan bo‘lsa, o‘sha shaxsning ruxsatisiz yashirin ravishda talon-toroj qiladi. Faqat o‘zganing mulkigina o‘g‘irlik predmeti bo‘lishi mumkin, firibgarlik predmeti esa o‘zganing mulki yoki mulkka bo‘lgan huquqi ham bo‘lishi mumkin.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi 2-qismida firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

a) ancha miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

v) kompyuter texnikasi vositalaridan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa.

Sharhlanayotgan moddaning 3-qismida firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

a) ko‘p miqdorda;

b) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

v) xizmat mavqeidan foydalanib sodir etilgan bo‘lsa.

Sharhlanayotgan moddaning 4-qismida firibgarlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilangan:

a) juda ko‘p miqdorda;

b) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan;

v) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa.

Jinoyat kodeksining 168-moddasi 5-qismida rag‘batlantiruvchi norma nazarda tutilgan bo‘lib, unga ko‘ra, agar ayblanuvchi yetkazilgan moddiy zararning o‘rnini qoplagan taqdirda, ozodlikni cheklash hamda ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar qo‘llanilmaydi. Jinoyat kodeksida moddiy zarar qancha miqdorda qoplanishi lozimligi ko‘rsatilmagan, biroq mohiyatidan moddiy zarar to‘la hajmda qoplanishi kelib chiqadi.

Keyingi paytlarda aholi o‘rtasida turli firibgarlik holatlari ko‘p uchramoqda. Bunday firibgarliklar nafaqat shaxs moddiy qimmatliklariga, balki fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari hamda erkinliklarining poymol bo‘lishiga olib kelmoqda.

Firibgarlikka qarshi kurashda barchamiz ega bo‘lgan eng katta qurol bu bilimdir.

Har qanday jinoyatchilikka qarshi kurashning eng samarali uslubi bu jinoyatning oldini olish hisoblanadi. Oxirgi yillarda firibgarlik jinoyatining ortib, turli ko‘rinishga ega bo‘layotganligi ko‘plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ma’lumki firibgarlik jinoyatlarini sodir etish sabablarini aniqlab, unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganib, jinoyatning oldini olishda ichki ishlar organlari bilan birga barcha jamoatchilik tashkilotlari ham birdek mas’uldir.

Har qanday jinoyatchilikka qarshi kurashning eng samarali uslubi bu jinoyatning oldini olish hisoblanadi. Oxirgi yillarda firibgarlik jinoyatining ortib, turli ko‘rinishga ega bo‘layotganligi ko‘plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Ma’lumki firibgarlik jinoyatlarini sodir etish sabablarini aniqlab, unga imkon bergan shart-sharoitlarni o‘rganib, jinoyatning oldini olishda Milliy gvardiya, Ichki ishlar organlari bilan birga barcha jamoatchilik tashkilotlari ham birdek mas’uldir.

Xulosa qilib aytganda, ushbu turdagi jinoyatni oldini olish maqsadida barcha davlat organlari vakillari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘ini va hududlardagi profilaktika inspektorlari tomonidan, ma’muriy hududda joylashgan korxona, tashkilot va muassasalar, ta’lim muassasalarida, aholi va keng jamoatchilik o‘rtasida firibgarlik jinoyatlarining oldini olish bo‘yicha targ‘ibot – tashviqot ishlarni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси жиноят кодекси;
2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги «Ўзгалар мулкини ўғирлик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 6-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли қарорига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан)// Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорлари тўплами. 1991—2006, 1-жилд. — Т.: «Ққитувчи» НМИУ, 2007. — 221-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1998 йил 17 апрелдаги «Иқтисодиёт соҳасидаги жиноий ишлар бўйича суд амалиётида юзага келган айрим масалалар тўғрисида»ги 11-сонли қарори (Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2002 йил 14 июндаги 10-сонли, 2002 йил 25 октябрдаги 28-сонли ва 2006 йил 3 февралдаги 5-сонли қарорларига асосан киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар билан) // Тўплам, 1-жилд. — 119-б.
4. “Фирибгарлик жиноятларини барвақт олдини олиш ҳудуд методикаси” методик ва амалий қўлланма 2019 йил.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленумининг ““Жиноят натижасида етказилган мулкий зиённи қоплашга оид қонунчиликни қўллаш бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 2016 йил 27 декабрь, 26-сон қарор

Usmonov B.A. Firibgarlik jinoyatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashning protsessual tartibi

Mazkur maqolada firibgarlik jinoyatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplash choralarining protsessual tartibi asoslantirilgan, amaldagi qonunchilik hamda tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini ilmiy tahlil qilish asosida firibgarlik jinoyatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashning protsessual tartibini rivojlantirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: firibgarlik, zararni qoplash, firibgarlikning obyekti va predmeti, aldash, ishonchni suiiste’mol qilish.

Усманов Б.А. Процессуальный порядок возмещения ущерба, причиненного мошенничеством

В статье обосновывается процессуальный порядок возмещения вреда, причиненного мошенничеством, на основе научного анализа действующего законодательства и мнений исследователей разработаны выводы и предложения по совершенствованию процессуального порядка возмещения ущерба, причиненного мошенничеством.

Ключевые слова: мошенничество, возмещение, ущерб объект и субъект мошенничества, обман, злоупотребление доверием.

Usmonov B.A. Procedural procedure for compensation of damage caused by fraud

The article substantiates the procedural procedure for compensation for damage caused by fraud; based on a scientific analysis of current legislation and the opinions of researchers, conclusions and proposals are developed to improve the procedural procedure for compensation for damage caused by fraud.

Key words: fraud, compensation, damage to the object and subject of fraud, deception, breach of trust.

Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING HUQUQIY HIMOYASINI HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHINI RIVOJLANTIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida "Eng bebaho oliy ne'mat — tinchligimiz va osoyishtaligimizning qadriga yetaylik, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxtu kamoli uchun bu ulug' boylikni asrab-avaylaylik deb ta'kidlab o'tdilar[5].

O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi Qonunida ham Qurolli Kuchlarni tuzishdan asosiy maqsadi, uning tarkibi yanada kengroq, aniqroq bayon qilingan. Ushbu qonunda: «Qurolli Kuchlar urushlar va qurolli mojarolarni qaytarish hamda oldini olish, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini, suvereniteti, hududiy yaxlitligini hamda aholining tinch hayotini himoya qilish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar va qismlarni, shuningdek, boshqa harbiy tuzilmalarni o'z ichiga oladi» deb ko'rsatilgan [1].

Bizningcha, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini himoya qilish va tinchligini ta'minlash har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Ushbu burchni O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiylar o'ziga sharaf deb bilib, ado etadilar.

O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari jamiyat hayotining muhim bo'lagi bo'lib, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy bo'g'indir. Mazkur faoliyatni amalga oshirish jarayoni huquq normalari bilan tartibga solinadi hamda Konstitutsiya, harbiy qonunchilik va harbiy nizomlarning talablariga asoslanadi.

Shunga ko'ra, harbiy xizmatning asosini mustahkam intizom tashkil etib, har bir harbiy xizmatchi unvon hamda mansabidan, har qanday holatdan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida o'rnatilgan tartib-qoidalar va harbiy nizomlarni so'zsiz bajarishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Intizom nizomi loyihasida *Yuksak harbiy intizomga* ....komandirlarning (boshliqlarning) o'z bo'ysunuvchilarga shaxsiy namunaligi va kundalik talabchanligi va ularning ijrochiligini nazorat qilishi, harbiy xizmatchilarning huquqlari va sha'nini hurmat qilish, ular haqida doimiy qayg'urish, ishontirish, majburlash, jamoatchilik ta'siri kabi omillarni to'g'ri uyg'unlashtirish va o'rnida qo'llash *orqali erishiladi.*

Harbiy qismda (muassasada) yuksak harbiy intizomni saqlash maqsadida komandir (boshliq) quyidagilarga majburiyat yuklatilgan:

-huquqiy targ'ibot ishlarini tashkillashtirish, huquqbuzarliklarni oldini olish, harbiy xizmatni o'tash uchun xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, ko'ngilsiz hodisalar va turli salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan ishlarni olib borish;

-harbiy xizmatchilarning shaxsiyati, sha'ni va g'ururini hurmat qilish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoyasi to'g'risida qayg'urish komandir (boshliq)ning muhim majburiyatidir.

Har bir harbiy xizmatchi o'zining huquq va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishiga to'la ishonishi, komandir (boshliq) tomonidan uning shaxsiy daxlsizligini ta'minlanishi, o'z sha'ni va g'ururining hurmat qilinishiga g'amxo'rlikni his qilishi kerak[6].

Fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirishda quyidagi yo'nalishlarda ishlar amalga oshirilishi lozim:

1) harbiy huquqning mohiyati va

harbiy huquqning asosiy institutlari – davlatning harbiy tashkiloti, harbiy xizmat, uning turlari, tamoyillari, harbiy xizmatni o'tash, uning turlari, tamoyillari, harbiy huquqning mazmun-mohiyati haqida chuqur va tizimli bilim berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida ta'kidlab o'tganlaridek "Biz yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko'proq ahamiyat berishimiz kerak". Ushbu yo'nalish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan edi[3].

Ushbu qaror yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida qabul qilingan edi. Bizningcha, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik to'g'risida tarbiyalanishining harbiy xizmatchilar huquqiy himoyasining huquqiy asoslarini takomillashtirishda o'z o'rni bor. Chunki, kelajakda bu yoshlar Milliy armiyamiz saflarini huquqiy ongi yuksak bo'lgan, harbiy huquqni takomillashtirishga o'z hissalarini qo'shishadi.

2) harbiy xizmatchilarning huquqlari va ularning cheklanishi, majburiyatlari, huquqiy javobgarligi masalalari bo'yicha so'rovnomalar o'tkazish.

Ushbu yo'nalishda mavjud muammolarni o'rganish bo'yicha mansabdor shaxslar tomonidan yiliga bir marotaba huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy so'rovnomalar o'tkazilishi lozim. Chunki, zamon rivojlangani sayin harbiy xizmatchilarga jamiyatimizning turli sohalarida huquqiy himoya zarur bo'ladi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha tegishli qonunchilik hujjatlari ishlab chiqilishi yoki o'zgartirilishi lozim.

3) Harbiy xizmatchilarga harbiy qonunchilikda mavjud qonunlarni o'rgatib borish.

Mazkur masala bo'yicha harbiy xizmatchilarga qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash bo'yicha harbiy boshqaruv organlari faoliyatini yanada takomillashtirish, shaxsiy tarkibning huquqiy madaniyatni oshirish, harbiy xizmatchilarning o'z xizmat vazifalariga to'la amal qilishlarini, belgilangan huquqlarining amalda tatbiq etilishini ta'minlash lozim. Ofitserlar tarkibi uchun alohida, kontrakt asosida xizmat qilayotgan oddiy askarlar, serjantlar tarkibidagilar uchun alohida, muddatli harbiy xizmatchilar uchun alohida, ya'ni barcha toifadagi harbiy xizmatchilar minimum (lotinchadan – eng kam, eng oz) darajada bilishi shart bo'lgan asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yxati berilgan. Harbiy xizmatchilar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Mehnat kodekslarini va O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi, «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risidagi» qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining Milliy xavfsizlik va Jamoat xavfsizligini ta'minlash konsepsiyalarini bilishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlarini, Harbiy xizmatni o'tash tartibini reglamentlashtiradigan me'yoriy-huquqiy dalolatnomalarni, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi surishtiruv organlarining Yo'riqnomasini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida davlat sirlarini himoya qilish bo'yicha qo'llanmani, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Birlashgan shtabi boshlig'i va Harbiy okrug qo'mondonlarining buyruq va direktivalarini, mashg'ulot va ishlar, qo'shinlarning kundalik faoliyatida xavfsizlik talablarini bilishi shartligi belgilab qo'yilgan[2].

Bizningcha, ushbu direktivada ofitserlar tarkibi bilishi kerak bo'lgan

qonunlar "Harbiy xizmatchi" maqomiga ega bo'lgan barcha ofitserlarga o'rgatilishi lozim. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek "Ta'lim sifatini oshirish — Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir".

4) davlatning harbiy faoliyatidagi xorijiy tajriba haqida ma'lumot berish, harbiy xizmatni tashkil etish, harbiy xizmatchilar faoliyatini huquqiy tartibga solish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida "Har yili 500 nafar mutaxassisni eng nufuzli xorijiy oliygoh va markazlarda o'qitib kelamiz" deb ta'kidlab o'tdilar. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solinishini rivojlantirish uchun 500 nafar mutaxassis ichida harbiy soha mutaxassislari ham bo'lishi lozim. Chunki, rivojlangan xorij davlatlarining harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini oshirish bo'yicha amalga oshirgan ishlari, erishilgan ijobiy natijalarini milliy armiyamizga tatbiq etishimiz lozim.

Bugun hech bir sohada ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo'llamasdan turib taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Bu esa, keng va zamonaviy bilimga ega kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish kabi dolzarb vazifalarni oldimizga qo'ymoqda[4].

Ushbu yo'nalish bo'yicha xorijiy davlat vakili bo'lgan Fransiya harbiy attashesi podpolkovnik Jan-Mari Xoltsinger "Dunyo xaritasiga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Afg'oniston bilan chegaradosh. Ushbu davlatning shimoliga to'g'ri keladigan ayrim hududlarda terrorchi kuchlar harakatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun O'zbekiston Qurolli Kuchlari har doim terrorizmga qarshi kurashishga qobiliyatli bo'lishi kerak. Bu nafaqat O'zbekiston, balki butun dunyo uchun muhim"[7] deb ta'kidlab o'tgan.

5) harbiy qonunchilikni rivojlantirish va davlatning harbiy tashkilotida qonun ustuvorligini mustahkamlashga ko'maklashish orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini huquqiy asoslarini takomillashtirish harbiy huquq tushunchasi va uning manbalarini o'rganish va ochib berishdan boshlanadi. Keyinchalik uning takomillashishi quyidagi yo'nalishlar bilan uzviy bog'liqdir. Vatan himoyasining huquqiy asoslari, mudofaa va harbiy xavfsizlik, davlat harbiy tashkilotining huquqiy holati, uning kadrlar bilan ta'minlanishi, harbiy xizmat va harbiy xizmatchilar (harbiy burchni bajarish va kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirish, harbiy xizmat, harbiy xizmatchilarning maqomi, harbiy xizmatchilarni moddiy ta'minlash), qo'shinlarda huquqni muhofaza qilish faoliyati, harbiy sudlar, harbiy prokuraturalarni tashkil etish va faoliyati, yuridik xizmat, harbiy muassasa va korxonalarning huquqiy holati, harbiy iqtisodiyotni boshqarish, intizom, qonuniylik va tartibni ta'minlash, xalqaro harbiy huquqning o'rnak jihatlari va xorijiy davlatlarning harbiy huquqini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonuni. – T.: 2001.
2. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2003-yil 31-maydagi direktivasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140-sonli "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni 158-bet.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.

6. https://kun.uz/news/
7. Fransiya harbiy attashesi podpolkovnik Jan-Mari Xoltsinger (https://xabar.uz/post/franciya-harbiy-attashesi-yaqin-kelajakda

Olimjonov X.M. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining huquqiy himoyasini huquqiy tartibga solinishini rivojlantirish

Mazkur maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarning huquqiy himoyasini amaldagi holati, uni rivojlantirish yo'llari va huquqiy tartibga solishning huquqiy jihatlarini takomillashtirish, mazkur sohadagi ilg'or xorijiy tajribaning o'rgangan holda milliy harbiy qonunchilikni takomillashtirish jihatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: xorijiy tajriba, xizmat majburiyati, qurolli kuchlar, Milliy gvardiya, jamoat xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchi, huquqiy himoya, qonunchilik, rivojlantirish.

Олимжонов Х.М. Развитие правового регулирования правовой защиты военнослужащих национальной гвардии при обеспечении общественной безопасности

В данной статье Национальная гвардия описывает современное состояние правовой защиты военнослужащих, пути ее развития и совершенствования правовых аспектов правового регулирования, совершенствование национального военного законодательства с изучением передового зарубежного опыта в этой области.

Ключевые слова: зарубежный опыт, служебная обязанность, вооруженные силы, Национальная гвардия, обеспечение общественной безопасности, военнослужащие, правовая защита, законодательство, развитие.

Olimjonov X.M. Development of legal regulation of legal protection of national guard servicemen in ensuring public safety

In this article, the National Guard describes the current state of legal protection of military personnel, ways of its development and improvement of legal aspects of legal regulation, improvement of national military legislation with the study of advanced foreign experience in this area.

Key words: foreign experience, service obligation, armed forces, National Guard, Public Safety Assurance, military personnel, legal protection, legislation, development.

Yusupov Muxtor Bekchanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha boshqarmasi boshlig‘i

OMMAVIY TADBIRLARNI O‘TKAZISH VAQTIDA JAMOAT TARTIBINI SAQLASH VA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING TASHKILIY-HUQUQIY HOLATI

Zamonaviy jamiyatda shaxsning kommunikativ, siyosiy-ijtimoiy, sport va madaniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan aholining ijtimoiy faoliyatining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bu turli ommaviy tadbirlarni tashkil etishdir. Mamlakatimizda demokratiya tamoyilini amalga oshirish fuqarolarning davlat organlari, siyosiy partiyalar va jamoalar, shuningdek, turli kasaba uyushmalari, sport, madaniy, diniy va boshqa tashkilotlar tomonidan o‘tkaziladigan har xil tadbirlarda faol ishtirok etishi orqali ommaviy tadbirlar tashkillashtiriladi.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi hozirga kunga kelib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan belgilangan bo‘lib, unda “100 va undan ko‘p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, syezdlar va boshqalar), madaniy-ommaviy va ko‘ngilochar-tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o‘yinlar, ko‘rik-tanlovlar va boshqalar), shuningdek umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o‘tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlari” ommaviy tadbir sifatida ko‘rsatilgan.[1]

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy holatini tahlil qilar ekanmiz, biz bunda ommaviy tadbirlar fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish shakllaridan biri ekanligi, ular qoida tariqasida, ko‘plab fuqarolar uchun ochiq bo‘lib, shahar ko‘chalarida, maydonlarida, har qanday binolarda, konsert zallarida, sport inshootlarida, marshrutlar va turli aholi punktlarining boshqa jamoat joylarida maxsus tadbirlarda o‘tkazilishi va shunga o‘xshagan belgilari mavjudligini tan olishimiz zarur.

Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibini muhofaza qilishni tashkil etish va jamoat xavfsizligini ta’minlash jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda juda ko‘p turli subyektlar, xususan, vakolatli davlat organlari, Milliy gvardiya, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa mutasaddi idora va tashkilotlarning xizmatlari va bo‘linmalari hamda ixtiyoriy ravishda yordam ko‘rsatadigan shaxslar (subyektlar) ishtirok etadilar. Albatta bu masalalarning barchasi, istisnosiz, yuqorida aytib o‘tilgan subyektlardan mashaqqatli tayyorgarlikni talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega” (38-modda), “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar” (39-modda), “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.”(33-modda) [2].

Shu bilan birga, fuqarolarning shaxsiy va jamoat xavfsizligi kafolatlanishi kerak. Binobarin, ommaviy tadbirlar vaqtida jamoat tartibini muhofaza qilish davlat hokimiyati ijroiya organlarining, shu jumladan Milliy gvardiya organlarining faoliyati sifatida fuqarolar va jamoat tashkilotlari tomonidan ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarishning kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etish bir-biriga bog'liq bo'lgan uchta, ya'ni: **tayyorgarlik, asosiy** (ijro etuvchi) va **yakuniy bosqich**lardan iboratdir.

Birinchisi, **tayyorgarlik bosqichi**. Agar qonun hujjatlarida vakolat berilgan organlar ommaviy tadbirni o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari rahbariga tegishli xabarnoma yuboriladi va u vakolatli tuzilmalar bilan birgalikda ko'rib chiqiladi.

Bunda quyidagilar ko'rib chiqiladi,

– xabarnoma yuborgan organ to'g'risidagi ma'lumotlar;

– ushbu xabarnomani topshirish va ko'rib chiqish muddatlari;

– ommaviy tadbirlarini o'tkazish joyi, shakli va ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlar;

– ommaviy tadbir ishtirokchilarining taxminiy soni;

– ma'lum bir hududga joylashtirish uchun ishtirokchilarning taxminiy sonini aniqlash;

– ommaviy tadbir o'tkazilishi rejalashtirilgan joyning ayrim xarakterli xususiyatlari va boshqalar ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda tadbir rejasi ishlab chiqilib, ma'muriy funksiyalarni bajarish bilan shug'ullanadigan ishtirokchilar ro'yxati, ularning aloqa ma'lumotlari tayyorlanadi.

Yuqoridagi shartlardan kelib chiqib, ishtirokchilar joyi, muddati, maqsadi va sonini o'zgartirish bo'yicha takliflar o'rganiladi.

Tayyorgarlik davrida sodir etilishi mumkin bo'lgan qo'poruvchilik harakati yoki jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rilayotganligi haqida turli manbalardan o'z vaqtida ma'lumot olinsa, voqea vaqtini, hududini o'zgartirish, hatto ommaviy tadbir o'tkazishni bekor qilish uchun zarur choralar ko'riladi.

Ommaviy tadbirni o'tkazishga mas'ul qilib biriktirilgan Milliy gvardiya bo'linma komandirining asosiy vazifasi hududni, ya'ni ommaviy tadbir o'tkazish joyini o'z vaqtida o'rganish hisoblanadi.

Kordon zonalari chegaralarini belgilash, guruhlarga topshiriqlar berish, harakatni vaqtincha cheklash kabi muhim masalalarni hal qilish boshqa tashkilot va idoralar vakillari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, portlovchi qurilmalarni aniqlash va tomoshabinlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga sharoit yaratuvchi holatlarning oldini olish uchun hududda tekshiruv o'tkazish zarur.

Jamoat tartibini muhofaza qilishni tashkil etish, ommaviy tadbirlarini o'tkazishda odamlarning xavfsizligini ta'minlash, vaqt, joy, ishtirokchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda, shahar markazi, viloyat markazidagi tezkor vaziyatni tahlil qilish, Milliy gvardiya, Ichki ishlar Favqulodda vaziyatlar bo'linmalari va boshqa bo'linmalarning kuchlari va resurslarini hisoblagan holda reja ishlab chiqilishi kerak bo'ladi.

Ishlab chiqilayotgan rejalarda ommaviy tadbirni o'tkazish joyi, vaqti, vazifasi, ishtirokchilarning taxminiy soni, o'rab olish joylari, nazorat punktlari, jamoat transporti va boshqa obyektlarning ish vaqti, tezkor kuchlar va vositalar, ularni joylashtirish, o'zaro ta'sir qilish tartibi, xizmat joyiga qarab kiyim-kechaklarning maxsus bevosita vazifalari, nutqni kuchaytiruvchi texnik vositalar, to'siqlar, asboblardan foydalaniladi.

Mazkur reja Milliy gvardiya, Ichki ishlar organi, Favqulodda vaziyatlar rahbarlarining buyrug'iga asosan, jamoat tartibini saqlashga jalb etilgan kuch va vositalarni malakali va samarali boshqarish maqsadida mas'ul shaxslar tomonidan ishlab chiqiladi. Shtab tuzilmasi, albatta, vakolatli davlat organi, ma'muriyat, prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va tadbir tashkilotchilarining vakillarini o'z ichiga olishi kerak.

Shtabda jamoat tartibini saqlash, yong'inga qarshi choralar ko'rishga ixtisoslashgan, jinoyatchilar va huquqbuzarlarni ushlashda yuzaga keladigan masalalarda malakali guruhlar tuziladi, shuningdek, tibbiyot bo'linmalari vakillari ham tarkibda ishtirok etadi.

Umuman olganda, ommaviy tadbirlarida jamoat tartibini muhofaza qilishni tashkil etishga tayyorgarlik bosqichida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

– ommaviy tadbirning xarakteri va xususiyatlari aniqlanadi;

– tezkor vaziyat baholanadi;

– bo‘lim va xizmatlar rahbarlari bilan yo‘riqnoma o‘tkaziladi;

– boshqaruv organlari tuziladi;

– barcha jalb qilingan kuchlarning o‘zaro ta’siri tashkil etiladi;

– xizmat ko‘rsatishga kadrlar va texnik jihozlarni tayyorlash amalga oshiriladi;

– hududni razvedka qilish, bo‘linmalar, xizmatlar, otryadlar, guruhlar va boshqalarni tayyorlash amalga oshiriladi.

Ikkinchisi, **asosiy bosqich**. Ommaviy tadbirlarida Milliy gvardiya va jamoat tartibini muhofaza qilishga qo‘shimcha ravishda jalb etilgan boshqa subyektlar xodimlari ko‘plab fuqarolar ishtirokida belgilangan vazifalarni bajaradilar. Shuning uchun ularga alohida talablar qo‘yiladi. Xizmatni o‘tash vaqtida otryad shaxsiy tarkibi yuqori hushyor bo‘lishi, huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlar, sabablar va shart-sharoitlarni aniqlashi shart. Harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan jamoat tartibini muhofaza qilish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar tomoshabinlar yoki tadbirning boshqa ishtirokchilari tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Dastlab, otryadlar va jamoat tartibini saqlash guruhlari kuchlari spirtli ichimliklar ichishning oldini olishga va mast holatda bo‘lgan shaxslarning tadbir hududiga kirishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaratiladi. Shuningdek, ommaviy tadbir paytida foydalanish taqiqlangan narsalarni aniqlash va olib qo‘yish kerak, bunda asosan ommaviy tadbir davomida sodir bo‘lgan voqealarni videoga olish orqali katta profilaktik samaradorlikka erishish imkoni tug‘iladi.

Jamoat tartibini buzgan shaxslarni aniqlash imkonini beruvchi eng muhim taktikalardan biri bu kuzatuvdir. Atrofdagilarning hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug‘dirmaydigan huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslar aniqlanganda, ishontirish usulidan foydalanish kerak. Ushbu shaxslar tomonidan tegishli munosabat bo‘lmaganda, harbiy xizmatchi va xodimlar tartibni tiklash uchun ma’muriy va profilaktik choralarini ko‘rishlari kerak.

Agar shaxslar noqonuniy xatti-harakatlar qilsalar, ular hibsga olinishi mumkin, buning uchun vaziyatni va fuqarolarning mumkin bo‘lgan reaksiyasini baholash kerak.

Harbiy xizmatchi va xodimlar tomonidan qilingan xatti-harakatlar asosli bo‘lishi va boshqalar tomonidan ma’qullanishi va qo‘llab-quvvatlanishi kerak.

Kerakli natijaga erishishning eng muhim sharti – tezkor shtab boshlig‘ining jamoat tartibini muhofaza qilishni ta’minlashga jalb etilgan shaxsiy tarkibi bilan birga ommaviy tadbir o‘tkaziladigan joyga erta yetib borishi hisoblanadi. Tezkor shtab boshlig‘i uchastkaga kelganidan so‘ng quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

– uchastkada xizmat ko‘rsatuvchi postga jalb qilingan harbiy xizmatchi va xodimlaridan hisobot oladi;

– yuqoridagi barcha tayyorgarlik tadbirlarining sifatini tekshiradi;

– barcha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi;

– harbiy xizmatchi va xodimlarni obyektlarga tayinlashdan oldin ularni xabardor qiladi;

– kuch va vositalarning chiziqlar, obyektlar, postlar bo‘ylab joylashtirilishini shaxsan nazorat qiladi;

– kinolog yordamida tadbir o‘tkaziladigan joyni yana bir bor ko‘zdan kechiradi;

– o‘zaro ta’sir va aloqa tizimini tashkil qiladi.

Uchinchisi, **yakunlovchi bosqich**. Ommaviy tadbirdan so‘ng jamoat tartibini saqlashga jalb qilingan barcha harbiy xizmatchi va xodimlar ommaviy tadbir davomida ko‘rilgan chora-tadbirlar kompleksini tahlil qilgan holda amalga oshirilgan ishlar natijalarini sarhisob qilmadi. Natijalar asosida dalolatnoma tuzilib, jamoat tartibini muhofaza qilishni yanada takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar kiritiladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Milliy gvardiyaning jamoat tartibini saqlash bo‘yicha faoliyatidagi asosiy qiyinchilik, qoida tariqasida, ommaviy tadbirlardan oldin va keyin darhol yuzaga keladi. Ammo

ommaviy tadbirlarini o‘tkazish vaqtida ham jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlashda huquq-tartibot idoralari duch keladigan muayyan muammolar mavjud.

Ayni paytda Milliy gvardiya bo‘linmalari oldidagi eng murakkab vazifalardan biri bu ommaviy tadbirlarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash jarayonini amalga oshirishdir. Bu katta miqdordagi mablag‘ va kuchlarni, turli darajadagi mutaxassislardan qo‘shimcha shaxslarni jalb qilishni, shuningdek, harbiy xizmatchi va xodimlar uchun aniq harakatlar rejasini tuzishni talab qiladi.

Jamoat tartibini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari qatoriga ommaviy tadbirlar vaqtida qonun ustuvorligini ta’minlash, mahalliy-ijtimoiy, kundalik hayot qoidalarini saqlash va tartibsizliklarning oldini olish kiradi. Hozirgi vaqtda bu mamlakatimiz uchun dolzarb bo‘lib qoldi.

Bundan tashqari ommaviy tadbirlarni xususiyatlariga ko‘ra har xil toifalarga ajratish mumkin. Masalan, A.V.Korkinning fikricha, hududiy asosda tadbirlar tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va respublika miqyosida bo‘lishi mumkin, bu esa jamoat tartibini muhofaza qilishda ishtirok etadigan kuch va vositalar hajmini sezilarli darajada belgilaydi. [3]

Shuningdek ommaviy tadbirlarni xususiyatlariga ko‘ra ajratishda, qo‘yidagi belgilar alohida ta’sir etadi, ya’ni ommaviy tadbirlar paytida yuzaga keladigan vaziyat ko‘chalarda va boshqa joylarda jamoat tartibini odatiy, kundalik muhofaza qilishdan sezilarli darajada farq qiladi. Ushbu muhit quyidagi xususiyatlarga ega:

- aholi hayotining normal ritmi o‘zgaradi, ommaviy tadbir o‘tkazilayotgan hududda transport vositalari va piyodalar harakatiga, ayrim turdagi tovarlar savdosiga cheklovlar kiritiladi;

- katta xalq ommasining cheklangan hududda to‘planishi o‘z-o‘zidan jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda qiyinchiliklar tug‘diradi;

- meteorologik sharoitlarning ta’siri ham mavjud, xususan, ochiq stadionlarda o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar davomida ob-havo sharoitining keskin yomonlashishi xavfsizlikka tahdid yaratishi mumkin;

- ommaviy harakatlar ko‘pincha turli jinoiy guruhlar tomonidan o‘z maqsadlariga erishish uchun ham foydalaniladi, masalan, etnik sabablarga ko‘ra nizolarni qo‘zg‘atish shular jumlasidandir. [4]

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish sharoitida ushbu ijtimoiy munosabatlar guruhlariga nisbatan o‘ziga xos tahdidlarning paydo bo‘lishi munosabati bilan jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini buzish xavfi sezilarli darajada oshadi. Bu jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini himoya qilishning maxsus ma’muriy-huquqiy vositalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi yetarli darajada tartibga solingan. Shu bilan birga, qonunchilik yo‘li bilan hal etishni talab qiladigan qator masalalar ham mavjud. Xususan, “Yig‘ilishlar, mitinglar, namoyishlar, yurishlar va piketlar to‘g‘risida” hamda “Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi qonunlarni qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sababi ommaviy tadbirlarni o‘tkazish tartibi qonun bilan tartibga solinmaydi. Ommaviy sport, madaniy, ko‘ngilochar, reklama va tijorat tadbirlarini o‘tkazish tartibini belgilaydigan alohida qonun qabul qilish zarur.

Shuningdek, qonun hujjatlarida har xil inshootlar va ko‘p sonli odamlar bo‘lgan boshqa obyektlarga mas’ul shaxslarning ularning terrorizmga qarshi himoyasini ta’minlash majburiyatlarini ko‘rsatish zarur deb hisoblaymiz.

Amaldagi qonunchilikda ommaviy tadbirlar sharoitida jamoat tartibini bevosita himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalari, birinchi navbatda, Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari zimmasiga yuklangan. Bu holat boshqa davlat hokimiyati organlariga va nazarda tutilgan hollarda muayyan vakolatlarni bermaydi. Biroq, bunday qaror tadbir davomida qabul qilinishi mumkin. Lekin shunga qaramasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari yoki Ichki ishlar xodimlari tomonidan ommaviy tadbirlar va boshqa ommaviy harakatlarni to‘xtatish asoslari va tartibini belgilash zarur.

Ommaviy tadbir ommaviy

tartibsizliklar va jamoat tartibini boshqa guruhbozlik bilan buzish holatlariga "ko'tarilgan" hollarda maxsus ma'muriy cheklash vositalari qo'llaniladi. Bunday hollarda Milliy gvardiya organlarining kuchlari va vositalaridan foydalanishning tashkil etilishi, tartibi, taktik xususiyatlari normativ-huquqiy hujjatlar bilan aniq tartibga solinishi kerak degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Оммавий тадбирларни ташкил этиш ва ўтказиш тартибини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" қарори. 2014 йил 29 июль.

2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 2023 йил 30 апрель

3. Коркин А. В. Методика расчета сил и средств органов внутренних дел, привлекаемых для обеспечения общественного порядка и общественной безопасности при проведении культурномассовых и публичных мероприятий. Екатеринбург.: УрЮИ МВД России, 2008.

4. Голованев И.В. Особенности расчета сил ОВД при охране общественного порядка во время проведения массовых публичных мероприятий /Вопросы совершенствования деятельности МОБ: Сборник № 9 - ГУООП МВД РФ - М. 2002.

Yusupov M.B. Ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy holati

Ushbu maqolada ommaviy tadbirlarni o'tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy holati, uning mazmuni yoritilgan. O'tkazilgan tahlillar asosida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan qonun va qonunosti hujjatlarini to'ldirish bo'yicha takliflar keltirilgan. Shuningdek, ommaviy tadbirlarni ma'muriy-huquqiy ta'minlashning dolzarbligi, uning hozirgi globallashuv davridagi o'rni, ahamiyati va ijtimoiy zaruriyati mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ommaviy tadbir, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, ma'muriy-huquqiy tartibga solish, ommaviy tartibbuzarlik, xavfsizlik, faoliyat, davlat organi, qonunchilik.

Юсупов М.Б. Организационно-правовой статус охраны общественного порядка и обеспечения безопасности при проведении массовых мероприятий

В данной статье описывается организационно-правовой статус охраны общественного порядка и обеспечения безопасности во время массовых мероприятий, а также его содержание. На основе проведенного анализа даны предложения по дополнению нормативно-правовой документации, связанной с организацией и проведением массовых мероприятий. Также раскрыта актуальность административно-правового обеспечения общественных мероприятий, его роль, значение и социальная необходимость в современную эпоху глобализации.

Ключевые слова: публичное мероприятие, общественная безопасность, общественный порядок, административно-правовое регулирование, массовые беспорядки, безопасность, деятельность, государственный орган, законодательство.

Yusupov M.B. Organizational and legal status of protecting public order and ensuring security during mass events

This article describes the organizational and legal status of protecting public order and ensuring security during mass events, as well as its content. Based on the analysis, proposals are made to supplement the regulatory documentation related to the organization and conduct of public events. The relevance of administrative and legal support for public events, its role, significance and social necessity in the modern era of globalization is also revealed.

Key words: public event, public safety, public order, administrative and legal regulation, public unrest, security, activity, government agency, legislation.